

HAMID ZIYOYEV

TARIXNING
OCHILMAGAN
SAHIFALARI

TDV İSAM
Kütüphanesi Arşivi
No TK/122

IX

OZODLIK UCHUN TO'KILGAN QONLAR⁴

1892 yilgi qo'zg'olon

Turkistonning Rossiyaga qaramligi, uning xomashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishining salbiy oqibatlari shaharlar aholisi faoliyatiga ham ta'sir etmasdan qolmas edi. Paxtaning deyarlik barchasining Rossiyaga olib ketilishi va u yerdan gazlamalarning ko'p miqdorda keltirilishi mahalliy sanoat— hunarmandchilikka zarba berdi. Oqibatda mahalliy gazlamalar fabrika gazlamalari bilan raqobat qilishga bardosh beraolmay sindi. Ko'p sonli to'quvchilar va ularga bog'liq bo'lgan boshqa xilma-xil hunar egalari xonavayron bo'ldilar. Shu ravishda shahar aholisining talay qismi og'ir ahvolga tushib qoldi. Bundan tashqari, qishloqlarda bir parcha yerlaridan mahrum etilgan dehqonlar ham shaharlarda tirikchilik dardida izg'ib yurardilar. Bu yerda mardikorlar va boshqa ulgurji ishlar bilan shug'ullanadigan kishilar oz emas edi.

XIX asrning 80-90 yillarida shunday og'ir vaziyat general-gubernatorlikning markazi bo'lmish Toshkentda ham yuzaga keldi. Bu vaqtda shaharning eski qismida 100 ming kishi yashamoqda edi. Mustamlakachilik siyosati birinchi navbatda bu shahardan butun o'lka bo'ylab taralar edi va shu sababli azob-uqubatlarni

⁴ Ozodlik uchun to'kilgan qonlar. T. 1997.

ham ular boshqalarga nisbatan ko'proq tortardi. Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatori Gradkovning tan olishicha, 1887 yildan boshlab shahardan olinadigan soliqning miqdori ko'paygan. Shuningdek, hukumat tomonidan vaqf yerlarining chegaralanishi norozilikni uyg'otgan.

1891 yilda Toshkent shahri va Sirdaryo viloyatining aholisi ma'muriyat vakillarining yer masalasi bo'yicha yurgizayotgan noto'g'ri siyosati haqida imperatorga shikoyat xatini yubordilar.

«1890 yilning oxirida, — deb yozgandi ular, — yer o'lchovchilardan va uyezd boshliqlari tomonidan har bir yer egasi, agar sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjati bo'lmasa, bunday yerlar jamoa yerlariga aylantirilib soliqni yakka holda to'lash taqiqlanar emish. Yaylovlar va pichanzorlarning orasida qarovsiz yotgan yerlar hamda to'qayzorlar davlatniki bo'lishi kerak emish. Shuningdek, tog' bag'rilaridagi lalmikor yerlar ham davlat ixtiyoriga o'tkazilar emish. Vaholanki, ular qadimdan qishloqlarniki edi. Bizning boshliqlarimiz masalani shunday hal qiladi: Bir kishi bir desyatina yerga ega bo'lib ekin yetishtiradi, agar shu yerning o'rtasida mabodo 100 kv. saj. chakalakzor maydon bo'lsa, uni devor bilan o'rashga va davlatga o'tkazishga majbur qiladi. Bulardan tashqari, qamishzorlarni ham davlatniki deb hisoblaydilar. Vaholanki, bu yerlardagi qamishlardan ko'p odamlar foydalananib bo'yra va boshqa narsalar to'qishib ma'lum darajada daromad oladilar».

Shu bois toshkentliklar o'z xatida hukumatning yer xususidagi siyosatiga qarshi norozilik bildirganlar. Ammo xalqning bunday da'vosi ma'muriyatni g'azablantirib, bu hukumatga qarshi qaratilgan harakat sifatida baholandi. «Shuning uchun, — ham deyiladi o'sha xatda, — biz rus advokatini tayinlab dardimizni bayon etmoqchi bo'lqanimizda boshliqlar volost oqsoqollarini ishdan oldilar, bizga ishonchli vakilni tanlashni va shikoyat qilishni taqiqlab Sibirga surgun qilish bilan qo'rqtildilar.» Shunisi diqqatga suzovorki, mahalliy aholining manfaatlari rus advokati Nikitin tomonidan himoya qilingan. Aftidan xatni Nikitin yozgan, shu bois u o'lordan haydar chiqarilgan. Ammo uning faoliyati va imperatorga yozilgan xati faqat Toshkent viloyatidagina emas, balki huttun o'lkada katta taassurot qoldirdi. Bundan tinchsizlangan

general-gubernator A.Vrevskiy harbiy vazirga yozgan xatida advokat Nikitinning faoliyati xalqni qo‘zg‘ashga sababchi bo‘lishi hamda Nikitinga berilgan ishonch qog‘ozi amalda rus ma’muriyatining harakatlariga qarshi qaratilgan varaqha ekanligini bayon etgan.

Haqiqatan, advokat Nikitinning bevosita qatnashuvida tuzilgan, hukumatning yer siyosatini qoralovchi xat jamoa ahlini qo‘zg‘otib yubordi. Ko‘p o’tmay Toshkentning 12 ming kishisi tomonidan hukm surayotgan tartiblarni qoralovchi xat general-governatorga topshirildi. Bu xatni tuzishda qatnashgan Muhammadjonxoja Ahmadjonov degan kishi Orenburgga surgun qilindi. Chor hukumati xalqning qattiq norozilikiga qaramay davlat yerini kengaytirishga qaratilgan siyosatini yurgiza berdi. Bu yerlarning ma’lum qismi Rossiyadan kelgan kishilarga berildi. A.Vrevskiy yuqorida qayd qilingan xatida shunday yozgan: «Mahalliy aholiga tegishli yerlarning ruslarni o’mashtirish uchun berilishi norozilikning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Rossiyadan odamlarning kelishi davom etaversa, norozilik kelgusida ham oshishiga shubha yo‘q».

Shuningdek, A.Vrevskiy yangi soliq tartiblarining joriy etilishi orqasida soliqlarning miqdori oldingiga nisbatan 100 foyizga oshib, bu xalq g‘azabini oshirganligini uqtirib o’tgan. Natijada Toshkentda og‘ir sharoit yuzaga kelib, xalqning sabr-toqata tugadi. Ana shunday mushkul bir vaziyatda shaharda vabo tarqalganligi ham ma’lum bo‘ldi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra 1992 yil 1 iyunda Jizzax uyezdida ham vabo kasali paydo bo‘lganligi qayd qilingan. Shu munosabat bilan viloyat harbiy gubernatori farmoniga ko‘ra Sirdaryoning chap qirg‘og‘idagi Chinozda, Toshkentdan 65-70 kilometr uzoqlikdagi joyda meditsina punkti ochildi. Bu yerga vabo kasaliga chalingan bir nechta kishilar yotqizila boshlandi. O‘scha yilning 7 iyunida esa Toshkent shahrida vabo kasali borligi aniq ma’lum bo‘ldi. Rus hukumati ma’muriyati unga qarshi choralarini ishlab chiqdi. Bunga ko‘ra vabodan o‘lgan kishilarning murdasini vrachning ruxsatisiz dafn qilmaslik lozim edi. Shuningdek, murdalarni shahar ichidagi eski mozorlarga ko‘mmasdan, shahardan chekkarog‘, joyda ochilgan yangi qabristonlarga ko‘mish tavsiya qilindi. Ammo vrachlar va hamshiralarning yetishmasligi orqasida murdalar 3-4 kun mobaynida qolib ketib, havoning issiqligi tufayli sasiy boshlagan. Ayollarning

murdalarini rus erkak vrachlari ko'zdan kechirgan. «Tub aholining so'zlariga ko'ra, — deb yozadi o'sha davr tarixini bitgan mualliflardan biri, — sanitarlar orasida turli kasbdagi odamlar va ofitserlar kiyimini kiygan yotlar politsiyachilar bilak birgalikda «po'sht» deyishib, mahalliy aholining uylaridagi ayollar yashaydigan xonalarga kirishgan. Ular tozalikni nazorat qilish bahonasida ota-onalar huzurida ayollarga va qizlarga nisbatan turli o'rinsiz qiliqlarni qilishgan.»

Murdalarni yuvish va ularni ko'pchilik bo'lib qabristonga olib borish taqiqlangan. Garchand, ma'muriyatning bu choralari vaboni imkonи boricha daf etishga qaratilgan bo'lsada, lekin ularni amalga oshirishda qator qo'polliklarga va zo'ravonliklarga yo'l qo'yildi.

Rus hukumatining vaboga qarshi choralari zulm va adolatsizlikdan sabr kosasi to'lib-toshgan shaharliklarning bosh ko'tarishiga turtki bo'ldi. Ayni paytda, vrachlar suvga oq poroshok tashlab zaharlashmoqda va bu suvni kasallarga ichirib ularni o'ldirmoqda degan har xil mish-mishlar tarang ahvolni yanada keskinlashtirdi. Bu xususda manbalarda shunday deyiladi: «Toshkentda duv-duv gap. Nima emish, doktorlar Chinozda kasalni surishtirmay dori bermoqda va bu ularni darhol o'ldirmoqda. Shahar mirshabi savdogarlarga murdalarni kafanga o'ramaslik va hech qanday diniy rasmlarsiz ko'mish haqida ko'rsatma bergan». Umuman aytganda, vabo kasalining vahimasi va turli mish-mishlar shahar, atrof qishloqlarni qamrab olib, kishilar g'azabini qo'zg'otdi. Chunonchi 20 iyunda shaharning Sebzor dahasidagi Xonaqo masjidida xaloyiq to'planib oralaridan 3 vakilni saylashib, norozilikni shahar boshlig'iga ma'lum qilishni topshirdi. 22 iyunda shahar oqsoqoli Muhammad Yoqub o'sha vakillarni chaqirib, mish-mishlarga ishonmaslikka undaydi. O'sha kuni Shayxontohur dahasidagi Tallak masjidida kishilar yig'ilishib shahar boshlig'i nomiga xat yozdilar: «Bizlar murdalarni yangi mozorlarga dafn etishga qarshiligidizni va eski mozorlardan foydalanishni davom ettirishimizni shahar boshlig'iga ma'lum qilishlikni mingboshidan va katta oqsoqoldan so'ragan edik. Chunki murdani yangi qabristonlarga olib borish qiyinchiliklarni tug'diradi. Ammo shu paytgacha bunga javob berilmadi». Shahar ayollari ham Turkiston general-gubernatoriga xat yozishib o'z noroziliklarini izhor etgan edilar.

Butun voqealarning jonli guvohi bo‘lgan shahar boshlig‘i S.Putinsevning bergan ma’lumot masalani yanada oydinlashtiradi: Iyun oyi boshlarida, — degandi u, — vabo kasalining tarqalishiga qarshi qaratilgan choralar yerlik aholida turli mulohazalarni yuzaga keltirib, xalqning ko‘rilayotgan choralarga nisbatan ishonchi qolmadi. Hatto vrachlar vabo kasaliga yo‘liqqanlarni azob-uqubatlardan tezroq holi qilish maqsadida maxsus poroshok berib o‘ldirmoqdalar, degan ovozalar tarqaldi. Shuningdek, ruslar anhor arig‘idagi suvni zaharlab tub aholini qirmoqchi, degan so‘zlar eshitilib turildi. Bundan tashqari, mahalliy xalq vabo kasali bilan o‘lganlarni shahar ichidagi mozorlarga ko‘mish taqiqlanganiga qarshi bo‘ldilar. Shahar chekkalarida ochilgan mozorlarda murdalarni maxsus belgilagan kishi tomonidan yuvilishi, janoza o‘qilishi va darhol dafn etilishi ko‘rsatilgan edi. Ammo murdani ko‘pchilik bilan mozorga olib borishga ruxsat berilmadi».

Chor ma’muriyatiniig vaboga qarshi choralarining diniy aqidalar va umuman, mahalliy sharoitni hisobga olmay amalga oshirgan ishlarining foydadan ko‘ra ziyoni ko‘proq bo‘ldi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra vabodan har kuni 100 taga yaqin odamlar o‘lgan. Rasmiy ma’lumotda esa 7-24 iyun kunlarida vaboga 64 kishi chalinib, shundan 43 tasi o‘lganligi qayd qilinadi. Aftidan ma’muriyat vakillari fojiani yashirish maqsadida shunday ma’lumot bergan. Vabo kasaliga qarshi qaratilgan choralar xalqning og‘ir siyosiy va iqtisodiy sharoitini yanada keskinlashtirib, bamisol «olovga kerosin» qo‘ygandek bo‘ldi. Ammo o‘lkadagi Rus ma’muriyati vakillari diqqatni qo‘zg‘olonning asosiy sabablaridan chalg‘itish uchun mahalliy aholining noroziligini yuqori tabaqa vakillarining mansab uchun olib borgan kurashlari mahsuli sifatida tushuntirishga harakat qiladilar. Shu munosabat bilan bu masalaga to‘xtash ayni muddaodir. O‘sha paytda Toshkent shahri Sebzor, Shayxontohur, Beshyog‘och va Ko‘kchadan iborat to‘rt dahadan iborat bo‘lgan. Har bir dahada bittadan oqsoqol qozi, mingboshi, yuzboshi va yigitlardan iborat mirshablar xizmat qilgan. Ular xalq tomonidan «saylangan». Viloyat harbiy gubernatori katta oqsoqolni tayinlagan va unga barcha dahaning oqsoqollari bo‘ysundirilgan. O‘z navbatida katta oqsoqol shahar boshlig‘i bo‘lmish S.Putinsevga bo‘ysungan.

Ko‘p yillar mobaynida eski shaharda katta oqsoqollik lavozimida Inog‘omxoja Umarxojayev ishlagan. Bu kishi avval Shayxontohur dahasida oqsoqol, so‘ngra 20 yil mobaynida shahar boshlig‘ining o‘rinbosari, ya’ni katta oqsoqol sifatida xizmat qilgan. Inog‘omxoja S.Putinsevning ishonchini qozonib bir necha marotaba o‘lka rahbariyatining mukofotlariga sazovor bo‘lgan. Shubhasiz, u tub aholi orasida katta obro‘ga va nufuzga ega bo‘lgan kishidir. Buning isboti uchun shuni aytish mumkinki, odatda boshliqlar ustidan shikoyat qilishga moyil xalqdan unga qarshi ikki marotabagina ariza tushgan, xolos. Ulardan biri Inog‘omxoja o‘zi tutib bergen va keyinchalik surgun qilingai jinoyatchidan, ikkinchisi, Chimkent uyezdidagi qozoqdan edi. Bu qozoqning yozishicha, 1891 yilda Inog‘omxoja pista (saksovul) ko‘miri bilan savdo qiluvchilardan pora olgan ekan. Viloyat harbiy gubernatori Grodekov bu shikoyatni tekshirmay va haqiqatni aniqlamay, 1892 yil 21 mayda Inog‘omxojani mansabdan chetlatib, o‘rniga Shayxontohur oqsoqoli Muhammad Yoqubni tayinlagan. Natijada Inog‘omxoja va uning tarafdorlari xalqni Muhammad Yoqubga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishga da‘vat etgan emish. Shu ravishda qo‘zg‘olon sabablari ikki guruhning mansab uchun kurashiga yo‘yib yuborilgan. Bu haqda quyiroqda yana so‘z yuritamiz. Bevosita qo‘zg‘olonga kelsak, u yuqorida qayd qilinganidek, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarga ega edi. Ammo bundan qat’iy nazar, mahalliy yuqori tabaqa vakillari orasida o‘z vatani mustaqilligi va ozodligini istovchilar ham yo‘q emas edi. Ular qo‘zg‘olonda faol qatnashmagan bo‘lsalarda, lekin unga xayriyohlik bilan qarashganidi.

Manbalarning ko‘rsatishicha, shaharning katta oqsoqoli Muhammad Yoqub vaboga qarshi qaratilgan choralar ni amalga oshirish ishiga boshchilik qilib xalqning g‘azabiga uchragan. «Chunki u qattiqqo‘llik bilan harakat qilgan. Uning so‘ziga qaraganda, 23 iyunda Hayit bayramining birinchi kunida shaharning jome masjidida erta soat 5 da hayit nomoz o‘qilgandan keyin S.Putinsev kelib xalqqa murojaat qilgan: «Xalq orasida, — degan u, — vaboga qarshi ko‘rileyotgan choralar xususida noto‘g‘ri fikrlar yuribdi. Hozirda bunga shahar katta mablag‘ sarflamoqda. Aytilgan choralar valboni tarqalib ketmasligi va xalqning foydasi uchun qilinayotir».

Bu so‘zlar tobora keskinlashib borayotgan vaziyatni yumshatish maqsadida aytilgan, albatta S.Putinsevning o‘zi jome masjididagi uchrashuvni shunday tasvirlaydi: «23 iyunda erta soat 5 da jome masjidiga keldim. Bu yerda, men, nihoyatda ko‘p to‘plangan odamlarni ko‘rdim. Masjidda va atrofdagi ko‘chalarda 10 ming kishi to‘plangan edi. Mening huzurimda hayit namoz o‘qildi. Shundan keyin men xalqqa qarata rus tilida so‘zladim. Mening gaplarimni rus tilini yaxshi biladigan Ko‘kcha dahasining oqsoqoli Ibrohimbek tarjima qilib turdi. Bu kishi ilgari mening tarjimonim edi. O‘zim o‘zbekchani bilganligim uchun tarjimaning aniq qilinayotganligini sezib turdim. Aholini hayit bayrami bilan tabriklab turli mish-mishlarning asossizligini va barcha ishlar xalqning foydasi uchun qilinayotganligini ta’kidladim. Shuningdek, ko‘rilayotgan choralar tufayli kasallar kamayayotganligi, agar rus hukumati yomon niyatda bo‘lsa, 27 yil ilgari o‘lkani bosib olayotganda, barcha yerli xalqni qirib tashlashi mumkinligini aytdim».

Shundan keyin Shayxontohur qozisi Sharifxoja xalqqa qarata: «Endi ko‘rib turibsizlarki, vaboga qarshi qanday choralar ko‘rilmoxda, shuning uchun barcha mish-mishlar noto‘g‘ridir», — deb aytgan. Yig‘indan so‘ng Sharifxoja jome masjidida S.Putinsevni, Muhammad Yoqubni, to‘rt dahaning oqsoqollarini mehmon qilgan. Shu yerda Muhammad Yoqub chaqimchilik qilib, mahallalarda, xususan, Sebzor dahasida noroziliklar bo‘layotganligini S.Putinsevga ma‘lum qiladi. U ketgandan keyin Sebzor dahasining oqsoqoli Komilbek, chaqimchilikdan norozi bo‘lib, xafa bo‘lganini Muhammad Yoqubga bildirgan. Biroq keyin ham ahvol o‘zgarmagan. Muhammad Yoqub mahallalarda murdalar tekshirilmasdan va berkitilgan holda shahar ichidagi mozorlarga ko‘milayotganligi haqida aktlar tuzgan va bu haqda boshliqlarga ma‘lumot berib turgan. Uning bu xatti-harakatlari xalq nafrati va g‘azabini qo‘zg‘agan. Bundan tashqari, Muhammad Yoqub shahar atrofidan, ya’ni qishloqlardan kelgan mardikorlarni va «qora ishlar» bilan shug‘ullanuvchi kishilarni surishtirmay kasalxonaga yotqizabergan. Ba’zilarini esa nohaq ushlab turgan, shu sababli ular shahardan qochib ketishga majbur bo‘lgan. Bu holat ham mardikorlarning Muhammad Yoqubga nisbatan nafratini

uyg'otgan. Shu orada Inog'omxojani ishdan olinishidan norozi bo'lган kishilar Muhammad Yoqubni qoralashga o'tgan. Umuman aytganda, ezilgan, talangan xalq, birinchi navbatda Muhammad Yoqubdan o'ch olishga ahd qildi va bosh ko'tardi. Qo'zg'olon Sebzor dahasida boshlandi. Muhammad Yoqubning o'zini so'ziga qaraganda, avvalo, 2000 kishilik olomon uning uyiga borgan.

Qo'zg'olonchilar Muhammad Yoqubni uyidan topa olmagan-dan keyin yangi shaharga, uning mahkamasi tomonga yo'l olgan. Bu yerda Muhammad Yoqub va S.Putinsev kaltaklangan. Olomon baqiriq-chaqiriqlar bilan shaharning ko'rsatalgan ikki amaldoriga o'z noroziliklarini izhor etib, mahkamani toshbo'ron qilganlar. Muhammad Yoqubning ta'riflashicha, mahkamaga yaqin ko'chada olomon unga tosh otgandan keyin boshi, yelkasi va beli jarohatlangan holda mahkama ichiga kirishga muvaffaq bo'lgan. Shu paytda olomon mahkama hovlisiga bostirib kira boshlaganda Muhammad Yoqub shu yerdagi mahkama kotibining uyiga kirib yashiringan. Tashqaridan «Oqsoqolni ber!, Uni o'ldiramiz» — degan so'zlar eshitilib turgan. Kotibning xotini Muhammad Yoqubni shkaf ichiga, uning soqchisi Sayfullani stolning tagiga yashirgan. Bu vaqtida qo'zg'olonchilardan bir guruhi kotib uyiga kirib oqsoqolni o'ldirmoqchi ekanliklarini aytgan. Ammo ular oqsoqolni topolmaganlar.

Mahkamada qo'zg'olonchilar S.Putinsevga ham hujum qilganlar. Uning aytishicha, voqeа quyidagi tarzda sodir bo'lgan: «Sobir ko'chasida menga Muhammad Yoqub va soqchilar qo'shilishdi. Shunda mirshablar olomonning rus (yangi) shaharga kelayotganligi haqidagi xabarni keltirdilar. Iqon ko'chasi bo'ylab Voronsov ko'chasiga chiqqanimda olomonning Samarqand ko'chasiga kelayotganini ko'rdim. Men olomonga yaqinlashdim, lekin ular Voronsov va Samarqand ko'chalari kesishadigan joyda meni qurshab Muhammad Yoqub ustidan shikoyat qilishmoqchiliginini gapirdilar. Muhammad Yoqub olomonni to'xtatishga ko'p harakat qildi. Shunda unga olomon tomonidan toshlar otildi va u otga minib qochdi. Orqasidan bir guruh qo'zg'olonchilar quvib ketdilar. Men bir guruh qo'zg'olonchilar qurshovida O'rda bozori tomonga yurdim, lekin olomonni shahar mahkamasining hovlisiga bostirib

kirganligini eshitib, orqaga qaytdim. Bu yerda Muhammad Yoqub borligini anglab olomonni to'sish maqsadida darvoza oldida turib oldim. So'ngra, men olomondan Muhammad Yoqubning aybi nimada, deb so'radim. Ular qichqirgan holda oqsoqol murdalarni dafn etishga ruxsat bermayotir va ariqlardagi suvlarni zaharlashda vrachlarga ko'maklashmoqda, deb javob berdilar. Ayni bir paytda: «Bizga oqsoqolni bering, uni uramiz» — deb baqirdilar. Men olomonni tinchlantirishga harakat qildim, lekin shovqin-suron tufayli so'zlarimni eshitishning iloji bo'lindi. Shu orada mahkama hovlisining boshqa tarafidan odamlar kirishib orqamdan tortdi, oldi tarafdan olomon siqib kelaverdi. Shu ravishda meni orqaga hovli tomonga itarib kirishdi. Men mahkama xonasining eshigi oldidagi maydonga chiqdim. Bu yerda olomonni tinchitishga harakat qildim, lekin «oqsoqolni bering, o'ldiramiz» — deb baqirishdi. Bu talabga oqsoqolni bera olmasligimni, chunki u hukumat farmonini ijro etgan, deb javob berdim. Shunda olomon tarafidan, agar «Oqsoqolni bermasang o'zingni o'ldiramiz», — degan ovozlar eshitilib turdi. Bu paytda olomon meni hovlining o'rtasiga itarib bordi va do'pposladi, so'ngra toshbo'ron qilishdi. Men yiqilganimda qo'zg'olonchilardan to'rt kishi ustimga yotishib himoya qilishdi. Ammo tanamning bekitilmagan joylaridan uraverdilar. Natijada boshim, o'ng qo'lim va qovurg'alarim jarohatlandi».

Bir muddat hushidan ketgan S.Putinsev o'ziga kelganda ham tepasida olomonni ko'rgan. Ular Putincevdan darhol vrachlarni shahardan olib chiqib ketish, suvlarni zaharlamaslik hamda murdalarni dafn etishga ruxsat borish haqida tilxat berishni qat'iy talab qilganlar. S.Putinsev bunga rad javobini bergandan keyin olomon uni yana iskanjaga oladi. «Aynilsa menga, — deydi S.Putinsev, — qattiq tiqilinch qilib urmoqchi bo'lgan uch kishi bo'ldi. Ulardan birining labida tirtig'i bor 20 yoshli yigit edi, ikkinchisi, o'sha yoshdagi va endi soqoli unib chiqayotgan qotma o'spirin, uchinchisi qizg'ish rangli ko'yakdag'i baquvvat odam edi. O'spirin menga: «Agar bizning talablarimizni qabul qilmasang, seni o'ldiramiz», — deb mushtumini ko'tardi. Boshqa bir novchi odam «O'rta ga chiq, xalq talablariga rozililingni ayt», — deb baqirdi. Shundan keyin olomon yana shovqin-suron ko'tarib S.Putinsevga

yopishadi, lekin uni qo‘zg‘olonchilardan to‘rt kishi himoya qilib mahkamadagi xonasiga kiritib qo‘yishadi. Bu xonaga tashqaridan toshilar otiladi va ulardan biri S.Putinsevning biqiniga tegadi. U xonadan ayvonchaga chiqib, olomonni tinchitishga harakat qilib ko‘radi. Ko‘p o‘tmay soldatlar, mahkama atrofida istiqamat qiluvchi ruslar so‘yil va boshqa narsalar bilan kelishib qo‘zg‘olonchilarni kaltaklaydilar. Ularning hujurniga bardosh berolmagan qo‘zg‘olonchilar turli tarafga qochadilar. Olomon O‘rdadagi bozorchaga kelganda harbiy gubernator soldatlar bilan yetib keladi. Gubernator vaziyatni nazorat qilishni o‘z zimmasiga olganligini va Eski shaharga borajagini ma’lum qiladi.

Mahkamadan olomon ketgandan keyin Muhammad Yoqub xonadagi shkafdan chiqqan.

Bir guruh qo‘zg‘olonchilar Muhammad Yoqub uyiga borishib, mol-mulkini talyaydilar. Uning uyini yondirish uchun harakat qiladilar, lekin ulgurolmaydilar. Ammo uning Qorasuv arig‘ining yonidagi qo‘rg‘onchasi yondirib tashlanadi. Shuningdek qo‘zg‘olonchilar Muhammad Yoqubning akasining uyini talashga va yondirishga ham-harakat qiladilar, lekin soldatlar kelib qolib bu ish amalga oshmaydi.

Shahar mahkamasidagi olomonning faoliyati xususida unter-ofitser P.YE.Alekseyevning ma’lumoti masalani oydinlashtiradi: «Men — deydi u, — Voronsov ko‘chasida shahar boshlig‘i S.Putinsevning orqasidan Romanov ko‘chasiдан chiqayotgan olomon quvlab ketayotganini ko‘rdim. Olomon orqasidan mahkamaga kelganimizda, S.Putinsevni va mahkama a’zosi Novgorodskiyni olomon o‘rab olganligining guvohi bo‘ldik. Ular olomon bilan o‘zbek tilida muomala qilmoqda edilar. Olomonning oldingi safida oq soqolli va sallasiz bir keksa odam ko‘proq gapirmoqda edi. Bu keksa kishi Putinsevni ko‘kragidan itarib, mahkama hovlisiga kiritishga harakat qilmoqda edi. Olomonning boshqa qatnashchilari ham Putinsev va Novgorodskiyni hovliga itardilar. Men olomonga yaqinlashayotganimda bir o‘zbek tayoq bilan oyog‘imga urib yerga yiqitdi va o‘zi ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Olomon Putinsevni hovli ichiga kiritgan vaqtida men boshqa tomonidan u yerga kirganimda o‘zbeklarning mahkama idorasiga

tosh otayotganliklarini ko'rdim. Mening ko'z o'ngimda ular Putinsevni urdilar va yerga yiqitdilar. Ammo u mahkama xonasiga qochib kirishga muvaffaq bo'ldi. «Uning boshi qonga belangan bo'lib, shapkasi yo'q edi. O'zbeklar ochiq derazadan Putinsevga tosh otardilar. Men ochiq derazadan Putinsevning qilich yalang'ochlab orqasidan kirgan o'zbeklarni qo'rqiayotganligini ko'rdim».

Ko'rinish turibdiki, qo'zg'olonchilar nihoyatda g'azablangan holda shahar boshliqlarini va binoni toshbo'ron qilganlar. Agar qo'zg'olonchilar orqasidagi ayrim kishilar o'rtaga tushib, S.Putinsevni o'rab himoya qilmaganda uning o'ldirilishi turgan gap edi. Bu kishilar uning o'ldirilishining fojiali oqibatlarini o'ylab shunday qilganlar. Haqiqatan, bordiyu ruslardan biror kishi halokatga uchraganda bormi, u vaqtida buning bahonasida qo'zg'olonchilardan yuzlab kishilarning soldatlar tomonidan qirib tashlanishi turgan gap edi. S.Putinsevni himoya qilganlardan biri yangi shahar mahallasida yashovchi, mardikorlik bilan shug'ullanuvchi Muso Muhammad Rustamboyev degan kishi bo'lgan. U mahkamadagi voqeani shunday ta'riflaydi: «Men kelgan paytda olomon S.Putinsevni shahar mahkamasining hovlisida toshbo'ron qilmoqda edi. U yerga yiqilganda, men uni gavdam bilan to'sib, «Musulmonlar, nima qilyapsizlar, ehtiyoj bo'linglar, sizlarni deb butun Toshkent halok bo'ladi, deb baqirdim. S.Putinsev o'rnidan turib mahkamaga yurayotganda olomon va men ham orqasidan bordik. U xonaga yaqinlashganda eshikka suyanib hech kimni o'tkazmaslikka harakat qildi. U meni yaxshi odam ekansan, isming nima, qaysi mahallada turasan, deb so'radi. Men olomondan qo'rqiб ismimni aytmadim. Shu vaqtida xonada Xaltay degan kishi ham odamlarni to'sib turardi. Olomon meni ham urmoqchi bo'ldilar, ular siyohdonni otdilar va men S.Putinsev xonasiga qochdim. Bu yerda meni stol atrofida kishilar quvlab yurishdi. Nihoyat, ularning orasidan qochib ko'chada turgan ruslar orasiga yashirindim. Soldatlar kelib olomonni ura boshladilar, men qo'rqiб uyga ketdim».

M.Rustamboyevning guvohlik berishicha Musaboyvachcha (yoki Isaboyvachcha), Kalmusa, Muhammadjon, Yunusboyvachcha va Toshbolta degan kishilar katta g'ayrat bilan harakat qilishib, S.Putinsevni toshbo'ron qilishda qatnashganlar.

Guvoh sifatida tergov qilingan N.Galkinning so‘ziga qaraganda olomonning oldingi safida ot mingan qora soqolli 22-23 yoshli bir yigit yurib, qo‘zg‘olonning boshlig‘i sifatida gavdalaniб turgan.

Olomon soldatlar tomonidan mahkama hovlisidan surib chiqarilgandan keyin «ruslar o‘zbeklarni kaltaklashni davom ettirdilar, gubernator ularga tegmaslikni buyurdi. Ammo o‘zbeklar uning o‘ziga ham tosh otganlaridan keyin, u ruslarga o‘zbeklarni uringlar deb baqirdi. Shundan keyin ruslar o‘zbeklarga tashlandilar va uraverdilar. Shu vaqtarda ayrim o‘zbeklar ushlanib mahkamaga olib borildi. Ruslar o‘zbeklarni O‘rda bozorigacha quvib bordilar. Ular bu yerdan tarqalib ketdilar.

Binobarin, qo‘zg‘olonchilar viloyat harbiy gubernatorining ko‘rsatmasiga binoan oddiy rus kishilarini tomonidan kaltaklandi. Qo‘zg‘olonchilarning orasida kaltak va toshlar zarbidan o‘lganlar va jarohatlanganlar ham ko‘p bo‘lgan. Olomonning hukm surayotganadolatsizlikka va zulmga qarshi kurashi shahar mahkamasida o‘z ifodasini topdi. Bu yerda shahar boshliqlariga hujum qildilar. Mahkamaning va xizmatchilarning xona eshiklari, derazalar va mebellari buzib tashlandi. Shuningdek, olomon turli hujjatlarni, kitoblarni va boshqa narsalarni yo‘q qildi.

Viloyat prokurorining ko‘rsatishicha, qo‘zg‘olonning oldingi saflaridagi kishilar «qashshoqlashgan yosh yigitlardan» tashkil topgan.

Qo‘zg‘olonga bog‘liq keyingi voqealar ham fojiali kechdi. «O‘rdadan — deydi P.Alekseyev, — harbiy qism gubernator boshchiligidagi eski shahar tomonga yo‘l oldilar. Shundan keyin O‘rdada yana odamlar to‘plandi. Va bu yerda men boshqa ruslar bilan ko‘cha bo‘ylab ketayotganimda bizga xonadonlardan toshlar otildi. Biz ko‘cha atrofidagi xonadonlarni tekshirdik. Bir politsiya tampa bilan bekitilgan eshikni buzib ochganda, uyning tomida 4 kishi turgan ekan. Ulardan 3 tasi tomdan sakrab qochdilar, biri pichoq bilan politsiyaga tashlandi. Bir soldat uning qo‘liga urib pichoqni tushirdi va o‘zini tomdan pastga tashlab yubordi». Shu ravishda soldatlar ko‘cha va xonadonlarda qo‘zg‘olon qatnashchilarini ushlab va kaltaklab hibsga oldilar. Butun shahar yig‘i-sig‘i va motam ichida qoldi. Mirshablar «jinoyatchilar»ni qidirib izg‘ib yurdilar.

Ayni bir paytda Sirdaryo viloyat gubernatori Grodekov, S.Putinsev va shaharning boshqa kattalari soldatlar bilan Eski jo‘va bozori keldilar.

«Bu yerda, — deydi S.Putinsev, — gubernator soldatlarga jome masjidi bilan Xoja Ahror madrasasi o‘rtasidagi ko‘chaga joylashishlarini buyurdi. Chunki bu ko‘chaga yana bir guruh olomon yaqinlashayotgani haqida xabar olingan edi. Haqiqatan, olomon masjidga o‘sha ko‘chalardan yaqinlashib keldi. Men bu yerda soldatlar borligini bildirib, olomonga tarqalishlarini so‘raganimda, kichkina soqolli va mo‘ylovli bir yigit ularning orasidan chiqib: «Bizni zaharlashmoqda, zaharlashsa ham indamaylikmi, yana tarqalib ham ketaylikmi?», deb gapira boshladi. Men bu yigit mahkamadagi g‘alayonda ham faol tashkilotchilardan biri bo‘lganligini esladim va soldatga uni ushlashni buyurdim. Soldat bu yigitni ushlab olganda, olomon chekina boshladi. Shu onda o‘sha yigit: «Musulmonlar, meni yolg‘iz tashlab qayoqqa qochyapsizlar?», deb baqirdi. Shundan keyin olomonning aksariyati qaytib bizga toshlarni otdilar. So‘ngra ular ushlangan yigitni ozod qilish maqsadida soldatga tashlandilar. Bu vaqtda gubernator va komandir Fedorov soldatlarning orqasida turardilar. Shu onda soldatlarga «tayyorlaning» degan buyruq berildi. Yigit esa ro‘paradagi ko‘chaga qochishga ulgurdi. Xuddi shu paytda soldatlar olomonga qarshi o‘q uzdilar va ular yana qocha boshladilar. Bulardan 5 kishi yiqildi, ular jarohatlandi yoki o‘ldirildi. Ikkinci marotaba ham o‘qlar otildi. Hammasi bo‘lib 7 yoki 9 kishi o‘ldirildi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra o‘q uzilishidan oldin bir ofitser olomonga tarqalmasanglar otib tashlaymiz, deganda, qo‘zg‘olonchilardan: «mana otib tashla!» deb ko‘kragini tutganlar bo‘lgan. Qo‘zg‘olonda ayollardan biri: «Odamlarni zaharlab o‘ldirmoqdalar» deb baqirgan. Bu holat qo‘zg‘olon o‘z bag‘riga ayollarni ham tortganligi haqida dalolat beradi. Shu holda qurorsiz xalq vahshiylarcha o‘qqa tutildi. Tabiiyki, yoppasiga o‘q uzishdan keyin ham yana alohida o‘qlar otilgan. O‘q uzish gubernatorning buyrug‘i bilan to‘xtatilgan. Olomon qatnashchilari qochgan. Keyin qo‘zg‘olonchilardan 10 kishi o‘ldirilganligi ma’lum bo‘lgan.

Gubernator Grodekov va S.Putinsev bozorga kirishib, ko‘nchilik

rastasida to‘xtaydilar. Bu yerda hech kim yo‘q edi, lekin uzoqroqda odamlar to‘planib turardi. Bu yerga kelgan S.Putinsev olomonga tarqalinglar deb buyurganda, bir odam, o‘rtaga chiqib: «Shaharda har kuni yuzlab odam o‘lmoqda, ma’muriyat kimlarning vabodan o‘layotganligini aniqlashga ulgurmeyotirlar. Shu bois murdalarni to‘xtatmay ko‘mishga ruxsat berilishini so‘ragan». S.Putinsev bunga javoban haftasiga bor-yo‘g‘i bir necha kishilargina o‘layotganini aytgan. Lekin S.Putinsev buyrug‘i bilan o‘sha so‘zlagan odam va yana qo‘zg‘olonning bir nechta qatnashchilari ushlangan. Pichoqchi mahallasida yashovchi va guvoh sifatida so‘roq qilingan o‘nboshi Qosimxoja Aliboyev so‘zicha, olomon shahar mahkamasidan keyin O‘rda ko‘prigidan o‘tib, ko‘chalarda turgan. Uning ko‘rsatishicha, O‘rdaning Eski juva bozori bilan bog‘lovchi katta ko‘chada joylashgan Sayidkarim Azimboyeviing hovlisida kasalxona ish yuritgan. Kasalxona atrofida ertalab soat 10 da olomon to‘planib, Mirzaboyvachcha Mirsalimboyev, Usmon qassob, Aziz qassob va yamoqchi Iskandar Chuqurbekov kabilar «Biz Muhammad Yoqubni o‘ldirdik, uyini taladik, o‘g‘lini qo‘lga oldik, agar sizlar chindan ham musulmon bo‘lsalaringiz, do‘konlarni yopinglar va Shayxontohurga boringlar» deb baqirganlar. Shu paytda shahar boshlig‘i S.Putinsev va harbiy gubernator soldatlar bilan birgalikda kelishib, kasalxona atrofida turgan olomonga qarata murojaat qilib tarqalishni talab etgan. Gubernator «Agar aholi shahar boshlig‘idan yoki oqsoqollardan norozi bo‘lsalar, u vaqtida shikoyat yozsinlar, ularning o‘rniga boshqasini tayinlaymiz», degan. Shundan keyin gubernator va boshqalar o‘z yo‘lida davom etganlar. «Ammo olomon, — deydi Aliboyev, — tarqalmay, aksincha, gubernator va soldatlarning orqasidan bordilar. Men jo‘ne masjidining yaqinidagi boloxonaga o‘rnashib olganligim uchun hamma narsa ko‘rinib va so‘zlar eshitilib turdi. Iskandarbek va Azimboyvachcha yana paydo bo‘lib, gubernatorning shahar boshlig‘ini va oqsoqollarning almashtirish haqidagi va’dasiga «quloq solmanglar, ishonmanglar, axir bunday va’dalar ko‘p bo‘lgan-ku», deb baqirganlar. Kalxoja olomon orasidan otilib chiqib, shahar boshlig‘ining otining jilovidan tortdi. S.Putinsev esa uni qamchi bilan urdi. Iskandarbek va Azimboyvachcha «shahar boshlig‘ini

ushlanglar, deb olomonga murojaat qilganda, qo‘zg‘olonchilardan bir nechtasi uning otiga yopishdilar va toshlar otildi. Shunda, o‘q uzilsin, degan buyruq eshitilganda, Azimboyvachcha xalqqa: «Qo‘rmanglar, miltiqlarga quruq porox va paxta solingan», deb baqirgan. O‘qlar otigandan keyin olomon tarqaldi, Azimboyvachcha va Iskandarbek otda qochib ketdilar».

Demak, qo‘zg‘olonchilarning bir qismi shahar mahkamasidan chiqib, O‘rda bilan Eski juva o‘rtasidagi ko‘chada (hozirgi Navoiy) viloyat harbiy gubernatori va soldatlarga duch kelgan. Aftidan bu uchrashuv qo‘zg‘olonchilar Muhammad Yoqubning shahardagi hovlisini talab qaytayotganda sodir bo‘lgan. Eski shahar bozorida soldatlar tomonidan bir necha kishilarning o‘ldirilishi va jarohatlanishi bilan qo‘zg‘olon nihoyasiga yetdi. Viloyat gubernatori Grodekov soldatlarni turli joylarga yuborib, qo‘zg‘olonchilardan 60 kishini hibsga oldirtirgan. Ularning orasida nufuzli kishilardan ham bor edi. Rus ma’muriyati qo‘zg‘olonning sabablarini birinchi navbatda, bir guruh yuqori tabaqa vakillarining amalparastligiga yo‘naltirishga harakat qilib, uning siyosiy va ijtimoiy sabablarini pardalamoqchi bo‘ldi. Shu nuqtai nazardan qoralanganlar orasida Eski shahar sobiq oqsoqoli Inog‘omxoja Umarxojayev va uning o‘g‘illari Sayid Ahmadxoja va Tursunxoja, Shayxontohur dahasining qozisi Sharifxoja Pochchaxojayev va uning o‘g‘illari — Orifxon, Hasanxon, Ma’rufxon, Ashrafxon, oqsoqol Shermuhammad Qulmuhammedov, Boqijon Dadajonboyev, Usmonxoja Inoyatxojayev va boshqalar bor edi.

Harbiy gubernator Grodekiyning fikricha, o‘scha hibsga olingen bir guruh nufuzli kishilar o‘z lavozimidan chetlatilgan Inog‘omxoja boshchiligidagi qo‘zg‘olonning aybdorlari hisoblangan. Inog‘omxoja go‘yo mansabini saqlash maqsadida shaxsan o‘zi va yaqin odamlari orqali vabo kasaliga qarshi qaratilgan choralar haqida xalq orasida turli mish-mishlarni tarqatishga da’vat etgan emish.

Shuningdek, gubernator, Eshon Azizlarxojani o‘zining 30 kishidan iborat otliq muridlari bilan shaxsan qo‘zg‘olonga boshchilik qilganligini uqtirib o‘tgan.

Ayni paytda Turkiston general-gubernatori shahar boshlig‘ini, katta oqsoqolni va dahalarning barcha oqsoqollarini hamda qozilarini

lavozimidan chetlatdi. Shuningdek, mirshablar ruslardan yoki boshqa shaharda yashovchi tub aholi vakillaridan tayinlanadigan bo'ldi.

Viloyat gubernatori Grodekov o'zining Turkiston general-gubernatoriga yo'llagan xatida qo'zg'olon uchun butun shahar aholisini jazolash maqsadida O'rdadan Eski juvaga va jome masjidigacha ulanadigan ikkita katta ko'chani o'zlari hisobiga qayta qurishga darhol kirishishni so'radi. Uning fikricha, bunday yo'l ruslarni bo'lajak xavflardan saqlar emish. Aftidan Grodokov tor va qiyshi qo'chalarda harbiy harakat qilish va voqeani kuzatish og'irligini daf etmoqchi bo'lgan. Oqsoqollik lavozimiga odatdagidek o'zbek emas, rus kishisi tayinlandi.

Shu ravishda qo'zg'olon bahonasida eski shaharni boshqarish tamomila rus amaldorlarining qo'liga o'tkazildi. Endilikda bu katta oqsoqollik lavozimiga tub aholi vakili qo'yilmaydigan bo'ldi. Grodekov qo'zg'olonning sababini pardalash uchun, imkoniboricha, yerli xalqni ko'proq qamash va jazolash uchun hech narsadan toymadi. Shahar dahalarining oqsoqollarini, qozilarni va mirshablarii yoppasiga mansablaridai bo'shatishning tashabbuschisi ham Grodekovning o'zi edi. Ammo Sirdaryo viloyat prokurori P.YE.Reynbat Grodekovni qonunni buzishda ayblab, uning o'ziga va general-gubernatorga bir necha bor tushuntirish xatlari yozdi. U qo'zg'olonga dahldor bo'limgan kishilarni hibsga ololmasligini yoki ushlab turolmasligini bayon etib, o'z fikrida qattiq turib oldi. Ammo Grodekov buyrug'i bilan shaharning bir necha savdogarlari va nufuzli kishilar, xususai, Badalmuhammad hamda Boqijon degan kishilar qamaldilar. Prokuror tergov natijasida dalillar bo'limganligi uchun ularni ozod qildi. Grodekov esa bunga qarshilik qilib, «Agar isyon bo'yicha bir necha o'n kishi, ikki-uch eshon va Inog'omxoja jazolanmasalar, bugun jahon oldida sharmanda bo'lamiz», degan.

Bu so'zlarning ma'nosini shundan iboratki, qanchalik ko'p yuqori tabaqa vakillari jazolansa, qo'zg'olonning asl sabablari shunchalik pardalanishga erishiladi. Grodekov ko'rileyotgan masalaga shunchalik berilib ketdiki, bundan general-governator Verevkin ham norozi bo'ldi. Chunki, qo'zg'olonga aloqasi bo'limgan kishilarni hibsga olish va tergash, qizib turgan vaziyatni

keskinlashishiga olib kelishi ayon bo'lib qoldi. Shu bois Verevkin Grodekova yo'llagan xatida o'z fikrini quyidagicha bayon etgan: «Rus ma'muriyati tomonidan qo'yilgan xatolar va me'yoridan ortiq qattiqko'lllik o'lkada bizning mavqeimizni mustahkamlamaydi, aksincha, kelajakda ruslarning tub aholi bilan aloqalariga ziyon keltiradi. Men jazolashga qattiq adolat yuzasidan qarashning tarafdoriman. Faqat politsiya va prokuror aniqlagan 24 iyun voqeasiga bevosita daxldor va ayblari isbotlangan kishilargina jazo olishlari lozim». Shundan keyin Grodekov bilan Reynbat o'rtasidagi tortishuvga chek qo'yilib, ayblari isbotlanmagan ayrim yuqori tabaqa vakillari ozod etildi. Ammo rus ma'muriyati va prokuror Inog'omxoja, Sharifxoja va boshqa nufuzli kishilarga aybdor sifatida qattiq yopishib oldilar. Vaholanki, ular qo'zg'olonda bevosita qatnashmagan edilar. Ular vaboga qarshi choralar haqida yolg'on so'zlarni tarqatishda va xalqni qo'zg'olonga da'vat etishda ayblandilar. Inog'omxoja bu ishlarga zimdan bosh-qosh bo'lган va vaziyatdan foydalanib Muhammad Yoqubning o'rniiga o'tirishga harakat qilgan kishi sifatida qoralandi. Prokurorning aybnomasiga ko'ra, Inog'omxoja bunday g'ayriqonuniy xatti-harakatlari orqasida qo'zg'oloning ko'tarilishiga va buning orqasida shahar mahkamasiga va ma'muriyat vakillariga hujum qilinishiga sababchi bo'lган. Shu bois u butun voqeanning asosiy yo'lboshchisi sifatida gavdalantirildi. Uning Ahmadxoja Abdurashidxojinov va Yoqubxoja Yusupxojinov singari yaqin kishilari ham rus ma'muriyatiga qarshi tashviqot ishlarini olib borganlikda qoralandilar. Bu ikkalasi ham qo'zg'olon ko'tarilishiga hissa qo'shgan kishilar qatorida hibsga olingan edi.

Qo'zg'olon qatnashchilaridan 93 kishi aybdor sifatida tergov qilinib, ulardan 57 kishi qamoqda ushlandi.

1892 yilning 15dekabrida soat 11 da sud hukmi e'lon qilindi. Unga ko'ra Inog'omxoja 57 yoshda bo'lib, 1868 yildan buyon Sirdaryo viloyati harbiy-grajdan boshqarmasida xizmat qilgan. 1884 yilda shahar boshlig'inining kichik yordamchisi va 1887 yilda Eski shahar katta oqsoqolligiga tayinlangan. U yaxshi xizmatlari uchun Stanislav lentali kumush medal, ikkita oltin medal va birinchi darajali «faxriy to'n» bilan mukofotlangan. Sud hukmi bilan Inog'omxoja ko'rsatilgan barcha mukofotlardan mahrum bo'ldi,

shu bilan bir qatorda Irkutskiy guberniyasiga 4 yil o'sha yerdan siljimaslik sharti bilan surgun qilindi. Shuningdek, u 12 yil ichida Sibirning boshqa viloyatlarida va guberniyalarida turishi kerak edi. Umumlashtirganda surgun muddati 16 yilga borgan.

Shayxontohur dahasining 75 yoshli qozisi Sharifxoja Pochchaxojinov ham kumush va oltin medallardan mahrum etilib, 3 yil muddat bilan Astraxan guberniyasiga surgun qilindi.

Sud Ahmadxoja Abdurashidxojinov, Ziyamuhammad Isamuhamedovni, Azimboyvachcha Mirsalimboyevni, Iskandar Chuqurbekovni, qassob Azizni, Muhammadjon G'ayniddinovni, Musaqori qassobni, Toshmuhammad To'ychiyevni osib o'ldirishga hukm qildi. Bulardan tashqari 25 kishi turli muddatlar bilan qamoqqa hukm etildi.

Sud hukmi shahar va butun o'lkada vaziyatni yanada keskinlashtirib, norozilikni kuchaytirib, xavf tug'dirishi mumkin edi. Shu bois general-gubernator o'lim jazosini bir kishiga umrbod surgun va boshqalarni 15—20 yil muddat bilan katorgaga almashtirdi. Inog'omxojaning sog'ligi yomonligi tufayli surgun qilish qamoq bilan almashtirildi.

Sud hukmi bilan Muhammad Yoqubning 1400 so'mlik mol-mulki hamda sud xarajatlari — 216 so'm Inog'omxoja, Sharifxoja va boshqa bir guruh qattiq jazo langan kishilardan undiriladigan bo'ldi.

1893 yil 16 martda shaxsan imperatorning roziligi asosida qo'zg'olonning oldini ololmaganliklari uchun Grodekov va Putincev lavozimlaridan olindi. Putincev o'rniga Toshkent uyezdi boshlig'i polkovnik Tveritinov tayinlandi.

Umumlashtirganda, chor ma'muriyati garchand vaboga qarshi choralar ni ko'rgan bo'lsa-da, lekin amalda uni daf etishga yetarli e'tibor bermadi. Natijada Toshkent shahrida yuzlab kishilar uning qurboni bo'ldi. Chunonchi, 1892 yil iyun-avgust oylarining orasida o'zbeklardan — 1428 kishi kasallanib 1389 kishi o'lgan, ruslardan esa 407 kishi og'rib 213 kishi vafot etgan. Jami 1835 kasaldan 1602 odam o'lgan edi. 1892 yilda shaharda 58 ta eski mozorlardan 33 tasi yopilib, 25 tasi qoldirildi.

Vabo Farg'ona vodiysida ham yuzaga kelib undan 10 277 kishi vafot etgan. O'lka bo'yicha hisoblaganda o'lganlarning soni 11 879

kishiga boradi. Bu o'sha davr uchun katta fojia edi. Agar chor hukumati salmoqli mablag' ajratib choralarni bilimdonlik va izchillik bilan amalga oshirganda bunchalik katta yo'qotish bo'lmasligi turgan gap edi.

Qo'zg'oloning aks-sadosi butun o'lkaga, xususan Farg'ona vodiysiga ham taralib vaziyat keskinlashgan. Shu bois faqat Toshkentda emas, balki Farg'ona viloyatida ham «Harbiy holat» joriy etilib nazorat va ta'qib avjiga chiqqan. Garchand qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa-da, lekin u mazlum xalqning mustamlakachilik siyosati va milliy zulmga qarshi qaratilgan kurashi sifatida o'chmas iz qoldirdi. Shuning uchun ham chor ma'muriyatni mamlakatda va chet davlatlarda uning mohiyatini va yo'nalishini boshqacharoq, tarzda tushuntirishga harakat qildi. Masalan, hukumatning rasmiy ro'znomasi bo'l mish «Turkiston vedomosti»da shunday yozilgan edi: «Vatandoshlarimizga va xorijiy mamlakatlardagi do'stlarimizga shuni ma'lum qilishimiz mumkinki, qo'zg'olon ko'targanliklari uchun jazolanganlar tom ma'nodagi siyosiy va davlat jinoyatchilari sifatida emas, balki ma'muriyatning ayrim hollarda qo'llagan tartiblariga qarshi bosh ko'targan kishilardir. Bu olomon tomonidan tasodifan sodir qilingan jinoyat siyosiy tusga ega bo'lmay, tub aholining partiyaviy kurashining mahsulidir. Uning yuzaga kelishi qismangina vaboga qarshi qaratilgan choralarga bog'liqdir. Shuni takror aytamizki, qo'zg'olonda O'rta Osiyoning tashqarisida o'ylangandek hech qanday siyosiy yo'nalish yo'q».

Xo'sh, shunday ekan, rus hukumati nima uchun qo'zg'olon-chilarga qarshi o'q uzdi yoki bo'lmasa ko'p kishilarni o'limga va uzoq muddatli qamoq jazolariga hukm qildi?

Javob shuki, qo'zg'olon xuddi siyosiy yo'nalishga ega bo'lgan. Shu bois u o'lkadagi keyingi ozodlik harakatlarining yuzaga kelishiga ham ta'sir ko'rsatgan.

1898 yilgi qo'zg'olon

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olonor boshqa joylarda ham bo'lib turdi. Bu qo'zg'olonlarda aholining hamma qatlamlari ishtirok etdi. Masalan, Farg'ona viloyatidagi qo'zg'olonda ruhoniy va boshqa yuqori tabaqalarning

vakillari ham qatnashdi yoki xayrixohlik bildirdi. Bu tabiiy hol edi, albatta. Chunki o'lkada milliy davlatning tugatilishi, boyliklarning begonalar cho'ntagiga tushishi hamda g'ayridinlarning zo'ravonligi mahalliy tabaqa doiralarining noroziligini keltirib chiqarmasdan qo'ymas edi. Bundan chor hukumatiga zo'r berib xizmat qilayotgan bir guruh kishilar mustasnodir.

Xullas, chor hukumati davrida oliv va o'rtalik hokimiyat lavozimlaridan va boyliklardan mahrum etilgan hamda o'z vataniga sodiq kishilar, chet el hukmronligiga qarshi kurashning tarafdarlari sifatida gavdalandi.

Viloyat harbiy gubernatori Chaykovskiy vodiydagagi vaziyatni shunday ta'riflagan: «Bo'ysundirilganga qadar Farg'ona mustaqil davlat hisoblanib o'zining tarixiga, hukmron sinfiga va boshqaruvtizimiga ega edi. Bularning yo'qolganiga hali chorak asr bo'lgani va yangi sharoitga moslanishiga bir kishi umrichalik vaqt o'tganicha yo'q. Ilgari hukmronlik qilgan nufuzli tabaqalarning oddiy bir kishilarga aylanish jarayoni juda qiyin va alamli bormoqda. Shuning uchun tasodifiy hodisalarning yuzaga kelishini nazarda tutgan holda tub aholini qattiq nazorat ostida ushlab turish hali uzoq davom etadi.

Ayniqsa, musulmon ruhoniylarini va musulmon o'quv yurtlarining vakillarini alohida nazorat ostida ushlab turish zarur. Chunki ular o'z holicha tashlab qo'yilganligi uchun doimiy nazorat qilish imkonini bermaydi. Yangi tartib — qonunlar orqasida ularning faqat jamiyatdagi mavqeiga emas, balki vaqf yerlaridan olinadigan daromadlarining qisqartirilishi tufayli iqtisodiy manfaatlarga putur yetkazildi».

Yuqori tabaqa vakillariga siyosiy va iqtisodiy jihatdan zarba berilganligi, shu bois ularni hamisha nazorat ostida ushslash zarurligi uqtirib o'tilgan. «Umuman, chor ma'muriyati, ayniqsa, din peshvolarini eng xavfli dushman sifatida hisoblab, ularni imkon boricha «burchakka siqib» qo'yishga harakat qildi. Shuningdek, u qozilik va oqsoqollik mansablarida xizmat qilayotgan kishilarni ham «gah desa qo'lga qo'nadigan» tarzda ushslash uchun arzimagan bahonalar bilan jazolab turdi. Masalan, vabo kasali munosabati bilan 25 qozi va muftiy eski qabristonlarni yopmaslikni so'rab, ariza yozganlarida, ulardan bir nechtasi lavozimlaridan chetlatildi.

Shundan keyin bir guruh nufuzli kishilar norozi bo'lib xat yozdilar. «Xonlar vaqtida, — deyiladi unda, — qozilar shariat qonunlarini bilganliklari uchun mukofotlanganlar. Ammo jamoa qozilarning bekordan-bekorga lavozimlaridan bo'shatilganligini bilmaydi. Chunki ular hech qachon shariatga zid ishlarni qilmaganlar». Harbiy gubernator A.A.Abramov qo'zg'olon ko'tarilishidan qo'rqib, agar tartibsizliklar ro'y bersa, u vaqtida qozilar Sibirga surgun qilinishini ochiqdan-ochiq ma'lum qildi. Ayni paytda Qo'qon uyezdining boshlig'i, agar din peshvolari biror tartibsizlikda qatnashsalar madrasalar yo'q qilinishini va vaqf yerlari tamoman davlat ixtiyoriga o'tkazilishini e'lon qildi.

Qozilarning shikoyati bo'yicha imzo chekkanlardan 10 dan ortiq kishi hibsga olindi. Bu birgina shikoyatga qarshi qaratilgan chora Qo'qon xalqi noroziligiga sabab bo'lib, olomon to'plana boshladi. Natijada xavflı vaziyat yuzaga kelib, qo'zg'olon chiqishi ayon bo'lib qoldi. Bundan cho'chib ketgan gubernator qozilarni va 8 ellikkoshini qamoqdan ozod qilishga majbur bo'ldi. Qozi mulla Ashur shikoyatning tashabbuschisi sifatida Sibirga surgun qilinmoqchi edi, lekin vaziyatning keskinlashishi orqasida bu hukm bekor qilindi. Chor ma'muriyatining mahalliy amaldorlarga nisbatan zo'ravonligi tufayli ularning orasidan xalq g'alayonlariga xayrixohlik bildiruvchilar chiqqan edi. Chunonchi, ularning ayrim vakillari 80- yillarda mustaqillikni tiklash uchun kurashayotgan guruhlarning qatnashchilariga mehribonlik qilganlar. Masalan, 1885 yilda Navqot volostining boshlig'i — Sodiq Qulmatov va Bozorqc'rg'on volostining katta oqsoqoli mulla Kalon Otanayev «qo'zg'olon qatnashchilarini berkitganliklari» uchun o'z vazifalaridan olingan. Mahalliy ma'muriyat vakillarining qo'zg'olonchilarga xayrixohligini viloyat harbiy gubernatori ham ta'kidlagan: «Bizning uni (qo'zg'olon boshlig'i Darvishxonni) qo'lga tushurolmayotganimizga aholining va mahalliy ma'muriyat vakillarining yordam qilmayotganlari sabab bo'lmoqda. Mahalliy amaldorlar esa o'zlarining harakat qilmayotganliklarini niqoblash uchun turli asossiz so'zlarni tarqatish bilan shug'ullanmoqdalar».

Ayniqsa, xonlik vaqtida mansablarga va imtiyozlarga ega bo'lgan, lekin «ruslar kelgandan keyin ulardan mahrum etilgan» kishilar chor hukumatiga qarshi turganlar.

O'lka general-gubernatori A.Vrevskiy so'ziga qaraganda, ular osoyishtalik kunlarda jim yurganlar, lekin yangi soliqlar solinayotganda yoki hukumat qandaydir choralarni ko'rmoqchi bo'lgan kezlarda aholini qo'zg'olon ko'tarishga da'vat qilganlar. Shunday qilib, mustamlakachilik siyosati, bir tomondan, xalqning hayotini og'irlashishiga, ikkinchidan, mahalliy yuqori tabaqa vakillarining manfaatlariga zarba berishga olib kelgan. Bu holat xalq bilan yuqori tabaqa vakillarining ilg'or qismi umum dushman-chorizmga qarshi birlashishiga zamin hozirladi. Bu yerda mustaqillik ozodlik uchun kurash-tuyg'ulari muhim o'rin egalladi hamda xalqning barcha toifalarini bir yoqadan bosh chiqarishini ta'minladi.

Shuni aytib o'tish lozimki, jamiyat ma'naviy hayotining asosiy yo'naltiruvchi kuchi bo'lmish islom dinining kamshitilishi va uning moddiy asoslarining chegaralab qo'yilishi din peshvolarini ham bosh ko'tarishiga olib keldi. Asrlar mobaynida hukm surib kelgan islom dinining g'ayri din «asiriga» aylanib qolishi qo'zg'oloning eng muhim omillaridan biri bo'ldi. Ayniqsa, nomoz vaqtida rus imperatori nomiga xutbaning majburiy suratda o'qitilishi achinarli hol edi. Shu bois, «g'azot» shiorining yuzaga kelishi tabiiy bo'ldi. Oqibatda vatan va din ozodligi uchun kurash bir biri bilan uzviy bog'lanib umum millat harakati sifatida gavdalandi. Qo'zg'olon Andijon uyezdiga qarashli Mingtepa, Tojik va Koshg'ar singari qishloqlardan boshlandi. Bu joylarda Muhammadali Xalfa Sobir o'g'li (1856—1898) eng obro'li din peshvosi hisoblangan. Uning otasi paxtani chigitdan ajratadigan chig'iriq va yiq, ya'ni duk, beshik yasaydigan hunar egasi edi. Demak, Muhammadali hunarmand oilasida dunyoga kelgan va voyaga yetgan. U Dukchi eshon taxallusini olgan. Eshon deb atalishining ham sababi bor. O' o'zining iste'dodi va harakatchanligi tufayli Sultonxon To'ra cshonga shogird tushib yuksak diniy unvonga sazovor bo'lgan. Dukchi eshon vaqt o'tishi bilan atrofiga muridlarini va muxlislarini ko'p to'plab borgan. U mol-mulk to'plashga berilmay nazir va sovg'aga keltirilgan barcha boyliklarni qashshoqlarga bo'lib bergan. Chunonchi, har kuni u tomonidan belgi qo'yilgan joyda yuzlab kishilarga tekin ovqat tayyorlangan.

Dukchi eshon chor hukumati tomonidan olib borilayotgan

mustamlakachilik siyosatining, milliy zulm va dingga tazyiqning jonli guvohi bo'lgan. U xalqning dardini va noroziligini yaxshi anglagan vataniga sodiq kishi edi. Umuman aytganda, Dukchi eshon og'ir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit orqasida bir parcha yerlaridan mahrum etilgan dehqonlar va shahar kambag'allari uchun umid va ishonch ramziga aylangan edi. Buni yaxshi anglagan Dukchi eshon xalqning ozodlik kurashiga bosh-qosh bo'lishni o'z zimmasiga oldi. U ona yurt mustaqilligi va ozodligini tiklashni muqaddas burch deb bildi. U qo'zg'olon ko'tarish uchun ayrim tayyorgarlik ishlarini amalga oshirib bordi. Birinchi navbatda, «chaqiriq qog'ozlari» bitilib ishonchli kimsalarga tarqatildi. Ularda Farg'ona viloyatida istiqomat qilayotgan barcha tub aholi vakillari, xususan, o'zbeklar, tojiklar va qirg'izlarning Mingtepaga kelishlari da'vat qilindi. Bundan tashqari xalqqa qarata murojaatnoma qabul qilinib, unda musulmonlarni kofirlardan xalos etish Dukchi eshon zimmasiga tushganligi ma'lum qilindi va barcha musulmonlar yordamga chaqirildi. Murojaatnomaga quyidagi nufuzli kishilar imzo chekkan:

1. Ahmad Noyib Mulla Mirza o'g'li.
2. Hayitboy To'qsabo.
3. Orziqulboy Ponsad.
4. Umarbek Dodxoh
5. Botir Mingboshi
6. Sottiboy Mirza
7. Botir Mingboshi Normat o'g'li
8. Muhammad Ibrohim To'qsabo.
9. Mulla G'ayibnazar Ortiq o'g'li
10. Alibek dodxoh va boshqalar.

Ular orasida bir qozi va uning yordamchisi, ikkita volost boshlig'i, 7 ta qishloq oqsoqollari va Qulin volostining uchta nufuzli kishilari bor edi. Ular jami 14 kishini tashkil etgan. Chaqiriq qog'ozlaridan tashqari ayrim rejalar ham tuzilgan. Chunonchi, qo'zg'olon g'alaba qilgan taqdirda Dukchi eshonning 14 yoshlik jiyani Abdulaziz xon sifatida taxtga o'tqazilishi lozim edi.

Oldingi sahifalarda ko'rsatilganidek, qo'zg'olon og'ir sharoit mahsuli sifatida yuzaga kelgan va ayni paytda unga asrlar osha davom etib kelayotgan axloq-odob masalalarining izdan chiqishi ham

turtki bo‘lgan. Bu xususda I.I.Korolkovning hisobotida keltirilgan Dukchi eshonning tergovda aytgan so‘zlari diqqatga sazovordir. «Madali eshonning o‘zining so‘zicha,— deyiladi hisobotda, — uni xalqning axloq-odobi buzilayotganligi hamisha tinchsizlantirib kelgan. Garchi, bunday holat Qo‘qon xonligining keyingi yillaridan boshlangan bo‘lsada, ruslar o‘lkani urushib olganidan keyin ahvol ancha yomonlashdi. Odob-axloqning buzilishi, fohishalikning, ichkilikbozlikning, qimorbozlikning kuchayishi va oilaning zaiflashishida o‘z ifodasini topdi. Umuman, odamlar orasida shariat talablariga zid ish qilish zo‘raymoqda. Garchand rus ma’muriyati xalq bilan xushmuomalalik qilayotgan bo‘lsada, lekin zakotni va vaqf tashkilotlarini yo‘q qildi va Makkaga hajga borishni ta’qiqladi. Ayni paytda, u xalq ta’lim-tarbiyasiga e’tibor bermadi.» Qo‘z-g‘olonchilar Do‘kchi eshon boshchiligidagi kofirlar hukmronligini ag‘darish ma’nosini anglatuvchi «gazot» shiori bilan harakat qilgan edilar. Bu haqda harbiy prokuror Dolinskiyning Dukchi eshon xususidagi qoralovchi fikri ham dalolat beradi: «Dukchi eshon o‘lkada rus hukmronligini ag‘darish maqsadida qishloq va shahar aholisini qurol bilan bosh ko‘tarishga otlantirdi».

A. Egamnazarovning Muso Turkistoniyning asaridan olgan ma’lumotiga ko‘ra, 1898 yil 10 mayda kechqurun bir ming kishi qatnashuvida kengash o‘tkazilib, Dukchi eshon xalqqa qarata murojaat qilgan: «Ey, muhtaram musulmonlar! Ey, birodarlar! Hammangizga ma’lumki, yurtimiz musulmon yurti, el musulmon, xalq musulmon, shariatning hukmi joriy, amri nosiz edi. Hukumatni Allah taolo o‘zi biladur, kofirlarni musallat qildi, yurtimizga o‘rus keldi. Xudoyorxon o‘rniga Kaufman, Umarxon taxtiga Chernyyayev o‘ltirdi. Farg‘ona xonligi yerida Moskov xonligi — oq podsho hukmron bo‘ldi. O‘rus vatanimizni istilo etdi. So‘ngra tilimizni istilo qildi. Sekin-asta dinimizni istilo qilmoqqa boshladи. Bilasizlarki, musulmonlarning axloqi buzildi. O‘rusning kelgoniga o‘ttiz yil to‘lmay, musulmonlar riboga aylandi, halol-haromni farq qilmas bo‘ldi. Qozilarimiz bo‘yniga but taqadigan bo‘ldi. Xulosa (shulki) shariatimiz xor, musulmonchilik g‘arib bo‘ldi. Hurriyatimiz g‘oyib bo‘ldi, istiqlolimiz mahv bo‘ldi, o‘zimiz o‘tmas, so‘zimiz kesmas bo‘ldik.

Ey voh...

Oq podshoning nomidan yangi farmon keldi, Nikolayni, ya'ni bir o'rusning nomini juma namoz xutbasida xutbaga qo'shib o'qilsin deb va yana ko'chirma siyosati ila vatanimizga mujiklarni yerlashtirdi, har tarafni to'ng'izzor qildi. Quboni (Quvani) Fedchenko, Marg'ilonni — Gurchakof (Gorchakov), Simni — Iskobilif (Skoblev), Bag'dodni — Serova, Konibodomni — Melnikov deb, hamma shaharlarimizga biror urus generallarining ismini taqdi. Har shaharda, har qishloqa butxonalar qo'ng'irog'inining jarang-jurung ovozi ko'paydi. Sanka degan bir riboxona qurildi, dinimizda yo'q sudxo'rlik, haromlik rivoj topdi. Hammaning xalqumi bulg'ondi, har shaharda yangi shahar degan fisqxona qurildi, fisqning hamma navi hozirlandi. Musulmonlarni yo'lidan ozdirdi. Aksar musulmonlar yangi shahardagi ichkilik do'konlariga, otxonalariga, qimorxonalariga mushtariy bo'ldi, fohishaxonalariga o'rgandi, musulmonlarning axloqi buzildi».

Mazkur, vatanga sodiqlik tuyg'ulari bilan sug'orilgan satrlar shu darajada asosli va yorqin ravishda ifoda etilganki, izohlashga hojat yo'q. Ular qo'zg'olondan asosiy maqsad vatan va din ozodligini ta'minlashdan iborat bo'lganligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ularda barchaga tushunarli oddiy so'zlar bilan Turkiston o'lkasining boshiga tushgan milliy zulm,adolatsizlik va umuman, misli ko'rilmagan fojialar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, o'lkada ruslashtirish siyosatiga qarshi norozilik bildirilgan.

Ey musulmonlar, — deb so'zini davom ettirgan Dukchi eshon, — bularga sabab o'zimiz bo'ldik. Bu holimizga Alloh taolo ham rozi emas. Rasul ham rozi emas. Bu asorat va mahkumiyatga hech kim rozi emas, ins ham, jins ham rozi amas. Ey birodarlar, tek turaversak bu kofir yana battar qilur! Voy, bizning holimizga!

Tarixda o'tgan muazzam bir sultanat qurg'on qahramon pahlavonlar avlodimiz — bu zillatga hech qanday ziruh chidamas. Qani bizdag'i shijoat, qani ajdodlarimizdag'i basolat, sizlarga nima bo'ldi? Muhammad dinida 400 olimimiz bordir, hammasi musulmon, hammasi turk, hammasining ismi Muhammad, Hammasi Xanafiy mazhabdur. Bir ismda, bir mazhabda, bir qabristonda bu qadar olimlari Turkistonni dini taqdimda, din

odamlarini yetishtirishda ne darajada xizmatlari sabkat etganligi o'quvchilar diqqatiga arz ulindur. Jahan tarixida, yer yuzida, ko'k yuzida bu misli ko'rilmagondur. Turkistonliklar har qancha iftixor etsa arziydur, bajodur. Ey, birodarlar, bizlar shundoq ajdodning nabiralarimiz».

Dukchi eshon o'zbeklar jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk Turkiston farzandlari ekanliklarini eslatib o'tish bilan bir qatorda ularning chor hukumatining hukmronligi o'matilganidan so'ng har jihatdan orqaga ketganliklarini va jamiyatda buzilish sodir bo'layotganini uqdirib o'tgan. U o'z nutqini davom ettirib yana dediki: «Ey, musulmonlar, ey, xudoning bandalari, ey, payg'ambar ummati! Chin mo'min bo'lsangizlar, sizlarga jihod lozimdir, jihod e'tiqod, Allah yo'lida jihod qilamiz, o'lsak shahid, o'ldirsak g'oziy bo'lamiz, jihod qilmaguncha yelkamizga mingan bu ro'dapo urusdan qutilish yo'q.

— Ey, mo'minlar, ko'zingizni oching! G'aflatdan bedor bo'ling! Kofirlardan huquqimizni olaylik.

— Ey birodarlar, hurriyatimizni olaylik, o'z vatanimiz, o'z yurtimizda o'zimiz hukumat quraylik. Buning uchun bizdan g'ayrat istaydur, himmat istoydur, jihod istaydur, fisabilloh jihod vaqt keldi».

Demak, Dukchi eshon haq-huquqlarni, hurriyatni, ya'ni ozodlik va mustaqillikni milliy davlatni tiklash uchun kurashga da'vatni targ'ib etdi. Mazkur so'zlar hazrati Dukchi eshon tomonidan aytiganda, kengashdagi xaloyiq vatan va din uchun jonlarini ham, mollarini ham fido etajakliklarini bir og'izdan izhor etdilar.

Dukchi eshonning kishi qalbini to'lqinlantirib ona yurt ozodligi yo'lida kurashga otlantiruvchi jo'shqin va jangovar so'zлari jamoa ahlini oyoqqa turg'izdi. Chunki uning so'zлari ezilib va xo'rланib yotgan xalqining yuragidagi dardini, fikri-zikrini to'la ifoda etardi.

Dukchi eshon va uning safdoshlari qilinadigan harakatlar xususida ayrim rejalarini belgilagan edilar.

Bunga ko'ra, bir vaqtida Marg'ilonda Inoyatxon To'ra va O'shda Umarbek dodxoh boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarilib harbiy qismlarga hujum qilinishi lozim edi. Dukchi eshonning o'zi esa Andijon shahridagi jangga boshchilik qiladigan bo'ldi. Nihoyat, 1898 yil 17 mayda kech soat 8 da Mingtepadagi Tojik qishlog'ida

Dukchi eshon rahbarligida qo‘zg‘olon ko‘tarilib, olomon Andijon shahri tomon yo‘l oldi. U oq ot mingan holda Qutchi, Barg‘on, Qoraqo‘rg‘on, Oqchi, Kulla, Chekovul, Xoqand, Rabot, Darxon, Sariquy, Naydin, Ko‘kcha va Dunga singari qishloqlarni bosib o‘tdi. Bu yerlardagi odamlar qo‘zg‘olonchilarga qo‘shildi. Qo‘zg‘olonchilar orasida Susamir va Chorin volostlaridan kelgan qirg‘izlar ham bor edi.

Ular Andijon shahriga yaqinlashganlarida Marg‘ilondan Inoyatxon To‘ra boshchiligidagi bir guruh kishilar kelib qo‘shildilar.

Qo‘zg‘olonchilar yo‘lda ayrim zolim mahalliy amaldorlarni jazolashga harakat qildilar. Farg‘ona viloyati harbiy prokurorining ko‘rsatishicha, qo‘zg‘olonchilar Kulla volostining qozisi Mulla Yo‘ldoshni o‘ldirish uchun uyiga bostirib kirdilar, lekin u qochishga ulgurgan edi. Shundan keyin olomon qozining uyini talon-taroj qildilar. Dukchi eshon 1000 piyoda va 1000 otliq olomon bilan shahar harbiy garnizoniga hujum qildi. Bu yerdagi jangni Andijon harbiy garnizoni boshlig‘i Mixaylov quyidagi tarzda ta’riflaydi: Do‘ng qishlog‘i tomonidan mahalliy aholining bir yarim-ikki mingga yaqin olomoni to‘la sokinlik vaziyatda lagerga kirib keldi, oldinda otliqlar, ular ortidan piyodalar harakat qildi. Ular 20—Turkiston asosiy muntazam batalyoni 4-rotasining 42 vzwodi jangchilari egallagan barak yoniga kelib uni qamal qilishdi. Ichkariga har tomonidan bostirib kirib uxbab yotgan oddiy soldatlarni «ur» deb kaltaklab, so‘ya boshladilar. Mahalliy kishilarni birinchi bo‘lib barakning o‘ng qanotida turgan navbatchi, rotaning oddiy askari Tyutin ko‘rdi. U benihoyat qattiq ovoz bilan baqirdi va o‘scha zahoti o‘ldirildi. Narigi qanotdagi navbatchi oddiy askar Maslennikov, shuningdek, 4-rota navbatchisi Jernov va ikki rota bo‘yicha navbatchi, bu voqeа sodir bo‘lishidan avval 3-vzvodda lampa yorug‘ida kitob o‘qib o‘tirgan unter-ofitser Stepanov baqiriqni eshitgach, bor ovozlari bilan: «Turinglar! Qurollaninglar!» deyishdi. Mahalliy kishilar esa har tomonidan sakrab tushib, bir zumda butun barakni egallahdi. 4-rota bo‘yicha navbatchi o‘scha zahoti o‘ldirildi, ikki rota bo‘yicha navbatchi miyasidan va yelkasidan bir necha kaltak yeb, orqaga, 5-rotaga qochdi. O‘rnidan turib qo‘liga qurol olishga ulgurgan oddiy askarlar ham 5-rota tomonga o‘tishga

harakat qilishdi. Miltiq nayzasi va qo‘ndog‘i bilan o‘ziga yo‘l ochgan unter-ofitser Stepanov 5-rota binosiga kirib baqirdi: «Petka, odamlarni uyg‘ot, biznikilarni so‘yishyapti!». Shundan keyin birin ketin uyg‘ongan soldatlar qurollanib qo‘zg‘olonchilarga qarshi jang qildilar. Qilich, xanjar, so‘yil, bolta bilan qurollangan qo‘zg‘olonchilar himoyaga o‘ta boshladilar. Ularning safida o‘ljaga olingan to‘pponcha va miltiq bilan qurollangan kishilar bo‘lib, dushmanga qarish o‘q uzib turdilar. «Barak oldidagi maydonga chiqishganda, — deydi Mixaylov, — harbiylar barakdan o‘n besh qadam narida turgan mullani ko‘rishdi. U qo‘lida Qur‘on ushlab sham yorug‘ida ko‘zini ko‘kko tikkanicha nimalarnidir o‘qirdi. Mullaning yonida qizil va oq rangdagi nishon ushlagan o‘nga yaqin kishilar turar, ularning hammasi qo‘lda to‘pponcha bilan askarlarga qarshi o‘q uzishardi. Askarlarimiz bu kishilarni barchasini o‘sha zahotiyoy otib o‘ldirishdi. Mahalliy kishilar o‘lgan va yarador bo‘lgan sheriklarini olib, juda tez chekinishdi. Askarlarimiz patron yetishmayotganligi sababli ularni ta’qib qilolmadilar».

Shunga o‘xshash ma’lumotni N.Veselovskiy ham bayon etadi: «Bir mahal o‘zbeklar chekina boshlashdi. Lekin bayroq atrofida bir to‘dasi qimirlamay turardi. Mulla ko‘k bayroq ostida baland ovozda Qur‘on o‘qir, chekinishni istamas edi. Uning yonida baland bo‘yli yigit bayroq ko‘tarib turardi. Shunda askar otgan o‘q mullani qulatdi. Bayroq dor uning o‘ligini qo‘ltiqlab oldi, ammo u ham o‘ldirildi. Askarlar o‘zbeklarni nayza va qo‘ndoqlar bilan urishdi. Ular esa qurollari va bizning qurollar bilan o‘zlarini himoya qilishdi, ammo muvaffaqiyat qozonishholmadi».

Shunday shiddatli janglardan so‘ng soldatlar g‘olib kelib, qo‘zg‘olonchilardan ko‘p kishi o‘ldirildi va yarador qilindi. Bunday bo‘lishi tabiiy edi, albatta. Negaki garnizondag‘i yaxshi qurollangan 111 kishidan iborat muntazam qo‘shinga asosan bolta, xanjar va boshqa oddiy narsalar bilan qurollangan oddiy olomonning bas kelishi juda qiyin edi. Shunga qaramay qo‘zg‘olonchilar qahramonona jang qilib 22 soldatni o‘ldirdilar, 24 kishini jarohatladilar. N.Vesyalovskiyning aytishicha, jang maydonida qo‘zg‘olonchilardan 15 kishining o‘ligi qolgan. Ko‘p o‘liklar va yaradorlarni olib ketganlar va yashirganlar.

1898 yil 19 mayda Farg'ona viloyat harbiy gubernatori qo'shin bilan Andijonga yetib keldi. Shundan keyin Andijon uyezdi bo'ylab jazo otradlari kezib qo'zg'olonga dahldor kishilar kaltaklandi va hibsga olindi. Shaxsan uning o'zi Andijon qamoqxonasida yotgan qo'zg'olon qatnashchilarini tepkilab urgan, oqibatda ikki kishi chiday olmay o'lgan va bir necha kishi qattiq jarohatlangan. Qo'zg'oloning ta'sir doirasi butun o'lkani, ayniqsa Farg'ona vodiysi qoplاب oldi. Qo'zg'olonda Mingtepa, Qulin, Asaka, Qoratepachi, Quva, Shahrixon, Navqot, Oqburun, Buloqboshi, Arrovan, Segazin, Ichkilin, Yozyovon, Yakkatut, Kogort, Susamir, Kengkul-Qoragir va shuningdek, Andijon, Namangan va O'sh uyezdlariga qarashli boshqa volostlarning aholisi faol qatnashganlar. Harbiy gubernatorning ma'lumotiga ko'ra, qo'zg'olon qatnashchilaridan 1000 ga yaqin kishi Andijon va Yettisuv atrofidagi tog'larga yashiringanlar. Ular andijonliklar tomonidan oziq-ovqatlar bilan ta'minlanib turilgan.

Qo'zg'olon qatnashchilaridan jami 777 kishi hibsga olinib, tergov qilindi. Ko'p kishilar kaltaklashlarga va qynoqlarga chidaolmay qamoqxonalarda o'ldilar. Tergovdan keyin 415 kishi sud qilindi. Ulardan 32 kishi oqlandi va 380 kishi o'lim jazosiga hukm qilindi. Bir kishi umrbod qamoq jazosiga va 1 kishi tarbiyaviy lagerga tortildi. Imperatorning «marhamati» bilan o'limga mahkum etilgan 380 kishidan 18 (boshqa bir ma'lumotda esa 21) kishi osib o'ldirildi. Qolgan 362 kishi turli jazolar bilan almashtirildi: 3 kishi umrbod katorgaga, 147 kishi 20 yilga, 41 kishi — 15 yilga, 1 kishi — 13 yilga, 1 kishi — 8 yilga, 47 kishi — 7 yilga, 4 kishi — 4 yilga, 15 kishi Sibirga surgun qilishga va 3 ta yosh bola tarbiyaviy qamoqqa hukm qilindilar.

Ayni paytda sud Qutchi, Tojik va Koshg'ar qishloqlaridan tub aholini ko'chirib ularning xonadonlarini yer bilan yakson qilib, o'rniga rus posyolkalarini bunyod etish haqida hukm chiqardi. Bundan tashqari, chor ma'muriyati Mingtepa va Andijon shahri oralig'idagi qo'zg'olonchilarga qo'shilgan 29 qishloqni yo'q qilib tashlash masalasini ko'targanlar. Oqibatda, Xokand volostidagi 5 qishloq buzib tashlanib, 700 xonodon yo'q qilingan.

1898 yil 12 iyun kuni misli ko'rilmagan vahshiylik va fofja sodir

bo'ldi. Andijon shahrida majburiy suratda aholi, jumladan, bolalar to'plantirilib, ularning huzurida Dukchi eshon, G'oyibnazar Ortiqxoja o'g'li, Subxonqul Arabboyev, Rustambek Sotiboldibek, Mirza Hamdam Usmonboyev va Bo'taboy Gonboyev singari qo'zg'olonning yirik vakillari dorga osilib shu yerga ko'mildi va qabrlari tekislab yuborildi. Bu mudhish voqeaneaning guvohi bo'lib turgan bolalar orasida qo'rquvdan hushidan ketganlari va og'ir dardga chalinganlari ham bo'ldi. Shuningdek xalq ko'z o'ngida qo'zg'olonchilarining ko'k va qizil bayroqlari yondirildi. Chor hukumati qo'zg'olonchilarini qattiq jazolash bilan bir qatorda Tojik, Koshg'ar va Qutchi qishloqlaridagi barcha uylarni buzib tashlattirdi, 680 oila «Qaqir» degan dashtga haydaldi. Ularning hammasini qirib tashlash yoki o'lordan surgun qilish haqida takliflar qilingan edi. Ammo imperatorning «marhamati» bilan ularga o'sha dashtda yashashga ruxsat berildi. Shuning uchun ular o'rashgan joylarni «Marhamat» deyish odat tusiga kirdi.

Tojik, Koshg'ar va Qutchi qishloqlaridagi unumdon yerlarga esa Rossiyadan ko'chirib keltirilgan 200 rus oilasi joylashdi. Shu ravishda qo'zg'olon qatnashchilari jonidan ham mol-mulkidan ham mahrum etildi. «Qaqir»ga zo'r lab ko'chirilgan yuzlab kishilar, — deydi guvohlardan biri, — 2-3 yil mobaynida juda ko'p azob-uqubatlarni va qiyinchiliklarni boshidan kechirdilar. Ular g'oyatda mashaqqatli mehnat evaziga sun'iy sug'orish tarmoqlarini, uyjoylarni va bog'larni bunyod etdilar. Endilikda Qaqir cho'lini taniy olmaysiz, negaki u bog'u bo'stonga aylangan. Lekin bu yerda ahvol tushqaridangina yaxshiga o'xshaydi. Aslida yaxshi uylar va mo'lko'lchilik yo'q, keyin ham bo'lmaydi. Ayniqsa, keksa kishilarga rahming keladi. Chunki ular qadimdan ota-bobolari dafn qilingan va o'zları tug'ilib o'sgan joylarni eslab yuraklarida saqlaydilar. Men ularning yuzida g'am-g'ussalarni ko'rdim, qiyofalarida baxtsizlik va xo'rlik holati sezilib turardi. Menning savollarimga ular xo'rsiniib va unchalik ro'yxush bermay javob berdilar. Ularning hammasi 732 kishi hisoblanib, har oilaga bir desyatinden ortiq yer niqtinchalik foydalanish uchun berilgan edi... Ular ko'p vaqtidan buyon azob-uqubatlarni tortayotganliklari va nahotki bu azob-uqubatlar nihoyasizligi haqida nolib gapirdidalar. Men keksalar

ta'zim qilganlarida va boshlaridagi oq sochlarini silayotganlarida qo'llari titrayotganini ko'rdim».

Rus hukumati tub aholiga nisbatan vahshiylarcha munosabatda bo'lgan. Ayni paytda chor hukumati qo'zg'olon orqasida halok bo'lgan soldatlar oilasiga va boshqa ziyon ko'rgan kishilarga moliyaviy yordam berishni tashkil qildi. Natijada o'z davri uchun katta mablag' hisoblangan 16.095 so'm xayriya sifatida to'plandi. Buxoro xoni esa 1600 so'm yuborgan edi. Bu mablag'lar faqat ruslarga tarqatildi, shuningdek, yordam puli qo'zg'olon qatnashchilarining mol-mulkini musodara qilish hisobiga ham to'ldirilib borildi. Garchand qo'zg'olon tor-mor etilgan bo'lsada, lekin u o'zbek, qirg'iz, tojik va boshqa tub aholi vakillarining mustaqillik va ozodlik uchun olib borgan qahramonona kurashlarining eng yorqin namunasi sifatida tarix sahifalariga oltin harflar bilan bitildi. Uning eng muhim ahamiyatlaridan biri qo'zg'olonchilar to'g'ridan-to'g'ri mustamlakachilik siyosatining va milliy zulmning asosiy tayanchi-harbiy qismga hujum qildilar. Bu qo'zg'olonning yuqori pog'onaga ko'tarilganidan dalolat berardi.

1916 yilgi qo'zg'aloni

Birinchi jahon urushi har jihatdan yo'qsillik azob-uqubatlarini tortayotgan xalqni yanada og'ir ahvolga tushirib qo'ydi. Butun o'lkada mustamlakachilik siyosati va milliy zulm avjiga minib qashshoqlik va qahatchilik hukm surdi. Ayniqsa, paxtachilik makoniga aylantirilgan Farg'ona vodiysida hayot o'ta yomonlashdi. Bu ayanchli holni shoir Zavqiy shunday ta'riflaydi:

Qahatchilik bo'ldi, bu Farg'onamizda,
Topilmas parcha non vayronamizda.
O'lim xavfi o'rab qishloqlarni,
Ne qishloqu jibol ovloqlarni,
Qirildi qancha odamlar vabodan,
Nishona qolmadi mehru vafodan.
Xalq ommasining o'sha davrdagi og'ir hayoti shoir Tavalloning asarlarida ham o'z ifodasini topdi:

Kambag‘al bechoralar holin so‘rar bir kishi yo‘q,
 Tortadur qimmatchiliqda kunda zahmatlar darig‘.
 Boylar oldi g‘alla arzon chog‘da ombor to‘ldirib,
 Kambag‘allardan chiqar chang, qilsa hasratlar darig‘.
 O‘ldi bu qimmatchilikdan kambag‘allar holi tang,
 Iltifot etmas g‘animlar, yo‘qmu tiynotlar darig‘.
 O‘ylangiz insof etib, yoshu qarilar emdi oz,
 Yozaman haqqonasin, yo‘q manda tuhmatlar darig‘,
 Kel, Tavallo, sen haqiqat so‘zin yoz, yosurmeyin,
 Zoye o‘lmas millatga har qancha xizmatlar darig‘,

Shunday misli ko‘rilmagan og‘ir sharoitda 1916 yil 25 iyunda rus imperatori Nikolay II ning imzosi bilan imperiyadagi rus bo‘lman erkaklarni qo‘sishinlar harakat qilayotgan rayonlarda mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo‘llarini qurish uchun olib boriladigan ishlarga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo‘lgan boshqa har qanday ishlarga jalb qilish haqidagi farmoni e’lon qilindi. Bunga ko‘ra Turkiston general-gubernatorligidagi Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand, Yettisuv va Kaspiy orti viloyatlaridagi 19 dan 43 yoshgacha bo‘lgan kishilar olinishi kerak edi. Bu farmon tub aholi orasida «mardikorlikka olish» iborasi bilan keng tarqaldi. Imperator farmoni busiz ham azob-uqubatlarda va dardu-alamlarda yashayotgan mehnatkash ommani larzaga soldi va qahr-g‘azabini yanada kuchaytirib yubordi. Minglab ishga yaroqli kishilarning mardikorlikka olib ketilishi ko‘p oilalarning boquvchisiz qolishlariga sabab bo‘ldi. Bir umr chetga chiqmagan odamlarning uzoq va sovuq jonlarga yuborilishi mahalliy xalq uchun g‘ayritabiyy bir fofia edi. Hatto hukumat «mardikorlik niqobida kishilarni urushga olib ketadi», degan gaplar xalqni yanada qattiqroq tashvishlantirdi. Bundan tashqari, o‘n minglab kishilarni to‘plashga va jo‘natishga mutlaqo tayyorgarlik bo‘lman holda farmon to‘satdan paydo bo‘ldi. Hatto, rus ma’muriyat og‘ir ahvolga tushib, nima qilishini bilmay qoldi. Buning ustiga mahalliy xalq boshqa joylarga borib ishlashni xohlamas edi. Shuning uchun ham harbiy vazirning o‘rinbosari P.A.Frolov shunday yozgan edi: «Tub aholi va ma’muriyat begona joylarga mardikorlarni yuborishga tayyor

emas edilar. Ammo shunga qaramay, bu ishga shoshilinch ravishda kirishilishi katta tartibsizliklarni yuzaga keltirib, rus qoni to‘kilishiga va quroq ishlatilishiga olib keldi». Mazkur so‘zlarda qo‘zg‘oloonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy zaminlari emas, balki unga turki bo‘lgan sababhlari ifodalangan bo‘lsada, lekin mardikorlikka olishdagi tartibsizliklar vaadolatsizliklar uni tezlashtirgan omillardan biri bo‘lganligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Mahalliy ma’muriyat vakillari esa imperatorning bu farmonidan boylik orttirish yo‘lida foydalanib o‘z vazifalarini suiiste’mol qildilar. Hatto Turkiston general-gubernatori A.Kuropatkin bu adolatsizlikni tan olishga majbur bo‘lgan edi. «Mardikorlikka olish masalasi bo‘yicha Samarqand, Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlarida bo‘lgan vaqtimda, — deb yozgandi u, — menga og‘zaki va yozma ravishda qilingan shikoyatlarda mahalliy ma’muriyatning o‘z vazifalarini ko‘p suiiste’mol qilganliklari ma’lum bo‘ldi. Volost boshliqlari, qishloq oqsoqollari va ularning ko‘rsatmasi bilan ish yurituvchi ellikboshilar odamlar mardikorlikka imperator oliy hazratlarining farmoni bo‘yicha olinayotganligini unutishi, uning bajarilishiga yordam berish o‘rniga aholidan pora olish va buni bermoqchi kishilarga zo‘ravonlik qilishib qamashgacha borganlar».

Mahalliy ma’muriyat vakillari boylardan ularning o‘g‘illarini mardikorlikka safarbarlikdan olib qolish uchun pora olganlar. Ularning o‘rniga kambag‘allarni yuborishga zo‘r berib harakat qilganlar. Chunki rus ma’muriyati mahalliy ma’murlarga pul evaziga boylarning farzandlari o‘rniga kambag‘allarni yuborish huquqini bergen edi. Oqibatda poraxo‘rlikka va mardikorlikka kambag‘allarni qanday bo‘lmasin ko‘proq safarbar etishga imkoniyatlar tug‘ilganda. Ma’muriyat vakillarining boylar tarafida turib ish yuritishi oddiy kishilar qahr-g‘azabini uyg‘otgan edi. Bu xususda o‘scha A.N.Kuropatkin o‘zining imperator Nikolay II ga yozgan xatida bunday deydi: «Qarzni undirish uchun dehqonlarning yerlari va ish qurollari, umuman, hamma narsasi sotilgan. Volost oqsoqollari va qozilari ko‘p hollarda boylar tarafida turishib masalani tirishqoqlik bilan ular foydasiga hal qilganlar. Farg‘ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarining kambag‘allahgan xalq ommasi o‘zlarining mahalliy ma’muriyati va qozilaridan norozi bo‘lishganliklari uchun

qo‘zg‘olon paytida volost oqsoqollariga, kotiblariga qarshi hujum qilganlar».

Ayni paytda mahalliy ma’muriyatning chor hukumatini mustamlakachilik va milliy zulmini amalga oshirishdagi vositachiligi ham aholi g‘azabi va nafratini uyg‘otgan. Bundan tashqari, mahalliy ma’muriyat chor hukumatining xalq harakatlarining bo‘g‘ib turuvchi birinchi safdagisi qalqoni va kuchi hisoblangan. Shu bois qo‘zg‘olonchilarining, birinchi navbatda, ular bilan to‘qnashishi tabiiy hol edi. Bundan qo‘zg‘olonga xayrixoh bo‘lgan mahalliy yuqori tabaqanining ilg‘or qismlari mustasnodir, albatta.

1916 yilgi qo‘zg‘olon birinchi galda Samarqand viloyatiga qarashli Xo‘jand shahrida yuzaga kelgan edi. 4 iyul kuni xalq ommasi politsiya idorasiga to‘planib mardikorlikka olishni darhol to‘xtatishni qat’iy ravishda talab qildi. Ma’muriyat vakillarining olomonni tinchitishga qaratilgan harakatlari natija bermay, baqiriq-chaqiriqlar davom etavergan. Politsiya xizmatchilari olomonni tarqatishga harakat qilganda qarshilik ko‘rsatilgan va toshlar otilgan. So‘ngra olomon bir guruh askarlarni qurshab olib ularning miltiqlarini tortib olishga harakat qilganlar. Hatto ularga olomon tomonidan o‘q otilgan. Bunga javoban soldatlar ularni o‘qqa tutganlar, natijada qo‘zg‘olonchilardan ikki kishi o‘ldirilgan va bir kishi jarohatlangan. Shundan keyin olomon darhol tarqalgan. Ammo soldatlarning qurolsiz aholiga hujumi ham, odamlarning o‘ldirilishi ham sabr-kosasi to‘lib-toshgan xalqni qo‘rqita olmagan.

1916 yil 5 iyulda olomon Siyob, Maxolin, Ahrorxoja va Angor volostlarida «Biz mardikorlikka bormaymiz», «Biz ochmiz» va shunga o‘xshash so‘zlar bilan qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Ular uchta qishloq oqsoqollarini o‘ldirmoqchi ekanliklarini shovqin-suron bilan izhor etdilar. Uyezd boshlig‘i bu oqsoqollarni ishdan bo‘shatgandan keyin olomon tinchidi. 5 iyulda Urgutda 2000 kishilik olomon ma’muriyat idorasiga bostirib kirib mardikorlik ro‘yxatini yo‘q qilib tashladilar. Shuningdek, ayrim ellikboshilar, kotiblar va oqsoqollar kaltaklandi. Olomon talabi ostida volost oqsoqoli Mulla Azim Qobilboyev ishdan olindi. Qo‘zg‘olonlar birin-ketin bir-birlariga ulanib ketaverdi. 7 iyulda Dahbed qishlog‘ida Mulla Usmon Abdurasulov boshchilidagi qo‘zg‘olonchilar volost oqsoqoli Haydar Qosimjonovdan

va kotib Sayidmurod Mirza Qobilovdan mardikorlik ro'yxatini talab qildilar. Ro'yxat berilmagandan keyin kotib do'pposlanadi va o'ldiriladi. Haydar Qosimov esa olomon tomonidan otilgan o'q natijasida oyog'idan jarohatlanadi, lekin qochishga ulguradi. Qo'zg'oltonni tashkil qilishda Gadoy Abduqodirov, Xolmo'min Xolmurodov, Azizqul Murod va Muxtor Xafizov singari ellikboshilar ham faol qatnashganlar. Viloyatda xalq harakatlari tobora ko'payib bordi. Shuning uchun Samarqand viloyatining harbiy gubernatori S.Likoshin o'z boshlig'iga yuborgan axborotida «Ko'p joylarda aholining ixtiyoriy ravishda mardikorlikka borishlariga umid oz, safarbarlikni harbiy kuch bilan amalga oshirishga to'g'ri keladi», deb yozgan edi. Shuningdek, u ayrim joylarda volost boshliqlarini, qishloq oqsoqollarini va kotiblarini olomon tomonidan kaltaklash hollari yuz bergenligini ham ta'kidlab o'tadi. «Olomon mahalliy ma'muriyat vakillarini haddan tashqari rus hokimiyatiga berilishlaridan» norozi bo'lmoqda. S.Likoshin harbiy kuch ishlatishning salbiy oqibatlariga ham e'tiborni qaratadi. «Mardikorlikka olishda, — deb yozgandi u, — harbiy qismni qo'llash turli ko'ngilsiz hodisalarни yuzaga keltirib, osoyishta hayot va savdoning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Bozorlarga odamlar kelmaydi, ayniqsa, oziq-ovqat savdosи to'xtashi turgan gap. Chunki oziq-ovqat mahsulotlari tamomila tub aholining qo'lidadir. Shu bois mardikorlikka olish bilan bir qatorda qo'shinni ta'minlash uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ham qo'lga olish darkor».

S.Likoshin mardikorlikka olish tartiblari bitilgan 5000 nusxadan iborat o'zbek tilidagi tushuntirish qog'ozlarini tarqatib, masalani tinchlik yo'li bilan hal etishga harakat qildi. Biroq bunday choralar qo'zg'olnlarni to'xtata olmadi. 11 iyulda Jumabozor qishlog'ida 4000 kishilik olomon to'planib, mardikorlikka olishning bekor qilinishini so'rab Samarqand shahriga, harbiy gubernatorga arz bilan borajaklarini ma'lum qilganlar. Qo'zg'olon, ayniqsa, Jizzax shahrida va uyezdida qizg'in tus oldi. Bu yerda mahalliy yuqori tabaqaning yirik namoyandalari, xususan, Abdurahmon Abdujabborov, Nazirxoja, Mulla Muhammad Rayim, Sharifboyvachcha Xudoyerberdiyev, Bobobek Abdujabborov va boshqalar qo'zg'olonga boshchilik qildilar. Ular mardikorlikka olishga Toshkentda va

Samarqandda qanday munosabatda bo‘linayotganligini bilish uchun u yerlarga o‘z odamlarini jo‘natganlar. Masalan, Nazirxoja Toshkentga, Qosimxoja Asatullayev esa Samarqandga yuborildi. 12 iyulda Nazirxoja Toshkentdan qaytib, u yerda xalq mardikorlikka olishga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanligi haqidagi xabarni tarqatdi. Bu xalqni ruhlantirdi, natijada 13 iyulda Jizzax shahrida Nazirxoja boshliq olomon oqsoqol Mirzayor Xudoyorovni do‘pposlab o‘ldirdi. Bundan xabar topgan uyezd boshlig‘i Rukin katta oqsoqol Xidir Yo‘ldoshev va mirshab Komil Soyibboyev bilan birgalikda rus shaharchasidan eski shaharga zudlik bilan yo‘lga chiqdi. Ular orqasidan soldatlar komandasini ham otlandi. Rukin o‘z xayrixohlari bilan eski shaharga yaqinlashganda qo‘zg‘olonchilarga duch keldi. Olomon qahr-g‘azab bilan Rukinga, politsiya pristavi Zotovga, tarjimon Zokirjonovga va mirshab Komiljonga hujum qildilar va hammasini o‘ldirdilar. Manbalarda yozilishicha, olomon tayoqlar, ba’zilar esa qilichlar bilan qurollangan, lekin miltiqlari bo‘lmagan. 40-50 metrli masofada olomon bilan harbiy qo‘shin yuzma-yuz turgan. Qo‘zg‘olonchilarga tarqalish haqida buyruq berilgan, biroq ular buyruqqa bo‘ysunmay soldatlar tomon bosib kelaverganlar. Ularni tayoqlar bilan urmoqchi bo‘lganlar. Soldatlar esa olomonga qarata o‘q uzganlar. Shundan keyin ular qochganlar, bir qism odamlar esa soldatlarni chetlab o‘tishga harakat qilishgan. Ammo bunga yo‘l berilmagan. Keyin ular ham qochganlar. Soldatlar qo‘zg‘olonchilarni rus shaharchasiga qo‘ymaslik uchun orqaga qaytib yo‘lni to‘siganlar. Shaharchadagi ruslarga cherkovga kirib, mudofaada turish haqida xabar yuborilgan. Bu yerda, ayniqsa miltiq va patronlarni saqlash lozim bo‘lgan. Lekin baribir olomon bilan soldatlarning to‘qnashuvi yuz bergen. Natijada tub aholidan 11 kishi o‘lgan. Shu kuni Kavkazga poyezdda ketayotgan 100 soldatdan iborat qo‘shini Jizzaxda qoldirilganligi va qurollantirilganligi ma’lum bo‘ldi. Bu qo‘shin praporshik Grigoryev boshchiligidagi eski shaharga yaqinlashganda yo‘lda uyezd boshlig‘i Rukinni, tarjimon, mirshab, politsiya pristavi murdalarining yotganini ko‘rganlar. Ular shu darajada kaltaklanganki, tanishning iloji bo‘lmagan. Faqat kiyimlaridan kimligi bilingan. 13 iyulda qo‘zg‘olonchilar Jizzax — Milyutin, Jizzax — Lomakin temir yo‘llarini, telegraf aloqa

vositalarini buzib tashlaganlar. Ko'prik va Jizzax stansiyasidagi neft ombori yondirilgan. Jizzax shahrida qo'zg'olon bostirilgandan keyin xalqg'alayonlari bugun uyezdni qoplab olgan. Ayniqsa, Bog'don, Sangzor va Zomin volostlari qo'zg'olonning markaziga aylanganlar. Jizzaxdag'i mag'lubiyatdan keyin qo'zg'olonchilarining talay qismi Bog'don volostidagi Nurbek qishlog'iga borib o'rashganlar. Bu yerda ular Abdurahmon Jibochi boshchiligidagi qo'zg'olonchilarga qo'shilganlar. Uyezdda qo'zg'olon shu darajada keng quloch yoygan ediki, u Forish, Fistalit, Ko'ktepa va Otaqo'rg'on volostlarini ham qamrab olgan edi. Abdurahmon Jibochi boshchiligidagi qo'zg'olonchilar safida qirg'izlar ham bor edi. Chunonchi, Abdurahmon Jibochi o'z atrofiga jizzaxliklarni va boshqa kishilarni to'plab, 14, 15 va 16 iyul kunlari choparlarni qirg'izlar yashaydigan dashilarga, tog' ortlariga, Forish va Sintob volostlaridagi tojiklar yashaydigan qishloqlarga ham yuborib, ularni qo'zg'olon ko'tarishga chaqirdi. 18 iyulga kelib Sintob volostiga qarashli Majrum, Forish volostining Sarimsoq va Safarota singari qishloqlaridagi tojiklar, Sauryuk aholisi, Narvondagi urug'lar Abdurahmon Jibochi atrofiga ji slashganlar. Ular hamkorligida Jizzax shahriga yurish masalasi muhokama qilingan.

Bu vaqtida turli volostlarning bir guruh nufuzli kishilarini Abdurahmon Jibochiga qo'shilishgan edi. Masalan, Zulfiqor Yo'ldoshev, Jonqobil Rahmonqulov, Sattorxoja, Qalandarxoja, Qaytaxoja, Ismoil Allayev, Ibrohim Allayev, Mulla Olloberdiyev, Davronboy Mirzaboyev, Umar Imomov, Umar Abdusayidov, Qobil Kattabekov, Sattor Eshmatov, Muso Tog'ayev va boshqalar qo'zg'olonchilar safida edi.

Abdurahmon Jibochi Jizzax shahridagi nufuzli odamlarni ham o'z atrofiga ji pslashtirgan. U o'zining ukasi Bobobek Abdujabborovni Jizzax shahriga yuborgan. U shahardan Eshon Nazirxoja, Imam Mulla Muhammadrahim, Sharifboyvachcha Xudoyberdiyev va boshqa ko'plab kishilarin boshlab kelgan. Mazkur odamlar qatnashuvida Abdurahmon Jibochining xonadonida o'tkazilgan kengashda Jizzax shahriga hujum qilish uzil-kesil hal etilgan. Samarqand viloyati harbiy gubernatoriig ta'rificha, to's-to'polonlar o'sib borgan, goh u, goh bu yerda to'qnashuvlar

sodir bo‘lgan, bu to‘qnashuvlarda odamlar o‘lgan. Mahalliy hokimiyatning tushuntirishga va tinchlantirishga qaratilgan harakatlari foyda bermagan. Pirovardida, noroziliklar kuchayib, ular rus hukumatiga qarshi qo‘zg‘olonlarga aylangan.

Abdurahmon Jibochi Bog‘don volostining hokimi Mulla Mavlon Mahmudrizayevni o‘limga hukm qildi, lekin u qochishga ulgurgan. Jibochi tomoniga amaldorlardan Nurek jamoasining oqsoqoli Zulfiqor Yo‘ldoshev, Osmonsov qishlog‘ining oqsoqoli Jonqobil Rahmonqulov, Sarimsoq Sattorxoja, Qalandarxoja va Kattaxojalar o‘tganlar. Bundan tashqari, Bog‘don volostidan — Ismoil Allayev, Ibrohim Allayev, Mulla Alloberdiboyev, Davronboy Mirzaboyev, Sindor Davronboyev, Umar Imomov, Umar Abdusayidov, Qobil Kattabekov, Qo‘noqboy Qaymurodov, Yomg‘irchi Qodirov, Sattor Eshmatov, Muso Tog‘ayev, Saunboy Eshmatov, Davron Fozilov, Ergash Abdusattorov, Umar Rizaqulov, Jo‘ra Sulaymanov, Baxtiboy Sulaymonov, Mulla Shaymon, Hamroqul Murodso‘fiyev; Ilonchomdan — Jo‘ra Abdug‘ofurov, Jaynoq Abdurasulov, Safar Otadan — Mulla Vais Iskandarov; Uchmadan — Mullachinni Yo‘ldoshev, Jonadil Jabborov, Kattabek To‘rov, ellikboshi Ishman, Haydar Nazarov; Sintob volostidan — Xojaniyoz Shirboyev, Mulla Kamoliddin, Mahamad Yusupov, Egamboyev, Hikmatilla Sunattilaboyev, Rajabboqi Abdunabiyyev, Nurtoy Yorboyev va Turush Umarov singari kishilar qo‘zg‘olon targ‘ibotchilari sifatida faoliyat ko‘rsatganlar. Viloyatning Zomin volosti qo‘zg‘oloning yirik o‘choqlaridan biriga aylangan. Karimqul Orziqulov boshchiligidagi Yom volostiga qarashli qirq qishloq aholisi Kunbek va Norcha ismli ikki ellikboshini o‘ldirganlar. Bu vaqtda o‘sha volostdagι Oqtoshda oqsoqol olomon tomonidan kaltaklangan. Turdibek Xudoynazarov rahbarligidagi ko‘zg‘olonchilar oqsoqol Mulla Mahkam Mulla Roziqulovni o‘ldirganlar. Shu kuni Zomin volostn bo‘limi pristavi Sobolev soqchilari Protsenko va Sarevich bilan o‘sha joylarga voqeani tekshirish uchun borganlar. Bu yerda 7 kishini hibsga olib Zomin volost boshlig‘i Mulla Fozilov bilan Zominga qaytayotganda orqasidan qo‘zg‘olonchilar quvlagan. Ular Zomin qishlog‘iga yaqinlashganda Qosimxoja qo‘l ostidagi olomon qo‘zg‘olonchilarga qo‘shilib pristav Sobolevga hujum qilganlar.

Natijada volost oqsoqoli Mulla Fozilov o'ldirilgan. Sobolev va soqchilar qochishga ulgurganlar. Bu kishilar Zomin qishlog'i bozorida joylashgan boloxonaga o'rnashib olganlar. Eshon Qosimxojaning buyrug'i bilan ularga qarshi o'q otilgan va Sobolev o'ldirilgan. Ikki soqchi esa qochgan. Ertasiga 14 iyulda Zomin jome masjidida bir kunlik ro'za bekor qilinib katta ziyofat berilgan va «Zomin beki» saylangan.

16 iyulda olomon Abdurahmon Jibochi boshchiligidagi Bog'donda bo'lim pristavi Barilloning uyini va idorasini ostin-ustin qilib, mol-mulkini talaganlar, hujjatlarni yondirganlar.

Bu ishlarni amalga oshirishda uning o'zi bilan birga o'g'illari Norbek va Doston, safdoshlari Matlab Qo'noqboyev, Saurin Hasanboyev, To'li Musaboyev, Mullabobo Murod Chalaboyev, Mulla Quboy Turonboyev, Tursunboy Suyundiqov va Ergash Rizoqulov faol qatnashganlar. Qo'zg'olonchilar orasida qo'shni qishloqlardan, Yomchindan, Oqbuloqdan, Uchmingandan va boshqa joylardan kelgan kishilar bo'lgan.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 16 iyulga kelib buzilgan temir yo'llar va telegraf aloqalari tuzatilgan. Ammo bu vaqtida Bog'don va boshqa volostlarning qo'zg'olonchilar Jizzaxning eski shaharini egallab, tuzatilgan temir yo'llarni va ko'priklarni yana buza boshlaganlar. Biroq 19 iyulda polkovnik Ivanov boshchiligidagi harbiy qism qo'zg'olonchilarga hujum qilib, shaharni egallaganlar. Qo'zg'olonchilar shahar atrofidagi qishloqlarga chekinadilar. Rus harbiy qismi Zomin tomoi yurib Zomin-Rovot-Jizzax yo'lini egallaydi. Shundan keyin soldatlar bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida bir necha bor to'qnashuvlar bo'ladi. Bu vaqtida Sangzor volostida ham qo'zg'olon kuchayadi. Sangzor qozisi To'raqul Turodbekov va uning ukasi Eshonqul qo'zg'oloni uyuştirishda jonbozlik ko'rsatadilar. Xonlik davrida ularning tog'asi Sangzor beki lavozimida ishlagan edi. Otasi esa qorovullar begi mansabini o'tagan. Shu bois Turodbekovlar oilasi jamoa orasida katta obro'ga va hurmatga sazovor bo'lgan kishilar hisoblangan.

13 iyul kuni kechqurun Jizzax shahridagi qo'zg'olon tasirida Sangzordagi bir guruh nufuzli kishilar To'raqul Turodbekov boshchiligidagi maslahatlashib xalqni bosh ko'tarishga da'vat etishdi.

Natijada qo‘zg‘olon yuzaga kelib unga To‘raqul Turodbekov, Eshonqul Turodbekov, Aliqul Jo‘raboyev, Muhammad Murodov, aka-uka Husainov va boshqalar rahbarlik qilishadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, bu yerda ishlovchi 14 rus o‘ldirilgan. Bu vaqtida Sangzor volostining boshlig‘i qochib ketadi, lekin Kaltay qishlog‘ida ushlanib o‘ldiriladi. Qo‘zg‘olonchilar Ko‘kjar, Terakli degan joylarda ham ruslardan o‘ch olganlar.

18-19 iyulda Vodopyanov boshchiligidagi harbiy qism Rabot qishlog‘i tomon yuradi. Bundan xabar topgan qo‘zg‘olonchilar o‘scha tomonga yo‘l oladilar va Zomin qo‘zg‘olonchilar bilan birlashadilar. Ular 12 kishilik rus razvedkachilariga hujum qiladilar. Natijada dushman Lomakin stansiyasiga chekinishga majbur bo‘ladi. Bu yerdan ular o‘z harbiy qismlariga borib qo‘shiladilar. Shundan keyin qo‘zg‘olonchilarga qarshi 20 soldat kelib jang qiladi. Qo‘zg‘olonchilar mardonovor kurashib, soldatlarni xavf ostida qoldiradi. Shuning uchun Rovotga yetib kelgan podpolkovnik Vodopyanov qo‘zg‘olonchilarga qarata to‘plardan o‘q ottiradi. Shunga qaramay 21 iyul kuni ertalab qo‘zg‘olonchilar soldatlarga qarshi yana hujum qiladilar. Faqat to‘plardan surunkasiga o‘q yog‘dirilishi natijasida qo‘zg‘olonchilar tarqalishga majbur bo‘ladilar. Xullas, 25 iyulda Bog‘don, Sangzor va Zomindagi qo‘zg‘olon shafqatsizlarcha bostiriladi. 18 iyulda Kattaqo‘rg‘on uyezdiga qarashli «Mingariq volostida 2000 lik olomon volost boshlig‘iga hujum qilib, uni jarohatlantiradi. Kechqurun u yerga podpolkovnik Shirakov yarim rota soldat bilan keladi. Qo‘zg‘olonchilar ularga o‘q otadilar. Natijada boshliqlar Kattaqo‘rg‘on garnizonini yana to‘rt pulemyot va ikki to‘p bilan kuchaytirish to‘g‘risida yuqoriga axborotnoma» beradilar.

19 iyulda Mingtepa volosti chegarasidagi Oqchurachasi va Gadoytopmas qishloqlarida to‘plangan 1500 kishilik olomon praporshik Vladimirov qo‘mondonligidagi harbiy qismga hujum qiladi. Ammo soldatlar qo‘zg‘olonchilarga qarshi javob hujumini uyushtirib, ularni Juma va Oqtepa qishloqlarigacha quvib bordi. Olomondan bir kishi halok bo‘ladi va g‘alayon qatnashchilari tarqatib yuborildi.

20 iyulda Kattaqo‘rg‘on shahar aholisi mardikorlikka qarti chiqib

to's-to' polon ko'taradi. Bunday og'ir vaziyatdan qo'rqqan ellik-boshilar va oqsoqollar mardikorlikka safarbar etiladigan kishilar ro'yxatini tuzishdan bosh tortadilar. Shuning uchun ular (9 kishi) rus harbiy ma'muriyati tomonidan hibsga olinadi. Bu holat shahar aholisining qahr-g'azabini qo'zg'atib ochiqdan-ochiq qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keladi. Ko'p sonli olomon eski shahar ko'chasi bo'ylab rus shaharchasi tomon yuradilar. Praporshik Steblyuk soldatlarni jangovar holatga keltirib qo'zg'olonchilar yo'lini to'sadi. Biroq olomon bostirib kelaveradi. Taxminan 30-40 metr masofa qolganda soldatlar ularga qarata o'qlarni yog'diradilar. Shunga qaramay boshqa tarafdan ikkinchi olomon to'dasi bosib keladi. Ammo qo'zg'olonchilar dushmanning o'q yomg'irlariga bardosh bera olmay qochadilar. Qo'zg'olonchilardan 5 kishi o'ldiriladi va bir necha odamlar jarohatlanadi.

Qo'zg'olnlarning birin-ketin mag'lubiyatga uchrashiga qaramay xalq ommasi bosh ko'tarishdan qaytmaydi. Chunonchi, 19 iyulda Mingariq volostining Jumabozor qishloq aholisi masjidda nomoz paytida qo'zg'olon ko'tarib, volost boshlig'i Mulla Usmon Mulla Qoraboyevni o'ldirish payiga tushadilar. Bu kishi qochib ketganidan keyin olomon uning Oqchurachasi qishlog'idagi uyini va idorasini buzib tashlaydilar. Bu voqeа guvohnining so'ziga ko'ra, uni bu ishda Botir, Abduraim mergan, Abduqodirxoja, Safarxoja, ellikboshi Qo'miq Xidir, usta Muhammadali, Ikrom Mulla Donalayev va boshqa kishilar jonbozlik ko'rsatganlar. Qo'zg'olonchilar tayoqlar, qilichlar, ov miltig'i va to'pponcha bilan quollanganlar. Ammo qo'zg'olon ham tarqab ketadi. Mahalla volostidagi Oqmasjidda yana bir qo'zg'olon ko'tarilib, g'alayonchilar volost boshlig'i va qozisini o'ldirishga harakat qiladilar.

Samarqand viloyatidagi qo'zg'olon alangasi Farg'ona viloyatiga ham katta xavf tug'diradi. Chunki mag'lubiyatga uchragan qo'zg'olnlar ishtirokchilarining talay qismi Farg'ona vodiysiga o'tish uchun yo'lga chiqqanlar. Bu xususda Farg'ona viloyatining harbiy gubernatori L.I.Gippusning harbiy vazirlikka yuborgan axborotida bunday deyilgan; «Toshkentga borishimni to'xtatdim. Chunki Qo'qonga kelganimda qo'shni Samarqand viloyatining Jizzax, Zomin va Shahriston degan manzillaridan odamlarning

Farg'ona viloyatining tog'lik joylariga kelganlari haqidagi xabarni oldim. Ular bu joylardagi aholini mardikorlikka olishga qarshilik ko'rsatishga chaqirmoqdalar. Bu bosqinchilar yaxshi kayfiyatdag'i Farg'ona viloyatining aholisini talashi va bularni ham qochishga da'vat qilishi mumkin.

Qurolsiz ayollarni va bolalarni qamaymiz va Qo'qonga jo'natakimiz, qarshilik qilganlarga nisbatan qurol ishlatamiz. Ayni vaqtida soldatlarni eng katta yo'llarga joylashtirib, bosqinchilarni qaytadan Samarqand viloyatiga jo'natishni rejalashtirdik». Xullas, Samarqand viloyatidagi 1936 yilgi qo'zg'olon shu darajada keng quloch yoyib, qizg'in tus oldiki, u deyarlik barcha volostlarni qamrab oldi. Chunonchi, Turkiston general-gubernatori tomonidan Jizzax uyezdida sodir bo'lgan qo'zg'olonlarni o'rghanish hamda aybdorlarning mol-mulkini musodara qilish bo'yicha tuzilgan maxsus komissiyaning ma'lumotiga ko'ra, quyidagi shahar va volostlarni qo'zg'olon qamrab olgan edi:

- | | |
|-----------------------|--------------------------|
| 1. Jizzax shahri | 12. Qo'rg'on tepe -»- |
| 2. O'zbek volosti | 13. Norut volosti |
| 3. Rovot -»- | 14. Sintob -»- |
| 4. Zomin -»- | 15. Yom -»- |
| 5. Qoratosh -»- | 16. Pistalitog' -»- |
| 6. Sangzor -»- | 17. Ismat — Qatortol -»- |
| 7. Sauryuk -»- | 18. Chashmob -»- |
| 8. Bog'don -»- | 19. Xoja Mukur -»- |
| 9. Forish -»- | 20. Ota Qo'rg'on -»- |
| 10. Yangiqo'rg'on -»- | 21. Qizilqum -»- |
| 11. Ko'ktepa -»- | 22. Chordara -»- |

Rus askarlari qo'zg'olonchilarga qarshi shafqatsizlarcha kurashib, bir nechta qishloqlarga o't qo'yib, ularni kulga aylantiradi. Buning orqasida minglab kishilar boshpanasiz qoldilar. Shuningdek Jizzax shahri vayron qilindi.

Xalq qo'zg'olonlari Sirdaryo viloyatida ham keng alanga oldi. 11 iyul kuni Toshkentda politsiya boshqarmasiga boradigan ko'chada ayollar dodlashib, u yoqdan bu yoqqa yugurishib mardikorlikka hech kimni bermasliklarini izhor qiladilar. Ularga erkaklar

qo'shilishib, shovqin-suron bilan boshqarma idorasi tomon shiddat bilan yurishgan. «11 iyul kuni ertalab soat 8 da, —deb ta'kidlaydi Eski shahar politsmeystri A.Mochalov, — politsiya boshqarmasida ayollar va ularning ketidan erkaklar olomoni to'plandi. Qo'zg'oloning ko'tarilishida Mahmudxoja Mirzaxojayev, Yoqub Maratjabborov, Fayzali Rahimboyev, Po'latxoja Inog'omxojayev, G'ulom Kamolov, Murodxoja Muhammadxojajev, Abdurahmon Qayum So'fiyev va Nizomiddinxoja Sayfiddinxojayev jonbozlik ko'rsatdilar. Ular «dod» deyishib politsiya boshqarmasiga bostirib kirdilar. 2000-3000 kishilik olomon boshqarma panjaralarini sindirdilar va mirshablarni kaltakladilar. Ayollar «mardikor bermaymiz», erkaklar esa «bormaymiz va shu yerda o'lamiz», deb baqirishdi. Qo'zg'olenchilardan biri mirshab Yo'ldosh Muhammad qo'lidan to'pponchani tortib oldi. Politsiya boshqarmasi qorovuli Mirahmad Akbarshoyev ma'muriyat yonini olgani uchun olomon tomonidan o'ldirildi». Xaloyiq boshqarmaning mirzasini Trentovetsni urib boshini jarohatlaganlar. Toshbo'ron orqasida Sebzor dahasining mirshabi Sayid Ismoiljonov, Shayxontoxur dahasiniig mirshablari Tilla Eshmuhamedov va Doniyorxoja Isaxojayev yarador qilinadi. Soldatlardan uch kishi jarohatlanadi. Olomon boshqarma idorasini toshbo'ron qilib, eshik va derazalarini sindiradilar. Shu paytda ayollarning qo'zg'olonda qatnashayotganligini qoralagan Obid Usta Azizzojayev kaltaklanadi. Bu kishi shahar kasalxonasida vafot etgan. Prokuror aybnomasida bu haqda bunday deyilgan: «Marhum Obid Usta Azizzojayevning ukasi 11 iyul kuni kechqurun kasalxonaga borganda akasi jon berishdan oldin shunday debdi: men politsiya boshqarmasi derazasining tagida turib, erkaklar turganda xotinlarga shovqin-suron qilish munosib emas, deb ta'na qildim. Shu ondayoq erkaklar va xotinlar meni ko'chaga sudrab olib chiqishdi. Bu yerda kimdir biqinimga va qornimga pichoq urdi.» Bu holat qo'zg'olenchilarning qahr-g'azabi nihoyatda qaynaganligini ko'rsatadi. Boshqarmada Eskin shahar politsmeystri podpolkovnik N.YE.Kolesnikov olomonni tinchlantirishga harakat qiladi. Ammo hech kim uning gapiga qulq solmay, to's-to'polonni davom ettiraveradi. Qo'zg'olenchilarning biri qo'lida qilich bilan N.Kolesnikovga tashlanayotganida u bu kishini to'pponchadan otib

o'ldiradi. Shundan keyin xalqning qoni qaynab «Ur» degan ovozlar yangragan. Olomon orasida Mahmud Mirsoatov ismli gimnaziya kiyimidagi yigit «mirshablarni uringlar» deb odamlarni hujumga da'vat qilgan. Qo'zg'olonchilardan Mirqosim Isamuhamedov sherigi bilan telefon simini uzgan. Olomon hujuming kuchayishi sababli soldatlar o'q uzganlar. Natijada 11 kishi o'ldiriladi va 15 kishi yarador qilinadi. O'lganlar orasida Abdusamad Asadxojayev, Shoyunus Abdukarimov, Hayitboy Hasanboyev, Abduqodir Muhammad Sodiqov, Sayramboy Nigmatjonov, Qosim Ahmedov, Ibrohim Ismoilov va boshqalar bor edi. Otib o'ldirilganlar ichida o'zbek ayoli Ruzivon bibi Ahmadjonova va jarohatlangan Zaurbibi Musamuhammedova ham bo'lgan. Binoborin, qo'zg'olonda ayollar oldingi saflarda turib boshqarmaga hujum qilganlar. N.Kolesnikovning aytishicha, yonida turgan ayollar uni urmoqchi bo'lib tayoqlarini o'qtalganlar. Usta Odil Olimboyev, Oxunbobo Abdulazizov, mulla Olim Fayziboyev, Po'lat Mirisayev, Shokir Kamolov, Ernazarxoja Ikromboyev, Sodiq Qoriyev va boshqa kishilar og'ir yaralanganlar. Boshqarma hovlisida bayon etilgan fojia yuz bergenidan ko'p o'tmay Toshkent shahar boshlig'i S.O.Kochan yetib keladi. U o'z ko'zi bilan ko'rgan voqeani bunday yozgan edi: «Men politsiya boshqarmasiga kelganimda ko'chada, boshqarma atrofida va qisman hovlisida erkak va xotinlardan tashkil topgan olomonga duch keldim. Olomon bir necha ming kishidan iborat bo'lib, ular orasida o'lganlar va yaradorlar yotardi.

Politsiya boshqarmasiga boradigan ko'chada ayrim kishilar menga yig'i-sig'i aralash nimalarnidir tushuntirishga, kimlarningdir ustidan shikoyat qilishga harakat qilardilar. Bu yerda erkaklar va xotinlar bo'lib, ularning hammasi xo'rangan va ezilgan holda ko'rindi. Politsiya boshqarmasiga kirganimda eski shahar mirshablarining hammasining qo'llarida to'pponcha ushlab turganliklarini ko'rdim. Boshqarma binosi yonida telefon simi uzelgan holda yotardi. Idoraning ichida g'isht, tosh parchalarini, eshik va derazalarning singanini ko'rdim. Hali harbiy qismlar kelmagan edi. Olomonning tarqalishini so'rab qilingan so'rovlar inobatga olinmadni. Shovqin-suronlar eshitilib turardi. Ko'p o'tmay o'liklarni va yaradorlarni olishga, tibbiy yordam ko'rsatishga

kirishildi. Shu vaqtda boshqarmaga harbiy bilim yurtining otradi va Toshkent yangi shaharining mirshablari kelishdi. Shundan keyin harbiy qismlar ham kelib olomonni ko'cha tarafdan o'rab oldi va ularni tarqatishga muvaffaq bo'lindi. Shundan keyin qo'zg'olon-chilarning bir guruhi mirshab Mirkomil oilasini o'ldirish uchun Beshyog'och tomonga jo'naganlar».

14 iyulda Xonobod qishlog'ida olomon «mardikorlarni bermaymiz», «amaldorlarni uringlar», deb baqirishib Kenjigal volost boshlig'iga tashlanadilar, lekin u qochib ketadi. Mirshab Boymurot esa jarohatlanadi va mol-mulki talanadi.

13-14 iyul kunlari To'ytepada va Toshkentda ham xalq to'planib, mardikorlikka bormasliklarini ma'lum qiladilar. To'ytepada soldatlar bilan to'qnashuvda 4 kishi halok bo'ladi, 8 xonodon soldatlar tomonidan yondiriladi. 20 iyulda Kelesning orqa tomonidagi Bulot volostida qo'zg'olon uchun 50 ming kishi yig'ilganligi haqida Toshkentga xabar berilgan. Toshkentdan 18 chaqirim masofada joylashgan G'ishtko'prikda 7000-8000 kishidan iborat olomon to'plangan. Qibrayda esa 4000-6000 kishilik qo'zg'olon ko'tarilgan. Garchand ko'rsatilgan xalq g'alayonlari muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsada, qo'zg'olonlar boshqa joylarda qaytadan yuz beravergan. Masalan, 21 iyulda Kaufman stansiyasida (Zangiota atrofida) 3000 kishilik qo'zg'olonchilar soldatlar bilan to'qnashgan. Natijada ulardan uchta, soldatlardan biri o'lgan. O'sha kuni Oqqo'rg'on Qishlog'ida volost boshlig'iga hujum qilingan, biroq u qochib qolgan.

Ayniqsa, 22 iyul kuni To'ytepada ming kishilik qo'zg'olonchilar ma'muriyatga katta xavf tug'dirgan. Oqibatda volost boshlig'i Bekmuhammad Mallaboyev o'ldirilib, idorasi va uni ostin-ustin qilinadi hamda mol-mulki talanadi. Qo'zg'olonda To'ytepada volost qozisi Alimuhammad Xudoyberganov, oqsoqollar va oqsoqollikka nomzodlar Normuhammad Utenov, Mirza Rahimboyev, Xoja Jivanbekov faol qatnashadilar. Ma'muriyat 76 kishini qamaydi. Xullas, Sirdaryo viloyatida ham xalq g'alayonlari kuchayib chor hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi qaratilgan harakatlarning avjiga minishida salmoqli o'rinni egallaydi.

1916 yilgi qo'zg'olon Farg'ona viloyatida o'zining eng yuqori

cho‘qqisiga ko‘tarildi. Dastavval, qo‘zg‘olon 9 iyulda Andijon shahrining jome masjidida boshlanib odamlar «Mardikorlikka bormaymiz» degan so‘zlar bilan ma’muriyat vakillariga o‘z nafratlarini va noroziliklarini bayon etadilar. Ayniqsa, madrasa talabalari mullavachchalar qattiq qarshilik ko‘rsatadilar. Shundan keyin 500 kishilik olomon Skobelov ko‘chasi bo‘ylab «Gultepa» maydoniga keladidir. Bu yerda ular urush xarajatlarini qoplashni bo‘ynimizga olamiz, lekin mardikorlikka bormaymiz, deb qattiq turib oladilar. Shuningdek, ular Andijon shahar boshlig‘i I.A.Brejitsiydan mardikorlikka olmaslik haqida tilxat berishni talab qiladi, aks xolda barcha ellikboshilar, mansabdorlar va ularning mol-mulklarini ostin-ustin qilishlarini» aytishadi.

I.A.Brejitsiyning olomonni tarqatishga va tinchlantirishga qaratilgan harakatiga qulq solmaydilar. «Mirshablarga va soldatlarga qarata tosh, ketmonlar va tayoqlarni otdilar. Natijada bir soldat va bir nechta mirshablar jarohatlandilar, — deb yozadi I.A.Brejitsiy, — soldatlarni jangovar holatga keltirganimda toshlar do‘l kabi ustimga yog‘ildi va ular «uringlar», deb baqirishib bizga tashlandilar. Shu bois men soldatlarga otilsin, deb buyurdim. O‘n kishi og‘ir jarohatlandi va olomon qochdi». Shuningdek, bu yerda uch kishi o‘lgan. Mahalliy ma’muriyat vakillari va umuman, nufuzli kishilar qo‘zg‘olon bostirilgani bilan hali xavf bartaraf qilinmaganligini I.A.Brejitsiyga gapirib, g‘alayon Xo‘jand va Qo‘qondagi qo‘zg‘olon ta’sirida yuzaga kelganligi hamda mardikorlikka safarbar etishni kechiktirishni, bunga puxta tayyorgarlik ko‘rishni tavsiya qilganlar.

10 iyulda Oltinko‘l volostiga qarashli Dalvarzin qishlog‘ida qo‘zg‘olonchilar volost boshlig‘i Hakimbek Ro‘zimbekov va uning ikki hamrohini o‘ldirganlar. Bunda qishloqning butun aholisi qatnashgan. Jazo otradi yetib kelgan vaqtda ularning hammasi qishloqni tashlab chiqib ketgan edilar. 13 iyulda Andijon uyezdining Maygir volostining Chuam qishlog‘ida qo‘zg‘olon ko‘tarilib, olomon qishloq oqsoqoli YU.Hasanboyev, ellikboshi Qi pchoqboy va Mulla Yo‘ldosh Sultonxojayevni urib o‘ldirganlar. Shuningdek, ular amaldorlarning uylarini buzib, mol-mulklarini talaganlar. Qishloq oqsoqolining otasi K.To‘raqulboyevning ko‘rsatishicha, xaloyiq uning uy-joylarini vayron qilishdan tashqari, 200 ming

so‘mlik qarzdorlik hujjatlarini va veksellarini yondirib tashlaganlar. Qo‘zg‘olonga A.Islomov, M.Qosimov, A.Rizoqulboyev, A.Aliyev, T.To‘raqulboyev, A.To‘xtasinboyev, T.Mamaniyozov, P.Abdulaliyev, I.Madraimov, J.Polvonov, M.Oxunov, M.Oqsoqolov, D.Temirboyev va K.Rizoqulboyev degan kishilar boshchilik qilganlar.

Qo‘zg‘olonlar jazo otradrari tomonidan shafqatsiz bostirilishiga qaramay, tobora ko‘proq tarqalib borgan. Bu borada chek Oftobachi, Mirobod va boshqa qo‘shni qishloqlarda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlarni ko‘rsatish rnumkin. 12 iyuldan 13 iyulga o‘tar kechasi chek Oftobachi va Chek G‘ofir qishloqlarining 300 kishilik olomoni Buvanazar Hojiyev, Ota Boybachcha, Mamasoli Hojiyev, Qo‘ch-qor G‘oziqulov va Mamadhasan Ahmadxojayev boshchiligida oqsoqolning uyiga bostirib kirib, uni topib berishlarini oila a’zolaridan talab qilganlar. Bu vaqtida oqsoqol va ma’muriyatning boshqa vakillari Andijon shahrida yashirinib yurgan edilar. Qo‘zg‘olonchilar oqsoqolning o‘g‘lini va boshqa qarindoshlarini tutib olib bog‘laydilar. Ulardan oqsoqalni topib berishni, aks holda o‘zlarini o‘ldirish va uy-joylarini yondirish niyatini ma’lum qiladilar. Chek Oftobachi qo‘zg‘olonchilarining boshlig‘i atrof joylardagilar bilan hamkorlikda kurashni davom ettirish maqsadida Xonbog‘, Chek Madyor kabi qishloqlarga o‘z vakili mirob Sotiboldiyevni yuborib, ularni qo‘zg‘olon ko‘tarishga va amaldorlarni jazolashga chaqirdi.

Qo‘zg‘olon M.Mamatsaidov, I.Saidboyev va R.Raimberdiyev boshchiligida Donquyma qishlog‘ida ham bo‘lib o‘tgan. Bu yerda xaloyiq qishloq oqsoqoli M.Sarimsoqovning xonadoniga bostirib kirib mardikorlar ro‘yxatini va boshqa hujjatlarni kuydirib, oqsoqolni topib berishni qarindoshlaridan talab qilganlar. Xalq qo‘zg‘oloni Mirobod nomli qishloqda ham bo‘lganligi ma’lum. Qo‘zg‘olonga J.Ortiqov, R.Shermatov va M.Hasanboyev degan kishilar rahbarlik qilib mahalliy ma’muriyatning zulmi vaadolatsizligiga qarshi kurashganlar. Ma’muriyat vakillari qo‘zg‘olonchilarning jazosidan shaharga qochib qutilganlar.

Norin volostida bo‘lib o‘tgan xalq qo‘zg‘olonlari ham alohida diqqatga sazovordir. Bu viloyat ning Cho‘ja qishlog‘ida YU.Mamat-sodiqov, X.Hojiyev, SH.Qoraboyev, X.Mahmudboyev

boshchiligidagi olomon tayoq, ketmon va o‘roq bilan qurollangan holda oqsoqol M.Karimboy o‘g‘li, ellikboshi T.Yormatboyevning xonadonlariga hujum qilganlar. Biroq oqsoqol va ellikboshi oldinroq qochib ulgurganlar. Yetib kelgan harbiy otrad to‘planib turgan bir guruh olomonga o‘q otgan va ikki kishini o‘ldirgan.

Xalq qo‘zg‘oloni Norin volostining Xojavot qishlog‘ida ham bo‘lganligi ma’lum. Bu yerda 1000 kishiga yaqin olomon qo‘lga tushgan narsalar bilan qurollanib, oqsoqolning uyini o‘rab olgan. Biroq qo‘zg‘olon jazo otradi tomonidan tarqatilib T.Abduvositov, J.Qo‘rboshiyev, M.Madaminov, R.Xudoyberdiyev, I.Diyorboyev va B.Odilboyev singari kishilar qamoqqa olingan.

Andijon uyezdining Kapa, Poda qishlog‘i va Baliqchi volostida ham qo‘zg‘olon ko‘tarilgan, oqsoqol, ellikboshilar olomon tomonidan o‘ldirilgan. Bunday qo‘zg‘olonlar Jalolquduq, Hakimobod, Izboskan va Yorboshi volostlarida ham bo‘lgan. Jalolquduq volostidagi So‘fi qishlog‘ida mahalliy ma’muriyat vakillaridan 5 kishi qo‘zg‘olonchilar tomonidan o‘ldirilgan. Bu ishda faol qatnashgan Mamarasulov, Hamanov, So‘fiyev va boshqa qo‘zg‘olonchilar qamoqqa olinib, sudga berilgan. 14 iyulda qo‘zg‘olonchilar Qorasuv stansiyasiga hujum qilganlar.

Farg‘ona viloyatidagi eng yirik qo‘zg‘olonlardan biri 10 iyulda Marg‘ilon shahrida bo‘lib o‘tgan edi. 20-25 ming kishidan iborat shahar aholisi O‘rda maydonida to‘planib mardikorlikka olishga qarshi ko‘tarildilar. Qo‘zg‘olonchilar mardikorlikka olish haqidagi farmonni tushuntirish va amalga oshirish maqsadida so‘zlamoqchi bo‘lgan politsiya boshlig‘i polkovnik Pexotin va mahalliy ma’muriyat vakillarini gapirishga mutlaqo yo‘l qo‘ymay, ularga hujum qilganlar. Polkovnik Pexotin esa to‘pponchani o‘qtalgan holda zo‘rg‘a to‘dadan qochib qolgan. Oqsoqollarni esa maydonda olomon kaltak, ketmon va toshlar bilan urib o‘ldirishgan. Qo‘zg‘olon vaqtida olomon tomonidan 8 kishi o‘ldiriladi. Shundan keyin xaloyiq turli joylarga tarqab ketadi. Ko‘p o‘tmay qo‘srimcha harbiy otrad kelib O‘rda maydoni va boshqa muhim joylarni egallaydi. Kun davomida shahar bo‘ylab qo‘zg‘olonning faol qatnashchilari qidirilib, ulardan 63 kishi qamoqqa olinadi. Jinlar qishlog‘ida esa qo‘zg‘olonchilar bilan jazo otradi o‘rtasida to‘qnashuv bo‘lib o‘tadi.

Yozyovon volostida ham qo‘zg‘olənlər bo‘lib, qo‘zg‘olənlərdən kishilar sud javobgarligiga tortilgan. Bu qo‘zg‘olənlərləarning xarakterli xususiyati shundaki, unda xotinlar faol qatnashganlar. Shuning uchun ham ular ustidan tergov qo‘zg‘atilgan. Masalan, CH.Madaliboyeva, CH.Nurmatova, M.Oxunova, M.Po‘latxojayeva va CH.Badalboyeva ustidan boshlangan tergov ishlari buni yaqqol tasdiqlaydi. Biroq chor ma’muriyati jamoat tazyiqidan cho‘chib ayollar ustidan olib borilgan tergovni pirovardida to‘xtatgan. Xalq qo‘zg‘olənləri Qo‘qon uyezdining ko‘p joylarida ham bo‘lib o‘tgan. Qo‘qon shahrining Arravon volostida xaloyiq adolatsizlik va zulmga qarshi ko‘tarilib volost hokimini kaltaklab o‘ldirganlar. Bu voqeanning sababi haqida Turkiston rayon muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i M.N.Bolkov o‘z raportida bunday yozgan: «Qo‘qon shahrida Arravon volost hokimi Ibrohimning o‘ldirilishi, u tomonidan aholining qattiq zulm ostiga olinishi natijasida sodir bo‘ldi. Volost hokimi mardikorlikka olish haqidagi buyruqni oliboq, bo‘lim mirzasi G‘ofir bilan maslahatlashib, chaqiriq ro‘yxatlariga barcha kishilarni kiritish va kim pul bersa, uni ro‘yxatdan o‘chirishga qaror qildilar. Bu ish uning o‘limiga sababchi bo‘lgan.

Ko‘rsatilgan bo‘lim mirzasi G‘ofir oyiga 25 so‘m maosh oladi. Biroq u keyingi ikki yil davomida Qo‘qon shahrida 6 ming so‘mga yaqin bahoda uy sotib oldi, o‘zi va ukasini uylantirdi, bunga 2000 so‘mdan ortiq sarflandi. Bundan tashqari, uning 1000 so‘m naqd puli bor. Farg‘ona viloyat volostlari hokimlarining ko‘pchiligi Arravon volost mirzasiga o‘xhash ish yuritadilar».

Bu hujjat qo‘zg‘olənlər mahalliy ma’muriyat vakillariga nima uchun hujum qilganlərini sababini yaqqol isbotlaydi. Zero, boshqa volostlarda ham mahalliy ma’muriyat vakillari zulmni oshirib yuborgan edilar. 10 iyul kuni kechasi Yangiqo‘rg‘on volostining Shayxmir qishlog‘i aholisi M.Azizov boshchiligidə oqsoqol N.Shoyusupovning uyini yondirgan. 8 iyulda qo‘zg‘olən uyezdining Katta Arg‘on qishlog‘ida bo‘lib xalq omması ellikboshi va boshqa amaldorlarning safarbarlikka yuborish harakatiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqib, ularni kaltaklagan. Bu kurashda bir necha kishi yarador bo‘lgan. Jazo otradi qo‘zg‘olənlərdən 10 kishini

qamoqqa olgan. Bu vaqtida Qaynar volostiga qarashli Naymancha qishlog‘ida ayollar ishtirokida qo‘zg‘olon ko‘tarilgan. 9 iyul kuni Arravon volostining Roziyog‘liq qishlog‘idagi aholining qo‘zg‘oloni jiddiy tus oladi. Mahalliy ma’muriyatningadolatsizligi va zulmidan sabr kosasi to‘lgan olomon volost hokimi J.Hasanboyev va uning hamrohlarini urib o‘ldirgan. Qo‘zg‘olonchilardan biri halok bo‘lgan. Qo‘zg‘olонни bostirish uchun yetib kelgan jazo otradi darhol olomonni qurshab olib, 316 kishini hibsga olgan. Bu qo‘zg‘olonda 2000 kishidan ortiq, erkak va ayol qatnashib, ular Arravon, Kaligor, Turkman, Chomoshbi va Barzangi kabi qishloqlar aholisidan tashkil topgan edi. Qo‘zg‘olonchilarning oldingi safida K.Ro‘ziboyev, M.Ahmadboyev, A.Toshmatov, M.Olimboyev, M.Boshnazarov va boshqa kishilar borganlar. Qo‘zg‘olonda qatnashgan ayollar: «o‘g‘illarimiz va erlarimizni ming so‘m berilsa ham mardikorlikka bermaymiz» deb xitob qilganlar.

Bu voqeanning ertasiga Ganjirovon qishlog‘i va uning atrofidagi joylarning aholisi birgalikda bosh ko‘tarib, 100 kishilik olomon volost hokimining uyiga bostirib kirib, mardikorlik ro‘yxatini va uy jihozlarini yondirganlar. Hokim esa qochib qutilgan. Jazo otradi 29 kishini qolmagan.

Qo‘zg‘olonlar tarixida Naymanchi qishlog‘idagi aholining ko‘tarilishi diqqatga sazovordir. Bunda ayollar jasorat va tashabbus bilan bosh ko‘tarib, olomonning birinchi safida turganlar. Shundan keyin jazo otradi zo‘rlik bilan ayollarni chetlatib, erkaklar bilan yuzma-yuz bo‘lgan. Shunda olomon orasidan otrad boshlig‘iga qarab toshlar otilgan. Bu qo‘zg‘olon ham bostirilgan. 11 iyuldan 12 iyulga o‘tar kechasi 400-500 kishilik olomon Tudin qishloq oqsoqolining qo‘lidan mardikorlik ro‘yxatini tortib olib kuydirgan. Bu vaqtida Rishton qishlog‘ida ham M.Boboxonov, SH.Hojiyev, P.Yo‘ldoshboyev va boshqa kishilar rahbarligida qo‘zg‘olon ko‘tarilgan. 400-600 kishilik olomon Qo‘qon uyezd boshlig‘i K.Medinskiyning tushuntirishiga qulq solmay, volost hokimi M.Jalolovga tashlanib uni o‘ldirmoqchi bo‘lganlar. Biroq hokim olomon orasidan qutqazib qoltingan. K.Medinskiy qo‘zg‘olonchilardan bir necha kishini ushlattirganligi olomonni yanada g‘azablantirgan. Natijada xaloyiq harbiy otradni qurshab ola boshlagan.

K.Medinskiy va uning hamrohlari, shu jumladan, mahalliy ma'muriyat qadamma-qadam quollarini o'qtalgan holda olomonning siquvi ostida chekina boshlaydi. Qo'zg'olonchilar ning bir guruhi K.Medinskiy otradining orqa tomonini to'sib oladi. Oqibatda harbiy otrad va ma'muriyat vakillari ketmon, tosh, kaltaklar bilan qurollangan olomon halqasida qoladi. Harbiy otrad o't ochganida qo'zg'olonchilardan I.Madaliyev, B.Parpiyev va S.Madaliyev yaralanganlar. Qo'zg'olon tarqalib, 12 kishi qamoqqa olingan.

Xalq g'alayonlari yirik qishloqlar bilan bir qatorda mayda qishloqlarni ham o'z ichiga olgan. Bunday hollarda 3-4 qishloq birgalikda harakat qilganlar. Masalan, Kudosh volostiga qarashli Qirqketmon, Beshkapoyon va Beshkallaobod qishloqlaridagi xalq ommasining qo'zg'olonlari shular jumlasidandir. 500-600 kishidan iborat olomon Sudosh qishlog'iga to'planib, volost hokimini o'ldirmoqchi bo'lib, qidirganlar. Ellikboshi va uning o'g'lini kaltaklaganlar hamda ellikboshining uyini buzib, mol-mulkini talaganlar. Harbiy otrad tomonidan qo'zg'olon qatnashchilaridan 18 kishi hibsga olingan.

Qishloq aholisining qo'zg'olonlari oqibatida temir yo'l va stansiyalar, telefon va telegraf simlari xavf ostida qolgan. Shuning uchun ham Qo'qon jandarmeriya boshlig'i temir yo'lga yaqin joyda aholi to'planib Gorchakov stansiyasini egallash, telefon va telegraf orqali aloqani buzishga shaylanayotganliklari haqida Фапг'она viloyat general-gubernatorligiga ma'lum qilgan edi. Qo'zg'olonlar bostirilgan bo'lsada, lekin ular chor ma'muriyat vakillarining mavqeiga keskin zarba berib dovdiratib qo'ygandi: «Keyingi kirlardagi g'alayonlar, — deb yozgandi Qo'qon uyezdining boshlig'i K.Medinskiy, — aholi orasida mahalliy ma'muriyatning mavqeini ancha pasaytirib qo'ydi. Mahalliy ma'muriyat haddan tashqari asabiylashgan bo'lib, o'ziga ishonchini yo'qotmoqda. Musulmon bayramining birinchi kunida (18 iyul) umumiyligi qo'zg'olon ko'tarilishi to'g'risida qatyiy so'zlar eshitilmoqda. Xavfsizlikni ta'minlash uchun Qo'qon shahar garnizonini tezda kuchaytirish lozim». Shuningdek, bu hujjatda temir yo'llarning xavfsizligini ta'minlashni kuchaytirish bayon etilgan. Xalq g'alayoni Namangan uyezdida ham keng ko'lamda o'tgan edi. 9 iyulda erkak

va ayollar ma'muriyatning mardikorlikka olish haqidagi farmonini tan olmasliklarini bildirganlar. Ma'muriyatning qo'zg'oltonni tarqatib yuborishga qaratilgan harakatlari hech qanday natija bermaydi. Aksincha, xalq ommasi tobora kuchayib boradi. Shundan keyin pulyomotlar bilan qurollangan harbiy rota chaqirilib, olomonni qo'rqtish chorasi ko'riladi. Biroq qo'zg'olonchilar ro'yxatlarning berilishini qat'iy turib talab qiladilar. Shu tarzda ertalabdan kech soat 11 gacha shahar maydonida qo'zg'olonchilar harbiy rota bilan ro'para turaveradi. Olomon orasidan «ur» degan so'zlar yangrab, xalq rotaga tashlanadi. Soldatlar pulemyotlardan o'q uzib qo'zg'olonchilardan 12 kishini o'ldiradilar va 38 kishi yaralanadi.

Namangan uyezdi boshlig'i P.R.Krashkovning ko'rsatishicha yarador bo'lган qo'zg'olonchilar ularga «Bu hech narsa emas, baribir biz o'z maqsadimizni amalga oshiramiz», deb xitob qilganlar. Qo'zg'olon vaqtida katta va kichik oqsoqollar, qozilar, politsiya, umuman ma'muriyat vakillarining hammasi o'ldirilishi haqida xitoblar eshitilib turgan. Qonli to'qnashuvlardan keyin qo'zg'olon tarqalib, uning faol qatnashchilaridan M.Boyjonov, A.Roziqboyev, B.Mirzayev, I.Xalfayev singari jami 19 kishi qamoqqa olingan:

12 iyulda uyezdning Uychi qishlog'ida qo'zg'olon ko'tarilgan. Qo'zg'olonchilar U.Bobojonov va A.Xamanboyxojayev boshchiligidagi ellikboshini urib o'ldirganlar. Bu harakatda M.Qayumov, A.Muxtorov, M.Abdurahimov va M.Abdukarimov kabilar faol qatnashganlar. Bu kishilarning bari qamoqqa olingan.

12 iyulda Olmos qishlog'ida erkak va ayollar birgalikda bosh ko'tarib mahalliy ma'muriyatning adolatsizligiga qarshi kurashdilar. Ular qishloq oqsoqoli M.Abdurahimov va uning yonidagi hamrohlarini kaltakladilar. Bu xildagi harakat Jarqo'rg'on qishlog'ida ayniqsa avjiga chiqadi. 11 iyulda bu qishloqda 1000 ga yaqin odam to'planib, ular mahalliy ma'muriyat yig'ilgan boloxonali uyni qo'rshab olib ro'yxatlarni berishni talab qiladilar. Qishloq oqsoqoli Tojiboy ro'yxatlarni olomon o'rtasiga tashlashga majbur bo'ldi. Bu hujjalalar darhol yo'q qilinadi. Biroq qo'zg'olonchilar bu bilan qanoatlanmay boloxonaga bostirib kirib, volost hokimini pastda turgan olomonga uloqtiradilar. Olomon oqsoqolni kaltaklab o'ldiradi. Shundan keyin volost hokimi uyiga borib, uni xonavayron qilib

tashlaydi. Qo'zg'olon kunduzgi soat 3 dan kech soat 6 gacha davom etadi. Uni tashkil qilishda M.Mirkarimboyev, A.Xojayev, M.Mamatqulov, A.Yusupov, I.Hojiyev, M.Xojamberdiyev, M.Nurmatov, N.Berdiboyev, B.Hojiyev, M.Nazarov, P.Nahorboyev, YU.Sayitboyev va M.Rayimboyev singari kishilar jonbozlik ko'rsatganlar.

Uyezdning Pashkaran, Uychi, Xojaobod, Uyg'ur, Toshqo'r-g'on va Barzik qishloqlarida ham aholi bosh ko'tarib amaldorlarning uylariga hujum qilgan va ro'yxatlarni yondirganlar. Uychi qishlog'ida 500 kishilik olomon ellikboshini o'ldirgan. 14 iyulda uyezdning Chindovul qishlog'ida katta qo'zg'olon bo'lgan. 1000 kishiga yaqin xalq ommasi ma'muriyatning safarbarlik haqidagi tushuntirish so'zlariga qulq solmay, norozilik bildirganlar. Qo'zg'olonchilar politsiyachilarni qurshab olib ro'yxatlarni yo'q qilganlar. Natijada A.Dadaboyev, M.Hojiyev, T.Qalandarov, M.Usmonquliyev, M.Sodiqboyev, M.Karimboyev, R.Razzoqov, M.Mirsaidov, T.Qilichboyev, U.Sodiqov, A.Shoyusupov, X.O'rozqulov kabi 50 nafar faollar sudga berilgan.

15 iyulda uyezdning Chodak qishlog'ida ko'tarilgan qo'zg'alon ham diqqatga sazovordir. Ko'p sonli olomon volost hokimi M.Xudoyberdiyevning uyiga bostirib kirgan, uni tepkilagan. Ketmon, tosh, tayoq va boltalar bilan quollangan xalq SH.Toyirboyev, M.Karimov, M.Ashirmatov, M.Marajonov va boshqalar ma'muriyat vakillarini ham kaltaklagan. Qo'zg'olonchilar orasida ayrim kishilarda to'pponcha ham bo'lgan. Ular qishloq oqsoqoli N.Aminovning uyi va bog'ini xonavayron qilib tashlaganlar. Shuningdek, oqsoqolning 15 ming so'm puli va 10 ming so'mlik qarzdorlik hujjatlari, 10 ming so'mlik uy-jihoz asboblari, mollari yo'q qilingan. Oqsoqolning o'zi O'sh shahriga qochib qutilgan.

Qo'zg'olonning faol qatnashchilaridan 90 kishi qamoqqa olingan. Masalan, J.Karimboyev, A.Abduraimov, YU.Mashari pov, N.Hojiyev, YU.Amirmatov, S.Polvonov, B.Qoriyev, A.Xojayev, S.Nazarov, N.Jalolov, M.Madiyorov, SH.Toshboyev, A.Jalilov, S.Doniyorboyev, I.Mirzaboyev va boshqa faollar sud qilingan.

17 iyulda Yuqori Asht qishloq aholisi soliq va zulmga qarshi qo'zg'alib volost hokiminining uyini yondirib yuborgan. Hokimni

urib o'ldirgan. Bu voqeada B.Sarimsoqov, T.Mamatqulov, M.Mansurov, M.Mo'minov, I.Boymatov, I.Nig'matullayev, A.Abduqodirov, S.Hamdamov, K.Fozilov kabi jami 27 kishi katta jasorat ko'rsatganlar. 25 iyul kuni xalq ommasi Uychi volostiga qarashli Yorqo'rg'on qishlog'ida qo'zg'olon ko'targan. Bu yerda olomon oqsoqollardan ro'yxatlarni berishni talab qilib, ularni toshbo'ron qilganlar. Bu voqeadan so'ng T.Xoliqov, B.Mirzaboyev, A.Hasanboyev, A.Tolipov, SH.Ustaboyev, U.Mo'minov, U.Yo'Idoshboyev, A.Otaboyev singari 20 dan ortiq kishilar qamoqqa olingan.

Quyi Asht qishlog'idaga qo'zg'olon ham fojiali bo'lgan. Qo'zg'olonchilar 17 iyulda bolta, pichoq, tayoq va toshlar bilan qurollanib volost hokimi M.Alimboboyevning idorasini buzishgan, qarshilik ko'rsatgan rasmiy kishilarni o'ldirganlar. Shundan keyin ular hokimning uyiga borib, uni xonavayron qilgan va mol-mulkini yondirganlar. Qo'zg'olonchilar bu bilan ham qanoatlanmay hokimning tog'asi U.Alimboyevni kaltaklab zambilda maydonga olib chiqishgan va bu yerda uni o'ldirishgan. Shuningdek, ular hokimga tegishli do'konlarni ham buzib tashlaganlar. Hammasi bo'lib hokimning 50 ming so'mdan ortiq mol-mulki talangan. Qo'zg'olon paytida K.Xojayev, SH.Tursunboyev, A.Hamdamov, K.Mirzaboboyev, M.Polvonov, A.Mullajonov, I.Nazarov, M.Marajonov, I.Abdurahmonov, M.Hojiyev, X.Aminov singari ko'plab olovqalblar oldingi safda bo'lganlar. Qo'zg'olonda ayollar ham erkaklarga madadkor bo'lganlar. Qo'zg'olonchilardan U.Toshimatova, Nuriniso Tursunova va Hamrobibi Aminova singari jasoratli onalar amadaldorlarni o'ldirishda va ularning uylarini buzishda bevosita qatnashganlari uchun qamoqqa olinib, sudga berilgan. Bu qahramon ayollar bilan bir qatorda qo'zg'olonda boshqa ayollar, jumladan, T.Muhamadsafoyeva, B.Bo'riboyeva, X.Nosirova, R.Shaxyorova, I.Madazimova, S.Sherboyeva, T.Shoyusupova, SH.Muhammadg'oziyeva, V.Madaliyeva ham bo'lishgan. Shu sababli ular qamoqqa olinib, tergov qilinganlar.

Chor hukumati o'lkada ushbu qo'zg'ololarni bostirish uchun 14 ta batalyon, kazaklarning 33 ta harbiy bo'limini safarbar qilgan. Ularda 42 ta to'p va 69 ta pulemyot bo'lgan. Jazo otradlari nihoyatda shafqatsizlik bilan harakat qilganlar. Bu haqda general-gubernator

P. Kuropatkining rus imperatori Nikolay II ga yozgan raportida shunday jumlalar bor: «Siz imperator oliy hazratlari va barchaga muqaddas vatan hisoblangan buyuk Rossiya oldida o‘z sadoqatini unutganligi va jinoiy ishlar qilganligi uchun Turkiston aholisi qattiq jazolandi». Qo‘zg‘olon qatnashchilaridan 3000 dan ortiq kishi sudga berilib, ulardan 347 tasi osib o‘ldirishga hukm qilingan. Biroq vaziyatning yanada keskinlashmasligi uchun ulardan 51 tasi qatl qilinib, qolganlari o‘lim jazosi, qamoq va surgun bilan almashtirilgan. Yuzlab odamlar turli muddat bilan qamoqqa mahkum etilgan. Ayrim shahar va qishloqlar butunlay yakson qilingan. Ko‘plab uylar kuydirilgan va mol-mulki talangan. Ayniqsa, Jizzax qo‘zg‘olonchilariga nisbatan vahshiylarcha munosabatda bo‘lishgan. Buni qo‘zg‘olon qatnashchilarining xotirlaridan ham anglash mumkin. Jizzax g‘alayoni ishtirokchisi To‘ra Norboy bunday deydi; «Jazo otradlari tog‘da qochib yurib, och qolib, qishloqdan ovqat olib kelish uchun tushgan Mavlon Aymatovni ushladilar. U bilan yana 7 kishini ushlab daraxtlarga bog‘ladilar. O‘n kungacha har kuni bir bor kaltaklab, ustidan suv quyib turdilar. Soldatlar qishloqdan ketadigan bo‘ldilar. Shunda ular bu 7 kishini kaltaklab o‘ldirib ketdilar». Qo‘zg‘olon qatnashchilaridan biri Muqim O‘rdushov Toshkentga qochib ketadi, so‘ng Jizzaxga qaytib kelgach ko‘rganlarini quyidagicha so‘zlagan: «Toshkentdan Jizzaxga keldim. Kechasi stansiyaga yetib, namoz vaqtida shaharga tushib ketdim. Yo‘lda ko‘p soldatlarni ko‘rdim. Ularning yonida xalqdan talab olingan qimmatli ro‘zg‘or ashylari uyilib yotardi. Soldatlar qimmatli ipak so‘zanalarni, atlas vashoxi ko‘rpalarni otlarga yopib qo‘ygandilar. Ipak gazlamalarni shoxi ko‘rpalarni tuproqqa yozib ustida ag‘anab yotardilar. Hovliga chiqsalar ham shohi va atlas ko‘rpalarni yopinib olardilar. Yo‘llarda, uylar yonida xalqdan talab olingan minglarcha otlar, mollar va qo‘ylar turardi. Oyoq ostida bosilib yotgan qimmatli narsalarni ko‘rib juda rahmim keldi. Eski shahar yo‘lida ketayotganimda yangi shaharga qarab qator-qator ketayotgan xotin-qizlarni ko‘rdim. Ular mendan «Soldatlar talab ketgan narsalarni qaytarib berayotgan emish, deb eshitdik, shu to‘g‘rimi?» deb so‘radilar. Men buni ko‘rma-ganligimni aytdim. Eski shaharga tushsam, eng yaxshi binolar,

mahallalar, shahar ko'chalaridagi timlar, do'konlar, oshxonalar va choyxonalar kuyib, yer bilan tep-tekis bo'lgan ekan. U yerlarda boyo'g'li sayramoqda. Xalq och va yalang'och, juda og'ir ahvolda. Bu ahvolni ko'rib, ko'p achindim».

«Bir kuni, — deydi qo'zg'olon ishtirokchisi Mamasharif Husainov, — shahar atrofini soldatlar o'rab, har hovliga besh-oltitadan bo'lib kiraverdilar. Odamlarni urib-so'kib uylaridan quvlab chiqardilar. Beshikdag'i bolalarni yechib olishga qo'ymadilar. Xalqni bozor maydoniga to'plab, yosh va jinslariga qarab to'dalarga ajratdilar. Atroflariga to'p va pulemyotlar o'rnatdilar. Soldatlar ba'zi odamlarni qulog'idan burab to'p og'ziga olib borib keyin qo'yib yubordilar. Ba'zilari odamlarga qarab miltiqlarini sharq-shurq qilib qo'rqtildilar. Odamlar orasida Oq podsho Jizzax xalqini otib yuboradi, endi hammamizni otar ekan, degan gap tarqaldi. Xalqni vahima bosdi. Xotinlar va bolalar yig'ladi. Soldatlar ularni miltiq qo'ndog'i bilan urdilar. Bir vaqt yangi shahardan bir otliq askar chopib kelib: «Siz makkor Jizzax xalqi podshohi a'zamning oliv farmoniga itoat qilmaganliklaringiz uchun podshohi a'zam sizlarni otuvga buyurgan edi. General-gubernator Kuropatkin sizlarning gunohlaringizni oq podshodan tilab olibdilar. Sizlar endi bu shaharda yashashdan mahrum bo'ldingiz. Sizlarni shahardan 25 kilometr nariga surgun qilamiz, dedi. Soldatlar, mingboshi va politsiyachilar xalqni uch tomonga bo'lib haydadilar. Kun benihoyat issiq, hamma yoqni chang-to'zon qoplagan, eski shaharga keladigan suv yangi shaharda bo'g'ib qo'yilganligi uchun hech joyda suv yo'q. Bizlarni soldatlar qoqib oldi. Yana yogurtirdi. Chopolmay yiqilganlarni miltiq qo'ndoqlari bilan urdilar. U vaqtagi dod-voy olamni tutar edi. Yosh bolalar suvsizlikdan yuragi kuyib, o'lib qolaverdi. Homilador xotinlar tug'ib yetibdi, soldatlar ularga qarashga yo'l bermaydi. Soldatlar yugurishdan bosh tortganlarni otdilar. Yugurib ketayotgan xalqni yana to'xtatib, qo'llaridagi uzuklarni, quloqlaridagi sirg'alarini yulib oldilar. Shu ravishda cho'lga yetib borguncha necha joyda tekshirib, to yaxshi kiyimlargacha yechintirib oldilar. Bizlarni shunday azob-uqubatlar bilan shom paytida Qilich cho'liga olib borib tashlab qaytdilar. Odamlarda ovqat ham, ko'rpa-yostiq ham yo'q edi. Hamma och

va suvsiz qoldi. Kechasi biz qishloqlarga borib, ovqat olib kelib hammaga oz-oz ulashib turdik. Bir to‘p odamlar och qolib, kasallikdan o‘ldilar. 10 kundan keyin bizga shaharga kelishga ruxsat berishdi».

Bayon etilgan satrlarda asosan qo‘zg‘olonchilarning ota-onalari va oila a’zolariga qilingan azob-uqubatlar haqida fikr yuritilgan. Qo‘zg‘olonchilarning o‘zlariga nisbatan qo‘llanilgan jazolar bundan ham qattiq bo‘lgan. Jizzaxda qo‘zg‘olon ko‘tarilganligi ro‘kach qilinib, 2000 hektar unumli yer rus davlati foydasiga musodara qilingan. Shu tariqa dehqonlar hayotining asosiy manbai hisoblangan yerdan mahrum etilgan. Ayni paytda qo‘zg‘olonchilarning tashabbuschilari osib o‘ldirilgan. General-gubernator A.N.Kuropatkin belgilangan jazo choralarini quyidagicha ta’riflagan edi: «Tub aholi shuni yaxshi bilsinki, rus qoni to‘kilgan taqdirda aybdorlar osib o‘ldiriladi va ularning yerlari, Andijon (Dukchi eshon) qo‘zg‘oloni ishtirokchilariga nisbatan qilinganidek, tortib olinadi. Bu har bir g‘alayondan keyin qat’iy ravishda qo‘llanilayotgan tartib tub aholini rus hukumatiga qarshi quroq ko‘tarmaslikka majbur etishi lozim».

Boshqalarga ibrat bo‘lishi uchun, birinchi navbatda, qo‘zg‘oloning eng avj nuqtasi bo‘lgan Jizzax shahri yer bilan yakson qilindi. Bunday fofia qo‘zg‘olonchilarning esdaliklarida ham o‘z ifodasini topdi:

Taxta ko‘prik bitdimi?
Nikolay podsho o‘tdimi?
Jizzax shahrini vayron qilib
Murodiga yetdimi?
Osh kadi, Palov kadi,
Tomga chiqib dod ayladi.
Namozgohni soldat bosib,
Jizzaxni soldat vayron ayladi.

Yuqori tabaqa vakillariga kelsak, umuman olganda, ular qo‘rroqlik va loqaydlik qilib qulay fursatdan foydalana olmadilar. Natijada xalq g‘alayonlarida aniq dasturga ega bo‘lgan kuch-rahbar topilmadi. Shuning uchun tosh, g‘isht parchasi, tayoq, bolta, temir-tersak va boshqa oddiy narsalar bilan qurollangan xalq miltiq, to‘pponcha, qilich, pulemyot va to‘plar bilan qurollangan imperiya qo‘sishlariga qarshi o‘zlarini bilganicha kurash olib bordilar. Jazo

otradlarining vahshiyligi o'lkada juda xatarli va xavfli vaziyatni yuzaga keltirdi. Bundan vahimaga tushgan mahalliy tabaqa vakillari va ziyorolar vaziyatni yumshatish, tinchlikni ta'minlash maqsadida mardikor olishga qaratilgan farmonni amalga oshirishga yaqindan yordam berishga ahd qildilar. Hatto ular chor ma'muriyatidan «avom xalq» qo'zg'olon ko'targanliklari uchun kechirim so'rashgacha borib yetdilar.

O'zbek tilida chiqadigan «Turkiston viloyati» ro'znomasining sahifalarida rus imperatorini ko'klarga ko'taruvchi va mardikorlikka borish har bir kishining vatan oldidagi burchi ekanligi haqida she'r va maqolalar chop etildi.

Shuningdek, mahalliy ma'muriyat, milliy burjuaziya va ziyorolar vakillari boshchiligidagi «mahalliy yordam qo'mitalari» tuzildi. Ular mardikorlarni to'plashga va jo'natishga ko'maklashish bilan bir qatorda jamoadan mardikorlar ehtiyoji uchun mablag' ham to'pladilar. Qahatchilikdan va chor jazo otradlarining qirg'inlaridan nihoyatda toliqqan xaloyiq qayta qo'zg'olon ko'tarishga holi qolmadı. Bayon etilgan qulay fursatlardan foydalangan chor hukumati imperator farmonini amalga oshirishga qatyiy ravishda kirishdi.

1916 yilning 23 avgustida L.N.Kuropatkin mardikorlikka safarbar qilish tadbirlari haqida buyruq chiqardi. Bunda mardikorlikka olinadigan odamlarning soni quyidagi tarzda taqsimlandi: Sirdaryo viloyatiga - 60.000, Samarqand viloyatiga - 32407, Farg'ona viloyatiga - 51233, Yettisuv viloyatiga - 4300 va Kaspiy orti viloyatiga - 13830 kishi belgilandi. Shunda mardikorlikka olinadiganlarning jami soni 200470 kishini tashkil qildi. Safarbarlik 1916 yilning 18 sentabridan to 1917 yilning fevral burjademokratik revolutsiyasi g'alabasi davrigacha davom etdi. Mardikorlar Moskva, Peterburg, Ryazan, Tula, Oryol, Smolensk, Penza, Bryansk, Dvinsk, Nijniy Novgorod, Qozon, Samara, Perm, Yekaterinburg (Sverdlovsk) Orenburg, Kiyev, Xarkov, Yekaterinoslav, Odessa, Zaporoyje, Kerch, Tiflis, Batumi va boshqa joylarga olib borib o'rnashtirildi.

Chor ma'muriyati belgilangan 200470 kishi o'rniga 123 mingdan ortiq mardikorlarni safarbar qilishga muvaffaq bo'ldi. Ulardan 101.600 kishi — Rossiyaning Ovrupo qismiga, 4000 kishi — Sibirga, 7.405 kishi Kavkazga joylashtirilgan. 10 mingdan

ortiq kishilar Turkiston o'lkasida ishlatilgan. Mardikorlar harbiy va oddiy sanoat korxonalarida, konlarda, temir yo'llar qurilishlarida, o'rmonlarda, ayrim kapitalistlarning xo'jaliklarda qattiq ishlatildi. Ular ochlikdan, xo'rlikdan va mashaqqatli mehnatdan ko'p azob-uqubatlarni boshlaridan kechirdilar. Ularning orasida sovuq urishdan va turli kasallardan o'iganlar va nogiron bo'lib qolganlar bor edi. O'zbek mardikorlarining hayoti og'zaki ijod namunalarida quyidagicha tasvirlangandi:

Poyezdingizni jildirgan,
O'txonasi bilan do'ngalagi,
Dvinskaga ketishdi
Mard yigitning bir bo'lagi.
Dvinskaga ketmas edi
Mard yigitning bir bo'lagi,
Dvinskaga ketkazgan,
Nikolay zolimning zambaragi.
Dvinskaga yo'l bo'lsin,
Qarag'ayzoring kul bo'lsin,
Nikolaying yo'q bo'lsin.
So'k oshini ichmayin,
Etigimni yechmayin.
Qorda qarag'ay kesganman
Hech haqimdan kechmayman...

Mardikorlarning og'ir hayoti quyidagi misralarda ham o'z ifodasini topgan:

Unda bordik, shunda keldik,
Penza degan shahriga,
Yarmimiz chor pitida qoldiq
Oyoqlarimizdan sovuqlar o'tdi.
To'xtamas ko'zdan yosh,
Sho'rpa deb loyqa suv berdi.
Bir kishi icholmadik.
Qora non achchiq ekan,
Uch kungacha yemadik.

Lekin o'zbek mardikorlari mashaqqatli va og'ir hayotning asiri bo'lib qolmay kurash olib bordilar. Ular bir necha marotaba ish

tashladilar va harbiy otradlar bilan to‘qnashgan vaqtłari bo‘ldi. Ular fevral burjua demokratik inqilobidan keyin o‘z vataniga qaytishga erishdilar.

1916 yilgi qo‘zg‘olon Rossiya imperiyasiga, xususan, mustamlakachilik siyosatiga va milliy zulmga qarshi qaratilgan umumxalq harakati sifatida namoyon bo‘ldi. U 1892 va 1898 yilgi qo‘zg‘olonlarning uzviy davomi hisoblanib mustaqillikni va ozodlikni tiklashga qaratilgan edi. Biroq ma’lum dasturlar va rejalar asosidagi rahbarlikning, uyushqoqlikning va o‘zaro aloqalarning yo‘qligi natijasida qo‘zg‘olonlar mag‘lubiyatga uchradilar. Qo‘zg‘olonchilarda zamон talabiga javob beradigan qurol-aslahalarning yo‘qligi ham imperiyaning qudratli qo‘siniغا qarshi jang qilish imkonini bermadi.

Garchand, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi milliy-ozodlik harakatlari mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, lekin ular milliy his-tuyg‘ularni shakllantirishda, o‘z-o‘zini anglashda hamda mazlum xalqning siyosiy faoliyatini o‘stirishda muhim o‘rin egalladi.

Ularning aks sadosi avlodlar qalbida o‘chmas iz qoldirib, Rossiya imperiyasiga qarshi kurashlarning ramzi sifatida o‘z tarixiy ahamiyatini yo‘qtgani yo‘q.



FARG'ONA VODIYSIDAGI 1916 YIL QO'ZG'OLONI QATNASHCHILARINING XOTIRALARIDAN⁵

(1956 yilda yozib olganman)

Laylayev Mavlon

Tug'ilgan yili - 1884

Tug'ilgan joyi - Marg'ilon shahri, Toshmozor mahallasi

Millati - o'zbek

Otasining kasbi - qassob

O'zining kasbi - chorakor, mardikor, g'isht teruvchi

Turar joyi - Farg'ona shahri, Sadovaya ko'chasi, 11-uy.

Laylak ismli otam qassobchilik bilan shug'ullanib mening go'dakligim vaqtidayoq o'lib ketgan ekan. Shundan keyin bechora onam uch bola bilan beva qolib, boylarning eshigida cho'ri sifatida ishlab, ko'p mashaqqatlarni boshimizdan kechirganmiz. Otamning vafotidan 7-8 yil o'tgandan so'ng, onamni bir chorakor xotinlikka oldi.

Sovet davrida mustaqillik va ozodlik uchun kurash haqida gapirish

⁵ Covet davrida vatan mustaqilligi va ozodligi uchun kurash so'zini ishlatish taqiqlangani tufayli qo'zg'olon qatnashchilarining bu haqdagi fikrlari kiritilmagan edi.

va nashr etish taqiqlanganidi. Shu bois qo'zg'olonchilarning bu haqdagi dil so'zları qog'ozga tushirilmagan edi.

Men yoshligimga qaramasdan, o'gay otam bilan birgalikda Matmusaboyning yerida chorakorlik qildik. Bizning hayotimiz juda og'ir bo'lganligi uchun hamma vaqt yo'qchilikda va azob-uqubatda yashadik. Mingboshilar, sudxo'rlar va boshqa boy kishilar bizlarni «hayvon» kabi ishlatib, haddan tashqari qattiq ezganlar. Men chorakorlikdan ko'pincha bosh tortib, shaharda hammolchilik, g'isht quyish, ko'cha supurish va boshqa shunga o'xshash ishlar bilan shug'ullanar edim. Lekin, har qanday harakatlarimga va ishlashimga qaramasdan, qornim nonga to'ymas, ustim kiyimga yolchimas edi. Goh qishloqda o'gay otamnikida, goh shaharda o'zimga o'xshash o'rtoqlarimnikida turib hamma vaqt sarsonlikda umr kechirganman. 1916 yil ro'za oyi kunlaridan birida qishloqdan shaharga tushganimda, kambag'allarni mardikorlikka olar emish, deb eshittdim. Bu xabar faqat meni emas, balki hamma kishilarning ham g'azabiga g'azab qo'shdi. Buning natijasida zolimlarga qarshi bosh ko'tarish va mardikorlikka bormaslik uchun kurashish kambag'allarning birdan-bir tilagi bo'lib qoldi. Ertalab O'rda tagiga taxminan 20 mingga yaqin kishilar yig'ildi. Bu yerga tez orada chor hukumatining amaldorlari va mahalliy boylar qo'llarida qog'oz ushlagan holda yetib keldilar.

Ular O'rda tagidagi choyxonaning baland supasiga chiqdilar. Shundan keyin Mahmudbek mingboshi xalqqa qarab «osmon baland, yer qattiq», shuning uchun hech qayoqqa bizdan qochib qutulolmaysizlar, «biz sizlarni nima qilsak, qilaveramiz», «mardikorlikka borishlaringiz shart» deganda, bizlar unga qarab: «Sen zolim o'zing bor», «To'ng'iz Mahmud mingboshi yo'qolsin!», «Biz bormaymiz» va «Ur!» deb baqirdik. Shundan keyin olomon boshlanib, boylarga qarshi hujum qilindi. Men ham zolim mingboshilardan alamimni olish payti keldi deb, ularga hujum qildim. Men birinchi bo'lib Mahmudbek mingboshini yerga yiqitib «endi qo'lga tushdingku!» deb ikki qo'lim bilan tomog'idan bo'g'ganligim uchun xirillab ovozi chiqmay qoldi. Shu ondayoq olomon mingboshini bolta, tosh va g'ishtlar bilan urib o'ldirdilar. Shundan keyin men bir to'da hamrohlarim bilan «Mahmud-

bekning uyini kuydiramiz va mol-mulkini talaymiz», deb ketdik. Qo‘zg‘olonchilarning oldingi safida men ketayotgan edim. Shuning uchun yo‘lda Hamid nomli mirshab menga o‘q uzdi, ammo o‘q menga tegmadi. Hamrohlarim bilan birga mirshabning oldiga borib, uni otdan yiqitdik va boshini yerdagi toshga urdik. Olomon Hamid mirshabni ham tosh va g‘ishtlar bilan urib pachaqlab tashladilar. Boshqa bir o‘rus mirshabi qilayotgan ishimizning ustiga kelib qolib, menga qilich soldi va bo‘ynimni yarador qildi. Darhol o‘rtoqlarim bo‘ynimga tuproq sepib, belbog‘ bilan bog‘lab qo‘ydilar. Urus mirshabi esa qochib qutuldi. Biz Mahmudbek mingboshining uyiga borib, butun mol-mulkini taladik. Men o‘z o‘rtoqlarimga mingboshi uyidagi kiyim ilinadigan chiroyli qilib ishlangan uzun dorpechlarni ham olishlarini buyurdim. Natijada, Mahmudbekning uyida hech narsa qolmadи desa bo‘ladi. Shundan keyin men Aqshaq qishlog‘iga, o‘gay otamnikiga qochib ketdim. Ertasiga shaharga qovun sotishga tushgan bir dehqon shaharda mirshablar meni axtarib yurganliklarini va agarda meni topib berishmasalar, shahar aholisining hammasini o‘lim jazosiga tortishlari to‘g‘risida xabardor qildi. Bu xabarni eshitib, bitta men sababli shahar xalqi qirilmasin deb, ixtiyoriy ravishda shaharga tushdim va qamoqqa olindim. Yangibog‘dagi mahkamada mening oyoq-qo‘llarimni bog‘lab, o‘n bir marotaba askarlar yerga koptok singari urdilar. Men hushimdan ketib qoldim. Boshqa qo‘zg‘olonchilar ham men singari rahmsiz jazolandi. Yangibog‘dagi mahkamada uchta o‘zbek xotini qo‘zg‘olonga faol qatnashganligi uchun qamalgan edilar. Bu yerda qilich bilan jarohatlangan bo‘ynim og‘irlashdi. Shuning uchun meni harbiy kasalxonaga yubordilar va bir oz tuzalganidan keyin hammamiz sud qilinib, men 15 yilga kesildim. Oyoqlarimizni kishanga soldilar va meni Sibirga surgun qildilar. Bu yerdan 1917 yildan keyin o‘z vatanim Marg‘ilonga qaytib keldim.

Razzoqov Rahmon

Tug‘ilgan yili - 1890

Tug‘ilgan joyi - Marg‘ilon uyezdi Yakkatut qishlog‘i
Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - arava ustasi.

O'zining kasbi - otasiga yordamlashgan, shogird.

Turar joyi - Farg'on'a viloyati, Toshloq tumani, Birlik qishloq kengashi.

1916 yilgi qo'zg'olondan oldin men tug'ilib o'sgan Yakkatut qishlog'ida paxta, boshqoli donlar va sabzavot ekinlari yetishtirilar edi. Ekin maydonlarning ancha qismi Mansurxo'ja mingboshi, Saidahmadxo'ja va Mamajon kabi boylarning qo'lida edi. Bu boylarning yerlarida dehqonlar chorikor sifatida ishlaganlar. Chorikorlar timmay ishlashlariga qaramasdan, hech vaqt o'z hayotlaridan mamnun bo'lmanalar. Chunki yer egasi bo'lgan boy chorikor mehnat qilib yetkazgan hosilning ko'p qismini o'ziga olib, uning juda oz qismini chorikorga berar edi. Shuning uchun chorikor juda og'ir hayotda yashagan. Chorikorlar muhtojlik natijasida boylardan qarz olishga majbur bo'lganlar. Ammo, ular o'z qarzini to'lolmay, boyning qarzdorlik kishaniga tushib, boyning yerida xuddi qul kabi ishlashga majbur bo'lgan. Yakka xo'jalikka ega bo'lgan mayda dehqonlarning ahvoli ham juda og'ir bo'lgan. Og'ir soliqlar va hosilning ko'pincha unumsiz bo'lishi natijasida dehqonlar qarzdor bo'lib qolar edilar. Lekin bunday dehqonlar ham qarzlarini berolmay, xonavayron bo'lganlar. Chunonchi, boylar qarz olgan dehqonlarning yerlarini, mol-mulklarini o'zlariga majburiy ravishda tortib olish yo'li bilan bergan qarzlarini undirganlar. Masalan, qishloqdag'i G'ozibekov Hoshimbek nomli boy kambag'al dehqon Ismatullayev Qirg'izning yerini o'z qarzini hera olmaganligi uchun tortib olgan. Shunday yo'l bilan Mansurxo'ja mingboshi ham kambag'al dehqon Haitov Xolmirzaning yerini o'ziga qaratib olgan edi. Qishloqda kambag'allarga tutun puli, suv puli, tanob puli va boshqa bir qator soliqlar solingan. Umuman aytganda, 1916 yilgi qo'zg'olon arafasida qishloq va shahar aholisining turmush hayoti juda yomonlashib, mehnatkash omma zulmga qarshi kurashish uchun yetilib turgan edi.

Ana shunday bir paytda rus hukumatining podshosi o'zbeklardan imardikorlikka olmoqchi bo'lib farmon chiqardi. Bu farmon ma'lum bo'lidan keyin kambag'allarni shu darajada qo'zg'atdiki, hatto

xotin-qizlar va yosh bolalar butun kechasi bilan uqlamay, o‘z otalari, akalari to‘plangan joylarda qatnashib nafrat va g‘azab bilan yig‘lab o‘tirdilar. Men turgan qarindoshlarimning mahallasida kechasi bilan shovqin-suronlar bo‘lib: «Chor hukumati va mingboshilarning uyi kuysin!», «Boylarning padariga la’nat!», «Mardikorlikning zulmini ham biz kambag‘allar tortamizmi?» deyishib, zolimlarga qarshi ochiqdan-ochiq bosh ko‘tarishga qaror qildilar. Men ham bularning harakatiga qo‘silib, qo‘zg‘olonda qatnashdim. Chunki, mingboshilarga va boylargaga boshqalar bilan bir qatorda meni ham alamim bor edi. Chunonchi, otam soliqlarni to‘lashi bilan birgalikda mingboshi va boshqa boylargaga tegishli aravalarni tuzatganda, ular otamga ish haqi bermas edi. Bundan otam va men juda xafa bo‘lib yurar edik. Mardikorlikka olish to‘g‘risidagi xabar tarqalgan kuni ertasiga ertalab shaharning O‘rda tagiga 20 mingga yaqin kishilar to‘plandilar. Bular oybolta, pichoq, tosh, yo‘g‘on tayoqlar bilan qurollangan edilar. O‘rda tagiga xalqning to‘planganligini eshitib, chor hukumati va mahalliy amaldorlar yetib kelib xalqni yupatmoqchi bo‘lib, mardikorlikka olishning go‘yo kambag‘allarga foydali ish ekanligini tushuntirishga intildilar. Ammo, xaloyiq uchiga ro‘mol bog‘langan tayoqlarni osmonga ko‘tarib va silkitib: «Mardikorlikka bormaymiz!», «Zolimlar borsin!» va «Ur!» degan ovozlar ko‘tarildi. Qo‘zg‘olonchilar amaldorlarga hujum qilib Mahmudbek va Mavlonbek mingboshilarni eng katta zolim boy sifatida o‘ldirdilar. Men o‘z ko‘zim bilan Mahmudbek mingboshi o‘ligini xotinlar tomonidan toshbo‘ron qilinayotganligini ko‘rdim. Mingboshilarni o‘ldirishda men ham bevosita qatnashganman. Odamlar o‘ldirilgan mingboshilarning tepasida turib: «Xudoga shukur, zolimlardan qutuldik» deb, bir-birlariga murojaat qildilar. Qo‘zg‘olon vaqtida o‘rus va mahalliy mirshablardan ham kishilar o‘ldirildi. Shu voqealardan keyin men o‘z qishlog‘im Yakkatutga qochib ketdim. Yakkatut va uning atrofidan kelgan chorikorlar, xonavayron bo‘lgan mayda dexqonlar va boshqa kambag‘allar ertasiga birgalikda qo‘zg‘olon ko‘tarib, zolimlarga va chor hukumatiga qarshi kurashdilar. Qo‘zg‘olonchilar Mansurxo‘ja mingboshini uyidan olib chiqib, «Bizning ustimizdagi zulm kammi?», «Mardikorlikka boylar

borsin», deb unga hamla qildilar. Mansurxo‘ja mingboshi qochib qutuldi. Qo‘zg‘olonchilar uning uyiga bostirib kirib, mol-mulkini talon-taroj etdi. Novvoychilik bilan shug‘ullangan kambag‘al M.Soliyev Mansurxo‘ja mingboshining uyidagi shkafni ochib, butun qarz veksellarni oldi va qo‘zg‘olonchilarga qarab: «Endi hammangiz qarzdorlikdan qutuldingiz», deb veksellarni yondirib tashladi. Bu vaqtda ellikboshi Mirzarayim qo‘zg‘olonchilar tomonidan hushidan ketguncha kaltaklandi.

Peshindan keyin qochib ketgan Mansurxo‘ja o‘rus askarlari bilan kelib, uch kishini ottirib tashladi. Ko‘p kishilar kaltaklandi va qamoqqa olindi. Qo‘zg‘olonchilarning mol-mulkları talandi. Yakkatutdagi qo‘zg‘olonchilarning faol qatnashchilaridan 58 kishini, jumladan, meni ham tutib olishib, Farg‘ona turmasiga qamadilar. Bu yerda hammamiz turli muddatlar bilan sud tomonidan hukm qilindik. Marg‘ilon shahridagi O‘rda tagi qo‘zg‘olonida mingboshilarni o‘ldirishda tashabbus ko‘rsatgan kambag‘al Purmat osib o‘ldirildi. Qo‘zg‘olonning faol qatnashchisi Mukarramxon ham osildi. Meni esa 4 yil katorga jazosiga hukm qildilar. 1917 yildan keyin ozod bo‘lib, Marg‘ilonga qaytib keldim.

G‘ofurov Muzaffar

Tug‘ilgan yili -1889

Tug‘ilgan joyi - Marg‘ilon shahri, Mashad dahasi, ikkinchi Qoraxo‘ja mahallasi

Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - dehqonchilik, ko‘nchi

O‘zining kasbi - otasiga qarashgan

Turar joyi - Marg‘ilon shahri, 98-kvartal, 19-uy

1916 yilning ro‘za oyida bo‘lib o‘tgan O‘rda tagi qo‘zg‘lonidan ikki kun oldin Saidahmadxo‘ja G‘iyosxo‘jayevning uyida chor hukumatining amaldorlari, to‘rt mingboshi, to‘rt deputat va boshqa hukumat kattalari yig‘ilishib, mardikorlikka olish to‘g‘risidagi chor hukumatining farmonini amalga oshirish masalasi bo‘yicha muhokama o‘tkazilganligi shaharga ma’lum bo‘lib qoldi. Mingboshilar va boshqa amaldorlar mardikorlikka olishlikdan

foydanmoqchi bo'lib, boy oilalaridan ularning bolalarini mardikorlikdan olib qolish sharti bilan pora oldilar va mardikorlik ro'yxatiga kambag'allarni kirgizdilar. Bu xabarlarning tarqalishiga Qosimxo'ja qozining kichik ukasi Mukarramxon sababchi bo'lган edi. Mukarramxon har dahaga odam yuborib mardikorlikka faqat kambag'allardan olinmoqchi ekanligini xabar qildi. Shundan keyin, kambag'allar har joylarda to'planib, zolimlarning xatti-harakatlari va jabr-zulmga qarshi qo'zg'olon qilishga ahslashdilar. Ertalab soat 5-6 larda O'rda tagidagi maydonga bir necha ming kishi to'plandi. Bularning ichida men ham bor edim. Taxminan, soat 10 larga yaqin O'rta tagiga shaharning o'russ va mahalliy amaldorlari yetib kelib, choyxona yonidagi baland supaga chiqdilar va mardikorlikka olish to'g'risidagi farmonni rasmiy suratda e'lon qila boshladilar. Xaloyiq birdaniga baqirib, qo'llarida tayoq va tosh ushlaganlari holda zolimlarga hujum etdilar. Natijada, Mahmudbek va Mavlonbek kabi ikki mingboshi, Ahmad va Suyazov degan mirshablar olomon qilinib o'ldirildi. Qolgan zolimlar otga minib har tomonga qochdilar. Bularning ketidan qo'zg'olonchilar to'da-to'da bo'lib quvlab ketishdilar. Shu voqeа yuz berayotgan vaqtida Kostya Markov nomli politsiya starshiysi O'rda tagidagi telefon budkasiga kirib ketdi. Men va Ibrohimov Kimsan u mirshabning telefon orqali askarlarni chaqirishligini anglab, darhol telefon simini uzishga kirishdik. Ibrohimov Kimsanning yordami bilan budka ustiga chiqib, telefon simini uzishga erishdik. Buni ko'rgan budka ichidagi mirshab chiqib menga qilich bilan hamla qildi. Ammo qilich menga tegmadi. Shundan keyin mirshab otga minib qochib ketdi. Men esa o'z uyimga ketdim. Kechqurun taxminan soat 5-6 larda Farg'onadan Marg'ilon shahriga chor hukumatining askarlari kelganligini va boshqalar bilan bir qatorda meni ham surishtirib yurganliklarini eshitib, Qo'qonga, bu yerdan Andijon va Toshkentga qochdim. Lekin oxirida tutilib, qamalgan bo'lsam ham, 1917 yildan keyin sud qilinmasdan ozod bo'lib, tug'ilib o'sgan Marg'ilonga qaytdim.

Ibrohimov Kimsan

Tug'ilgan yili - 1889

Tug'ilgan joyi - Marg'ilon shahri, Tog'lik mahallasi

Millati - o'zbek
Otasining kasbi - kavushdo'z kosib
O'zining kasbi - Marg'ilon shahar pochta-telegraf ishchisi
Turar joyi - Marg'ilon shahri, Pushkin ko'chasi, 125-kvartal, 36-uy.
Mening otam Marg'ilon shahrida yamoqchilik va kavush tikish bilan shug'ullangan. Otamning juda ham kambag'al bo'lishligi va oilamizni ta'minlay olmaganligi uchun yoshligimdanoq boylarning eshidiga bir burda non uchun xoru zor bo'lib, malay sifatida ishlaganman. Shuningdek, qorovulchilik, meshkobchilik, novvoylarga shogirdchilik va izvoshchilik ishlarini ham qilganman. Oxirida, ya'ni 1915 yilda telefon tuzatish hunarini o'rganish uchun shogird bo'ldim. Bu ish ham meni qashshoqlikdan qutqara olmadi. Menga o'xhash kishilarning soni juda ko'p bo'lib, hammamiz zulm ostida yashar edik. Ana shunday o'taketgan darajada og'ir sharoitda yashayotgan vaqtimizda biz kambag'allarni zolimlar mardikorlikka olib, boshqa yurtlarga yubormoqchi bo'ldilar. Bu hammamizning nafratimizga nafrat qo'shdi va zulmga qarshi astoydil bosh ko'tarishimizga bahona bo'ldi. Har mahallada qo'zg'olon bo'lган kuni kechasi ko'chalarda va hatto uylarda kishilarning yig'ilishib, «bir yoqadan bosh chiqaraylik» va «zolimlarga qarshi kurashaylik», «zolimlarning dastidan qachon qutulamiz» deyishib, ro'za saharidan keyin O'rda tagiga to'planmoqchi bo'ldilar. Bu yerga mardikorlikka olishga qarshi kurashish uchun boy guruhlarining ba'zilari, jumladan, Qalandarxonaning dahasining qozisi Qosimxo'ja qozi va uning ukalari Umarxon va Mukarramxon keldilar. Bularning ichida ayniqsa, Mukarramxon mardikorlikka qarshi kurashda faol qatnashdi. U qo'zg'olon bo'lган kuni kechasi mahallama-mahalla ot bilan yurib, mardikorlikka kambag'allargina olinmoqchi ekanligini xabar qildi. Ro'za saharidan keyin Yangibog'da joylashgan politsiya mahkamasi oldiga ko'p odamlar to'planib, chor hukumati amaldorlarining chiqishlarini talab qildi. Ammo, ular qo'rqib, xalq ko'ziga ko'rindilar. Shundan keyin xaloyiq azonga yaqin Qalandarxonaning dahasidagi Jarmachitga keldi. Bu yerda ham ko'p odamlar to'planib turgan ekanlar. Hammamiz bir-birimizga qo'shilib ketib, Qosimxo'ja qozidan: «Nima uchun mardikorlikka faqat kambag'allardan

201

olinadi?», «Siz qozi bo‘la turib nima uchunadolatsizlikka qarshi chiqmaysiz?» deb unga baqirdik. Qosimxo‘ja qozi esa bizning talabimiz va siqvimizdan bizning tomonimizga o‘tdi va bizlar bilan birga Saidahmadxo‘ja zovudchinikiga bordilar. Bu kishi shaharning eng ta’sirli katta boylaridan biri bo‘lib, mardikorlikka olishning birinchi tarafdarlaridan edi. Saidahmadxo‘ja o‘zining bu faoliyati bilan chor hukumatiga xizmat ko‘rsatmoqchi edi. U 4-5 mingdan ortiq odamlarni o‘ziga qarshi kelayotganlardan xabardor bo‘lib, Farg‘onaga qochib ketgan ekan. Shuni aytish kerakki, Saidahmadxo‘jaga qarshi borganlarning orasida uning ixtiyorida ishlovchi ishchilar ham ko‘p edi. Biz hammamiz Saidahmadxo‘jani uyidan topolmay O‘rda tagiga keldik. Bu yerga kelayotganimizda yo‘ldan bizga boshqa odamlar ham qo‘sildi. Bizning qatorimiz bir necha ming kishiga bordi. Biz O‘rda tagiga kelsak, bu yerda ham juda ko‘p kishilar yig‘ilishgan ekan. Oradan ko‘p o‘tmay chor hukumatining mansabdorlaridan biri mardikorlikka olish to‘g‘risidagi farmonni o‘qib tamomlamasidanoq xalq orasidan: «Chor hukumatiga bormaymiz!», «Zolimlardan o‘lar bo‘lsak, o‘lib bo‘ldik!» - degan ovozlar va shovqin-suronlar ko‘tarildi. Shu vaqtida eski yirtiq chopon kiygan bir kambag‘al (uzoqroqda turganim uchun buning kimligini tanimadim) odamlarning yelkasidan-yelkasiga emaklab o‘tib, farmonni o‘qiyotgan mansabdorga tashlandi va uni qo‘lidagi qog‘ozga changal solib yirtdi. Mansabdor esa uni otishga harakat qilgan bo‘lsa ham, lekin bunday qilolmay, kilichini qo‘liga olib va har ikki tomonga aylantirib, mingboshining otini minib va to‘pponchasini olib har ikki tomonga tez-tez otgan holda qochib ketdi. Qo‘zg‘olonchilar uning ketidan quvlagan bo‘lsalar ham, ammo uni ushlolmadilar. Shundan keyin qo‘zg‘olonchilar mahalliy amaldorlarga hujum qilib, ularni zolim sifatida olomon qila boshladilar. Men esa O‘rda tagidagi politsiya budkasidan telefon orqali Farg‘onadan askar chaqirishga intilayotganlarini ko‘rib, G‘ofurov Muzaffar bilan telefon simini uzdim. Qo‘zg‘olon vaqtida mingboshilardan Mavlonbek va Mahmudbek olomon ostida o‘ldirildi. Hatto mingboshining, ya’ni Mahmudbekning o‘lib yotgan murdasi ham jazolandı. 15-20 kambag‘al kishilar juda katta og‘ir toshlar ko‘tarib kelishib, Mahmudbek mingboshi murdasining

ustiga tashlab yubordilar. Mahmudbek mingboshining qilichini Laylayev Mavlon nomli bir kambag‘al taqib olib, «zolimlarni qiramiz» deb orqasidan bir necha ming kishini ergashtirib yurganini ko‘rdim. Ikkinchisi mingboshi Mavlonbekning o‘ldirilishi kappochning juvor bozorida yuz bergan edi. Bu yerda choyxona qurish uchun keltirilgan bir necha ming g‘isht qo‘zg‘olonchilar uchun quroq sifatida xizmat qildi va bu g‘ishtlar bilan birinchi galda Mavlon mingboshi o‘ldirilgan edi. Bu mingboshi shu darajada olomon qilindiki, uning gavdasi g‘ishtlarga ko‘milib, mutlaqo ko‘rinmay qoldi. Qo‘zg‘olonchilarining bir qismi chor hukumatining Suyazov nomli politsiya starshiysini quvlab borib, hozirgi elektr stansiyasining ro‘parasida olomon qilib o‘ldirdilar. O‘rda tagidagi Qodirjon degan nospurushning, do‘koniga qochib bekingan ikkinchi bir mirshab ham o‘ldirildi. Qo‘zg‘olonchilarining boshqa bir qismi Ahmad mirshabni o‘ldirdilar. Ularning katta bir qismi amaldorlarning uylariga bostirib borish uchun har mahallaga to‘dato‘da bo‘lib ketdilar. Chunonchi, Laylayev Mavlon bilan birgalikda O‘rda tagiga ketgan qo‘zg‘olonchilar Husanxo‘ja boyni o‘ldirdilar va uning mol-mulkini talon-toroj qildilar. Qo‘zg‘olon bo‘lgan kunning taxminan peshin soat 4-5 larida Marg‘ilon shahriga askarlar kelib ko‘p kishilarni qamoqqa oldilar va ularning mol-mulklarini taladilar. Shu ravishda O‘rda tagidagi bo‘lgan qo‘zg‘olon tamom bo‘lgan edi.

Yusufalixo‘jayev Umarxon

Tug‘ilgan yili -1866

Tug‘ilgan joyi - Marg‘ilon shahri, Qalandarxona dahasi

Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - gozi O‘zining kasbi - qozi

Turar joyi - Marg‘ilon shahri, Telman ko‘chasi, 122-kvartal, 135-uy.

1916 yilning 11 iyulida Marg‘ilon shahrining hukumat boshliqlari, jumladan, politsiya boshliqlari va mingboshilar o‘zbeklardan mardikorlikka olish to‘g‘risidagi impator farmonini olganliklari ma’lum bo‘ldi. Ushbu xabar shahar aholisini g‘azablantirib, ularni qo‘zg‘olon ko‘tarishiga olib keldi. 11 iyulning butun kechasi

davomida har mahallada kambag‘allarning o‘zaro yig‘ilishi bo‘lib, ular ahillik bilan bosh ko‘tarshiga maslahatlashdilar. Shu ravishda 12 iyulning erta azonida O‘rda tagi degan joyga shaharning har tomonidan odamlar kelib to‘plandilar. Shaharning amaldorlari ham kelib, mardikorlikka olish farmonini rasmiy suratda xalqqa qarab e‘lon qildilar. Farmon o‘qib eshittirilayotgan vaqtida xaloyiq shovqinsuron ko‘tarib, «jon bersak ham mardikor bermaymiz», deb baqirishdi. Shundan keyin qo‘zg‘olonchilar qochib ketishga intilayottai Mahmudbek va Mavlonbek mingboshilarni tutib olib va oyoq ostiga yiqitib o‘ldirdilar. Mingboshilarning uylari esa talandi. Ana shu voqealarning hammasini xalqning tarafida turgan holda o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Shundan keyin o‘z uyimga qaytdim va kechqurun O‘rda tagiga chor askarlarining Marg‘ilon shahriga Farg‘onadan kelganliklarini eshitdim. O‘rda tagidagi qo‘zg‘olonda mening akam Qosimxo‘ja (Qalandarxonaning birinchi qozisi) va ukam Mukarramxon (hech qanday ish bilan shug‘ullanmasdan bizning qaramog‘imizda yashagan) ham qatnashgan edilar. Meni va akamni qamoqqa olishib, Farg‘ona turmasiga olib bordilar. Ukam Mukarramxonni Farg‘onadagi Qo‘chqorchi qishlog‘ida qochib yurganida politsiya starshiysi Sotiboldi Ikromov ushlab olib, biz yotgan turmaga olib kelib tashladi. 1916 yilning oktabr oyida bizning hammamizni sud qilib, meni va akamni 15 yil qamoq jazosiga va ukam Mukarramxonni esa osib o‘ldirishga hukm qildilar. Bunga binoan ukamni Farg‘ona turmasida osdilar. Men va akamni Samarqandga yubordilar. Bu yerdan biz 1917 yildan keyin ozod qilindik. Akam 1937 yilda vafot etdi. Men esa hozirda 90 yoshga kirib, davlat tomonidan nafaqa olmoqdaman.

Muhammad Ibrohimov Muhammadrasul

Tug‘ilgan yili - 1890

Tug‘ilgan joyi - Marg‘ilon shahri, Maitd dahasi, Ikkinch Otaliq mahallasi

Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - to‘nfurush

O‘zining kasbi - to‘nfurush

Turar joyi - Marg'ilon shahri, 66-kvartal, 50-uy.

Chor hukumati davrida Marg'ilon shahrida boylar va kambag'allar o'rtasida ziddiyat va bir-birlarini ko'ra olmaslik yaqqol ko'zga tashlanib turar edi. Chor hukumati fuqarolarni haddan tashqari xo'rلانган va ezgan. Boylarning orasida eng yomoni va zolimi Mahmudbek va Mavlonbek mingboshilar bo'lib, bulardan hamma zirillab turgan. Ular kambag'allarni oyoq ostiga olib tepar yoki ot qamchini bilan urardi. Mingboshilar va boshqa boylar o'zlarining qilganadolatsizliklari uchun mutlaqo jazoga tortilmas edilar. Chunki, chor hukumatining amaldorlari va boshqa davlat kishilari boylarning tarafida turib begunoh kambag'allarni qoralaganlar. Chorikorlar va boshqa kambag'allarning ahvoli ayniqsa qish vaqtida juda og'ir bo'lgan. Shuning uchun ular boylardan qarz olib, buni to'lay olmas edilar. Bunday vaqtda kambag'al yanada xonavayron bo'lgan. Masalan, Mahmud mingboshi etikdo'z Oxunjon Mirzakarimovning qarzini bera olmaganligi uchun yerini va mol-mulkini zo'rlik bilan o'ziga tortib olib, unga bergen qarzini bir necha marotaba ortig'i bilan undirib olgan. Kambag'allarning ana shunday og'ir ahvoli tufayli 1916 yilgi qo'zg'olon paydo bo'lgan edi. Qo'zg'olonning kelib chiqishiga mardikorlikka olish to'g'risidagi harakat ham sababchi bo'ldi. Qo'zg'olondan bir-ikki kun oldin Mahmudbek mingboshi katta o'tirishlarda «endi paxtamiz ochildi», «endi paxtamizni teramiz», deb mag'rurlanib va maqtanib gapiribdi. Bu so'z darhol shaharga tarqalgan bo'lsa ham, ammo uning ma'nosiga tushunmay hayron bo'ldilar. Faqat qo'zg'olon bo'ladigan kun-kechasi Mahmudbek mingboshining «paxtamizni teramiz», degan so'zining ma'nosi ayon bo'lib qoldi. Kambag'allarni va boshqa unchalik katta boy bo'lмаган kishilarni mardikorlikka olish to'g'risida rus podshosining xabari kelgan ekan. Ana shu mardikorlikka olinishidan Mahmudbek va Mavlonbek mingboshilar foydalanib, paxtadan olinadigan daromadga o'xhash katta daromadga ega bo'lmoqchi ekanlar. Ya'ni, kimning puli ko'p bo'lib, mingboshilarga pora bersalar, uning o'zi yoki o'g'li qolishliklari mumkin bo'ldi. Ularning o'rniga mingboshilar faqat kambag'allarni mardikorlik ro'yxatiga olib, boylardan katta pora olganliklari ma'lum bo'ldi. Bu azob-uqubatda hayot kechirib, nafratlarga to'lib-toshgan

kambag‘allarni O‘rda tagiga kelib qo‘zg‘olon ko‘tarishlariga olib keldi. Bu yerda otam, men ham o‘z noroziligidimizni ifoda etish uchun ko‘pchilik bo‘lib keldik. O‘rda tagiga taxminan 15 mingdan 20 minggacha bo‘lgan shahar aholisi yig‘ilgan edi. Chor hukumatining farmonini o‘qiy boshlab, yarmiga kelmasdanoq xalq orasidan kambag‘allar birinchi bo‘lib: «Bormaymiz!», «Zolimlarga ishlamaymiz!» va «Ur!» degan sadolar ostida oshpichoq, tesha, oybolta, pichoq, g‘isht, tosh, ketmon dastasi kabi narsalar bilan hujum qildilar. Natijada Mavlonbek va Mahmudbek mingboshilar o‘ldirildilar. Kambag‘al Nurmat: «Odam bo‘lib bir yangi kiyim kiyib ko‘ray», deb Mahmud mingboshi o‘ldirilgandan keyin kiyimlarini va etigini yechib olib kiydi. Qo‘zg‘olonchilarning bir qismi kambag‘al Yo‘ldosh Attor boshchiligidagi O‘rda tagidagi tomoshaxonaga politsiyani quvlab bordik. Umuman aytganda, O‘rda tagida bo‘lgan qo‘zg‘onlonda otam Mirsaidov Muhammadibrohim, ukam Hoshimjon Muhammadibrohimov va men faol qatnashdim. Qo‘zg‘olon vaqtida G‘ofurov Muzaffar telefon simini uzdi. Bundan qo‘zg‘olonchilar juda xursand bo‘ldilar. Chunki, telefon simining uzilshini o‘rus askarlarining tezda yetib kelishiga to‘sinqlik qilgan. Kechqurun meni, otamni na ukamni Yangi-bog‘ mahkamasiga olib borib qamadilar. Bu yerda kazak askarlari oyoq-qo‘llarimizni bog‘lab, bizlarni «sichqon bo‘yi» qilib yerga bir necha marotaba to‘xtovsiz urdilar. Shu xilda meni, keksa otamni ham jazoladilar. Natijada hushimizdan ketib qolib, men 40 kun davomida, otam esa 80 kun davomida o‘zimizni bir oz durustroq sezdim. 82 kishini, jumladan, bizlarni ham Farg‘onaga olib borib sud qildilar. Sudda guvoh va da‘vogar sifatida Marg‘ilonning mingboshilarini, boylari va amaldorlari qatnashdilar. Qo‘zg‘olonchilarning faol qatnashchilaridan Purmat va Mukarramxon sud hukmi bilan osildi. 75 yoshli otam 15 yilga, men bir yilga, 20 yoshli ukam 3 yilga kesildik. Biz 1917 yilda qamoqxonadan ozod bo‘ldik.

Maqsudov Rahmatilla

Tug‘ilgan yili - 1886

Tug‘ilgan joyi - Marg‘ilon uyezdi, Toshloq polosti, Tojik qishlog‘i

Millati - o'zbek

Otasining kasbi - kambag‘al dehqon,

O'zining kasbi - kambag‘al dehqon.

Turar joyi - Marg‘ilon shahri, 4-kvartal,-22-uy.

1916 yilga kelib, azob-uqubatda yashayotgan fuqarolarning ustiga shundan og‘ir musibat tushdiki, bu menga o‘xhash kambag‘allarning ochiqdan-ochiq zolimlarga qarshi ko‘tarilishiga sababchi bo‘ldi. Bu musibat, o‘zbeklardan mardikorlikka olish to‘g‘risidagi xabardan iborat edi. Yozyovon volostiga qarashli qishloqlardan va shuningdek, bizning qishlog‘imizdan ko‘p sondagi kambag‘allar Marg‘ilon shahrining chekkasidagi Namanganga boradigan yo‘lda, ya’ni Chig‘anoq degan joyda to‘plandilar. Bu yerga volost idorasi joyilashgan edi. G‘azablangan xaloyiq «mardikorlikka bormaymiz», deb amaldorlarga qarab tosh otdilar. Politsiya va mingboshilar esa xaloyiqqa qarab o‘q uzdi va odamlarni kaltaklay boshladi. Shundan keyin qo‘zg‘olonchilar zolimlarga birdaniga hujum qilib, ulardan bir nechtasini o‘ldirdilar. Ammo, qo‘zg‘olon bostirilib ko‘p kishilar qamoqqa olindi, qattiq jazolandı. Chig‘anoqdagi qo‘zg‘olon-da bevosita qatnashganligim uchun men yashirindim. Lekin, ma’lum vaqtidan so‘ng meni majburiy suratda mardikorlikka yubordilar. Yozyovon volostidan hammasi bo‘lib ming kishi mardikorlikka olindi. Bular bilan meni Toshkent orqali Tambov guberniyasiga qarashli Libinskiy shahridagi cho‘yan zavodiga olib bordilar. Bu yerda biz nazoratchilarning kaltaklari va xo‘rlashlari ostida 12 soatdan ishlab, zavodga ruda tashidik. Ochlikdan va sovuqdan bizning hamrohlarimiz halok bo‘ldilar. 1917 yildan keyin bizlar o‘z Vatanimizga qaytishga muvaffaq bo‘ldik.

Rahimov Islom

Tug‘ilgan yili - 1875

Tug‘ilgan joyi - Marg‘ilon shahri, Sopilto‘da dahasi, Sopilto‘da mahallasi

Millati - o'zbek

Otasining kasbi - temirchilik

O'zining kasbi - temirchilik

Turar joyi - Marg'ilon shahri, 163 kvartal, 15-uy.

Marg'ilon shahrida 1916 yilda bo'lib o'tgan katta qo'zg'olonda kambag'allar asosiy o'rmini egalladilar. Xo'sh, nima uchun kambag'allar qo'zg'olon ko'targan edilar? Bunga javob, kambag'allarning haddan tashqari og'ir ahvoli va chor hukumatining zulmidan boshqa javob yo'q. Shaxsan mening o'zim va menga o'xshash bir necha yuz hamrohlarim qo'zg'olon ko'tarishimizdan maqsad, ozodlik uchun kurashdan iborat edi. Shahardagi boshqa kambag'allar bilan bir qatorda bizning oilamiz ham og'ir sharoitda yashagan. Otam va men ketmon, o'roq va omoch tishi yasar edik. Otamning vafotidan so'ng, bir o'zimga temirchilik bilan shug'ullanish og'irlik qildi. Shundan keyin turli ishlar bilan shug'ullandim. Ayniqsa, otamning tirikligidagi ichkari hovlimizning Aliyorboy qo'liga o'tib ketishi bizni ancha xonavayron qilgan edi. Bechora otam muhtojlik natijasida Aliyorboydan 40 tilla qarz olib, berolmay, ichkari hovlimizni unga topshirib qarzdan qutulgan edi. Shahardagi i pak gazlama to'quvchi kosiblar ustakorlarning qo'lida ishlab, tayyorlangan gazlamaning o'ndan birini yoki sakkizdan birini olar edilar. Ko'pincha kosiblar ustakordan bu bir qism gazlamani qarzdor bo'lib qolganliklari uchun ololmas edilar. Kambag'allarni boylar har qanday qiyinchiliklarga mubtalo qilib, boyliklarini orttirishga harakat qilganlar. Masalan, Kunjak mahallasidagi Usmonchaboy bir kambag'al dehqonning yerini o'ziga qo'shib olishni lozim topdi. U bunga erishmoq uchun mahalla kattalarini ziyofat qilib, ulardan kambag'al dehqonning yerini olib berishlarini talab etdi. Og'zi moylangan mahalla kattalari kambag'al dehqonning ko'ipa-yostiqlarini majburiy ravishda ko'chaga olib chiqib tashlab, uning yerini boyga zo'ravonlik bilan olib berdilar. Og'ir ahvol natijasi hamda mardikorlikka olish xabari kambag'allarni 1916 yilda qo'zg'olon qilishlariga yo'lladi.

Qo'zg'olondan bir kun ilgari kechqurun meni Mukarramxon chaqirib olib, qo'limga 4 dona xat berdi va buni to'rt dahaga tarqatishni buyurdi. Bu yerda shuni aytish kerakki, Mukarramxon qozilar oilasiga tegishli bo'lishiga qaramasdan, ko'pincha kambag'allar bilan suhbatlashar va ma'lum ish bilan shug'ullanmas edi. Mukarramxonning topshirig'i bilan 4 dona xatni tarqatib, choy-

xonaga kelib o'tirganimda, orqamdan Mahmud mingboshi Shoyusuf va Azim mirshablar bilan kelib meni tutdilar. Bilishimcha, mening xat tarqatganligimni eshitib kelgan ekan. Mirshab Mahmudbek mingboshi boshchiligidagi meni bog'lashib, oyoq boldirimni tilib, orasiga tuz sepdilar. Men baqirdim va shu onda Mukarramxon kelib Mahmud mingboshiga qarab: «Ertalik umring bormi yoki yo'qmi, hadeb vahshiylik qilaverasanmi, bu kambag'al senga nima yomonlik qildi?» deb unga do'q qildi. Men shundan keyin hushimdan ketib qolibman. Erta bilan azonda ko'zimni ochsam, uyimda yotibman va ko'chadagi shovqin-suronlar eshitildi. Shuning uchun va kechqurun hamrohlarimga bergen va'da bo'yicha O'rda tagiga zolimlarga qarshi to'planishga chiqdim. Ammo, men qo'zg'olon avj olib turgan vaqtida chiqqan ekanman.

Kasalligim tufayli yura olmasdan, birodarlarimning qilayotgan harakatlarini va kurashlarini bir chetda turib kuzatib turdim. Qo'zg'olonchilardan bir mingdan ortig'i Mahmudbek va Mavlonbeklarni urayotganliklarini va boshqa bir qismi esa mirshablarni quvlab ketayotganlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bu vaqtda Muzaffar G'ofurov telefon simini uzganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Ertasiga Laylayev Mavlon boshchiligidagi qo'zg'olonchilarning bir qismi Mahmud mingboshining uyiga borib molmulklarini talaganliklari haqidagi xabar butun shaharga tarqalgan. O'rda tagidagi qo'zg'olonda xotin va bolalar ham qatnashgan edilar. Qo'zg'olon bo'lган kunning taxminan kech soat 5-6 larida kazak askarlari kelganliklarini eshitib, Toshkentga qochib ketdim. Marg'ilonga 1917 yilda qaytib kelishga erishdim.

Abdug'afurov Orifjon

Tug'ilgan yili - 1875

Tug'ilgan joyi - Marg'ilon shahri, Segaza ko'chasi, O'rta qadim qishlog'i

Millati - o'zbek

Otasining kasbi - kambag'al dehqon

O'zining mashg'uloti - mirza

Turar joyi - Marg'ilon shahri, Navoiy ko'chasi, 20-kvartal, 144-uy.

Marg‘ilon shahrining O‘rda tagida qo‘zg‘olon bo‘lgan kuni taxminan soat 11-12 larda Qo‘qondan yetib keldim. Men Qo‘qonga shaxsiy ishim bilan borgan edim. O‘rda tagiga kelganimda bir necha ming kishilarni qo‘zg‘olon ko‘tarib g‘isht, tosh va tayoqlar bilan u yoqdan bu yoqqa chopganlarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Qo‘zg‘olonchilar Mahmudbek va Mavlonbek mingboshilarni va boshqa amaldorlarni o‘ldirib qo‘yanliklari menga ma’lum bo‘ldi. Bir necha soat o‘tgandan keyin, shaharga soldatlar kelib va uyma-uy yurib qo‘zg‘olonchi kambag‘allarni tutib qamoqqa oldilar. Bu yerda qo‘zg‘olonchilar shafqatsiz ravishda jazolandı. Ularning hammasi Farg‘ona qamoqxonasiga yuborilib, sud qilindi va turli muddatlarga kesildi. Ulardan bir nechtasi esa osib o‘ldirishga hukm etildi. Bularning oilasi meni vakil sifatida Toshkentga, general-gubernator Kuropatkinning oldiga sud hukmini yengillashtirishni talab etib yubordilar. Chor hukumati va uning amaldorlari xalq ommasining sud hukmidan juda qattiq norozi bo‘lganlaridan cho‘chib, o‘lim jazosi berilgan hukmni uzoq muddatli qamoq bilan almashtirdi. Faqat qo‘zg‘olonchilarning eng faollaridan Nurmat va Mukarramxon osildi.

Toshpo‘latov Mamajon

Tug‘ilgan yili - 1896

Tug‘ilgan joyi - Marg‘ilon shahri, Qalandarxona dahasi

Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - 1914 yilgacha Fayziobod volostining oqsoqoli,
o‘rta hol dehqon

O‘zining mashg‘uloti - Farg‘ona shahar bilim yurtining
o‘quvchisi

Turar joyi - Marg‘ilon shahri, 27-kvartal, 1-uy.

Marg‘ilon shahrining O‘rda tagidagi maydonida bo‘lgan qo‘zg‘olonda chorikorlar, u hunarmandlar va boshqa kishilardan tashqari zavod ishchilari ham faol qatnashgan edilar. 1914-16-yillarda Marg‘ilonda bir nechta paxta zavodi bo‘lib, bularda asosan, mahalliy ishchilar ishlar edilar. Zavod egalari Saidahmadxo‘ja G‘iyosxo‘jayev, Madrayimqori Sarimsoqov, Mullaqorabek

Botirbekov, Mirzaolim Mirdovidov va boshqalar ishchilarni juda qattiq ezganlar. Paxta zavodi ishchilari 12 soat va hatto undan ko‘p vaqt ishlab, juda oz ish haqi olganlar. Ularning turar joylari va turmush hayotlari o‘ta ketgan darajada og‘ir bo‘lib, ularning orasida turli kasalliklarga duchor bo‘lganliklari oz emas edi. Zavod egalari ishchilarni oyoq osti qilib, xo‘rlaganlar. Shuning uchun ham ishchilarni shaharning boshqa kambag‘allari bilan birgalikda O‘rda tagidagi qo‘zg‘olonda faol qatnashayotganliklarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. Men bu vaqtida o‘qishdan ta’tilga Marg‘ilon shahriga kelganligim tufayli O‘rda tagidagi qo‘zg‘olon guvohi bo‘lishga erishdim. Qo‘zg‘olon vaqtida zavod va temir yo‘l ishchilari temir-tersak va g‘isht ushlagan holda mingboshilarni va chor amaldorlarni o‘ldirishda faol qatnashib, ozodlik kurashiga o‘zlarining katta hissalarini qo‘shdilar.

Mirzaboboyev Tursun

Tug‘ilgan yili - 1888

Tug‘ilgan joyi - Marg‘ilon shahri, Jurmon mahallasi

Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - chorikor

O‘zining kasbi - chorikor, mardikor, xizmatkor

Turar joyi - Marg‘ilon shahri, Navoiy ko‘chasi, 1-kvartal, 8-uy.

Otam va onam o‘zlarining uy-joylariga ega bo‘lmay, boylarning eshigida otam chorikor, onam esa oqsoch bo‘lib og‘ir sharoitda «hayvon» kabi yashaganlar. Bizlarga o‘xhash kambag‘allarning soni Marg‘ilon shahri aholisining ko‘pchilik qismini tashkil etgan. Shuning uchun ham 1918 yilgi xalq qo‘zg‘olonida kambag‘allar qatnashib, zolimlarga qarshi bosh ko‘targan edilar. Men ham boshqa kambag‘allar bilan bir qatorda O‘rda tagidagi qo‘zg‘olonda qatnashganman. Qo‘zg‘olonchilar O‘rda tagida zolimlardan bir nechtasini olomon qilib o‘ldirdi. Qo‘zg‘olondan so‘ng men yashirindim. Lekin, bir necha kunlardan keyin majburiy suratda mardikorlikka olindim. Meni va boshqa hamrohlarimni Penza-Sizran, orqali Minskiy gubernasiga olib borib, ustimizdan juda qattiq zulm qildilar va ezdilar. So‘ngra o‘z ona shahrimga qaytib kelib, 1917 yildan 1951 yilgacha militsiya organlarida xizmat qildim.

Mahamadrahimjonov Usmonjon
(Muhammad Rahimov Usmonjon)

Tug‘ilgan yili - 1900

Tug‘ilgan joyi - Andijon shahri, O‘lik daha, Qoramulla mahallasi
Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - novvoychilik

O‘zining kasbi - novvoychilik

Turar joyi - Andijon shahri, Ikkinchi bo‘lim, Qizil yulduz
ko‘chasi, 91-uy.

1916 yil eski oy bilan ro‘za oyida bo‘lgan Andijon shahrining
Jome degan joyida xalq qo‘zg‘olonidan meni xotiralarim
tubandagichadir:

Xalq qo‘zg‘oloning kelib chiqishi shundan iborat bo‘lgan edi.
Men 17 yoshda, har holda, yosh bo‘lsam ham esim bor edi.
Bizlar boylar tomonidan qattiq ezilayotganimizni va oyoq osti
qilinayotganimizni juda yaxshi sezar edik. Shuningdek, chor
hukumatining jabr-zulmini tortganmiz. Meni otam aslida kambag‘al
bo‘lib, bag‘rini kechayu kunduz olovga berib novvoychilik bilan
shug‘ullangan. Bu ishda men otamga bevosita yordam bergenman.
Novvoychilikdan keladigan daromad shu darajada oz bo‘lib, doimo
yo‘qchilikda yoki muhtojlikda hayot kechirar edik. Bizga o‘xhash
novvoylarni va boshqa kambag‘allarning ahvoli juda achinarli edi.
Boylarning, chor hukumatining adolatsizliklari va jabr-zulmi
menga o‘xhash qashshoqlarni qo‘zg‘olon ko‘tarishga majbur qildi.
Qo‘zg‘oloning 1916 yilga kelib ko‘tarilishiga sabab, kambag‘allarni
mardikorlikka olish bahona bo‘ldi. Ko‘p sondagi kambag‘allar
Andijon shahrining markaziy joyi hisoblangan Jomega to‘plandi.
Bu yerda shahar amaldorlari mardikorlikka olish to‘g‘risida og‘iz
ochganlarida xalq orasidan: «Mardikorlikka bormaymiz!»,
«Mardikorlik zulmini tortmaymiz!», «Boylarning o‘zları mardikor-
likka borsin!» — degan ovozlar ko‘tarildi. Xalqning ana shunday
zolimlarga qarshi xitoblariga qaramasdan mingboshilar xalqqa qarab
do‘q qilgan edi, xaloyiq shu ondayoq «zolimlarni o‘ldirish payti
keldi», deyishib ulardan birini tosh-g‘ishtlar bilan o‘ldirildilar.

Shundan keyin chor hukumatining amaldorlari va mahalliy boylar Yangi shaharga qarab qocha boshladilar. Bularning ketidan kambag‘allar qo‘llarida tayoq, ketmon, pichoq, tosh va boshqa shunga o‘xhash narsalar bilan quvib ketdilar va taxminan bir chaqirim yo‘l bosilgandan keyin zolimlarning askarlari bilan qonli urush boshlandi. Ana shu vaqtida men qochib ketayotgan chor hukumatining shahar hokimi o‘tirgan izvoshini to‘xtatmoqchi bo‘lib otning jilovini ushладим va orqaga tortdim.

Qo‘zg‘olonchilar esa hokimga yopishdilar, hokim izvoshga o‘tirganda to‘xtatganimda soldat menga qilich soldi va qo‘limni tirsagigacha chopib tashladi, shuningdek, dahanimning tagi ham qilichdan yaralandi. Shundan keyin hushimdan ketdim va faqat kasalxonadagina o‘zimga keldim. Bu yerda men bilan bиргаликда yarador bo‘lgan qo‘zg‘olonchilardan 20 kishi keltirilgan ekan. Bizlar qattiq nazorat ostida kasalxonada yotdik. Bizning oramizda qattiq yaralanganlardan kambag‘al Sayibahrор (Sharipboy guzarlik, og‘zidan o‘q yegan), mahalla qorovuli Hojiboy, Maqsudali Qori (boshidan qilich yegan) va boshqa qo‘zg‘olonda qatnashib yaralangan bir necha kambag‘allar kasalxonada o‘ldilar.

Bu hodisalar hozirgi Andijon viloyat kasalxonasining binosida yuz bergan edi. Qo‘zg‘olon qatnashchilaridan va katta tashabbus ko‘rsatganlardan taxminan 20 kishini va meni sud qilib turli muddat bilan qamoq jazosiga hukm qildilar. Sud Andijon shahrida bo‘lib o‘tdi. Mening qo‘limdan ayrılganimni va yoshligimni hisobga olib, shartli ravishda bo‘shtadilar.

Mirzayev Yo‘ldosh

Tug‘ilgan yili - 1879

Tug‘ilgan joyi - Andijon shahar, Beshtosh dahasi, A’lam domla mahallasi

Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - chorikor

O‘zining kasbi – Ro‘zioxunboy paxta zavodida yuk tashuvchi, boylarning eshidiga xizmatkor

Turar joyi - Andijon shahrida yashaydi.

Andijon shahrida qovun pishig‘ida yuzaga kelgan qo‘zg‘olon haqidagi xotiralarimni so‘zlab o‘tmoxchiman. Bu qo‘zg‘olonda men va boshqa kambag‘allar qatnashib zolimlarga qarshi kurashgan edik. Bizlar qo‘zg‘olondan oldin chor hukumatiga tayangan boylarning jabr-zulmi ostida azob chekkanmiz.

Mening otam boylarning ixtiyorida chorikorlik qilgan. Shuning uchun ham men o‘qish va baxtli turmushdan mahrum edim.

Otam go‘dakligimda vafot etishi natijasida bizning oilamiz yetim qolib ko‘p sarson bo‘lganmiz. Men boylar eshidida xor-zor bo‘lib yashagan edim. Balog‘atga yetganimdan keyin Ro‘zioxunboyning paxta zavodida yuk tashuvchi sifatida ishladim. Ammo mening og‘ir hayotim yaxshilanmadni. Chunki zavod egasi bo‘lgan boy b i z n i ertayu kech ishlatib, juda oz ish haqi berar edi. Shuning uchun menga o‘xhash zavod ishchilarining turmushi juda tang bo‘lgan. Og‘ir sharoit va zulm, xo‘rlik natijasida men zavoddan chiqib ketdim. Ammo hech qayerdan qornimni nonga «to‘yg‘azadigan» ishni topolmadim va boylarning qo‘lida xizmatkorlikda ezildim. Menga o‘xhash boylarning va chor hukumatining zulmidan azob chekkan kambag‘allar soni juda ko‘p edi. Boylar va chor hukumati amaldorlari bizlarning ustimizdan har qanday adolatsizliklarni qilar edilar.

Qornimiz och va yalangoyoq edik. Bu bizni tekinxo‘rlarga qarshi kurashishga yo‘naltirdi. Shu ravishda biz Andijon shahrida bo‘lib o‘tgan qo‘zg‘olonga kirib kelgan edik. Qo‘zg‘olonda mardikorlikka yuborishlikka qarshi ham chiqqanmiz. Qo‘zg‘olondan bir kun ilgari shaharda mardikorlikka faqat kambag‘allarni olar emish, degan so‘zlar tarqalgandan keyin har joyda yig‘in bo‘lib, bunda kambag‘allar «o‘lish yoki qolish», «Zolimlarga bo‘s sh kelmaymiz» degan so‘zlar bilan shovqin-suron qildilar. Bu yig‘inlardan xabardor bo‘lgan chor hukumati amaldorlari va boylar bir nechta kambag‘allarni kaltaklab qamoqqa oldilar. Shundan keyin xalqning noroziligi juda kuchaydi va kechasi bilan mahallalarda harakat to‘xtamadi. Ertasiga bir necha ming kishilar shaharning Jome’ maydoniga to‘plandilar. Qo‘zg‘olonchilar o‘tin bozoridagi saksovullarni va katta soyabonlarning uzun-uzun yog‘ochlarini olib va osmonga ko‘tarib shovqin-suron soldilar. Odamlarning qo‘lida tosh va g‘ishtlar, meni qo‘limda esa tayoq bor edi.

Olomonning ichida xotin-qizlar va bolalar ham qatnashdilar.

Chor hukumatining askarlari bilan birgalikda shahar hokimi, amaldorlari va boshqa boylar kelishi bilanoq ularga hujum qilindi. Ular qochdilar va bizlar esa ularni quvladik. Shundan keyin chor hukumi askarlari bizga qarshi o‘q uzdi va bir cholni o‘ldirdilar. Bir yosh yigit oyog‘idan yaralandi. Hozirgi «Mehnat guli» artelining oldida ham chor hukumi o‘qidan bir kambag‘al va qo‘zg‘olonchi halok bo‘ldi. Qo‘zg‘olon qatnashchilaridan bir nechta jazolandi va qamoqqa olindi. Men o‘zimni panaga olib, to 1917 yilgi fevral voqeasiga qadar har joylarda qochib yurdim.

Darvishev Mahamad

Tug‘ilgan yili - 1900

Tug‘ilgan joyi - Andijon shahar, Qiyalik dahasi, Omonjo‘ra mahallasi

Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - chorikor

O‘zining kasbi - chorikor

Turar joyi - Andijon shahri, Baynalmilal ko‘chasi, 10-uy.

Jomedagi qo‘zg‘olonda otam va men bevosita qatnashib, chor hukumatiga qarshi kurashgan edik. Qo‘zg‘olondan oldin otam Qosimov Darvish, Suvanboyhoji va Rahmatullahoji boylar yerida yetishtirilgan hosilning beshdan bir qismini olish sharti bilan ertayu kech mehnat qilar edik. Men yoshligimdanoq otam bilan birgalikda ishlab, chorikor bo‘lganman. Kuzda hosil yig‘ib olinayotgan vaqtida boy yoki boyning yaqin kishilaridan biri shartlashilgan hosilning beshdan bir qismini ko‘pincha bermagan. Chunki otam shu darajada kambag‘al ediki, qarzdorlikdan qutulmagan. Natijada biz yanada chuqurroq qarzdorlik zulmiga botib qolganmiz. Masalan, mening otam Mamajon boydan 100 so‘m pulni 130 so‘m qilib berish sharti bilan oldi. Ammo otamning chorikorlikdan topgan puli hatto kundalik ovqatga yetmasligi natijasida o‘z qarzini vaqtida berolmadi. Shuning uchun bizning olgan 100 so‘m qarzimiz bir yil davomida foiz tug‘ib 390 so‘mga yetdi. Bu pulni otam va men juda qattiq mashaqqat va mehnatlar tufayli zo‘rg‘a uzgan edik. Qarzdan uzilgan bo‘lsak ham, ammo

xonavayronchilikka uchrab juda qashshoqlashdik. Buning ustiga, bizga o'xhash kambag'allarni mardikorlikka olib yanada qattiqroq ezmoqchi bo'ldilar. Shuning uchun men va otam mahallamizdag'i kambag'allar bilan birgalikda bosh ko'tarib Jomega keldik. Bu yerga kelsak, bir necha ming odamlar to'planib turgan ekanlar. Bizlar ularga qo'shildik.

Mingboshilar, amaldorlar va boshqa boy kishilar mardikorlikka yuborish to'g'risida gapirgan vaqtida xaloyiq: «Boylarga boqib qo'ygan bolamiz yo'q», «Bormaymiz!» - deyishib hujum boshladı. Zolimlar qochdilar. Bularning ketidan bizlar quvladik va Qatorterakda chor hukumatining askarlari bilan to'qnashuv bo'ldi.

Kambag'al novvoy Muhammad Rahimjonov Usmonjon o'z ketidan bir to'da kambag'allarni ergashtirgani holda izvoshda qochib ketayotgan shahar hokimi yoqasidan tortib yiqitmoqchi bo'lganida bir askar uni qo'liga qilich urdi. Natijada Usmonjonning butun qo'li tirsagigacha kesilib tushdi. Bu voqeani men o'z ko'zim bilan ko'rdim.

Qo'zg'olonchilar bo'sh kelmagandan so'ng, chor hukumati askarlari «Yangi shahar»ga qochdilar. Oradan bir-ikki soat o'tgandan keyin, «Yangi shahar»dan ko'p sondagi askarlar kelib, ko'p kishilarni qamoqqa oldi. Men 1917 yilgacha qochib yurdim.

Xolboboyev Oxunbuva

Tug'ilgan yili -1888

Tug'ilgan joyi - Andijon shahri, Soy dahasi, Yakanshiq mahallasi

Millati - o'zbek

Otasining kasbi - yamoqchi kosib

O'zining kasbi – boylarning eshigida xizmatkor

Turar joyi - Andijon shahri, O'zgarish mahallasi, Obod ko'chasi, 23-uy

Boylarning eshigida xizmatkor sifatida turli ishlarni bajarib bir kunimni zo'rg'a o'tkazib yurgan vaqtimda meni zolimlar majburiy sur'atda mardikorlikka oldilar. Andijonda mardikorlikka olish Jomedagi qo'zg'olondan keyin yuz bergen edi. Bu qo'zg'olon vaqtida

men Segaza degan qishloqda bo'lganligim uchun kambag'allarning zolimlarga qarshi kurashida qatnasha olmadim. Shuning uchun men juda afsuslangan edim. Chunki, men va oilamiz boylarning qahri zulmini ko'p tortganmiz.

Andijondan ming kishini, jumladan, meni vokzalga olib chiqib poyezdga o'tirgizganda shahar mingboshilari va boylari oldimizga kelib «xayr lashmoqchi» bo'lgan vaqtida, biz kambag'allar ularga qarshi nafrat so'zlarini otdik va haqorat qildik. Bizning ichimizdag'i Abdurahmonov Eshon degan bir kambag'al mingboshiga qarab shunday dedi: «Menim hovlimni tortib olib, xonavayron qilgan eding. Shundan keyin men vokzalda yuk tashuvchilik qilib yurgan edim. Ammo sen xotintaloq meni o'z holimga qo'ymay mardikorlik zulmiga tortding!» - deb baqirganda hammamiz uning so'zlarini quvvatlab, boylarga hujum qildik. Boylar chor hukumati askarlari himoyasi ostida o'zlarini chetlatib qolishga erishdilar.

Ammo mardikorlikka olingan kambag'allarning chor hukumatiga qarshi harakati zo'rayib bordi. Bundan xavf olgan chor hukumati amaldorlari Abdujabbor mingboshining o'z amalidan bekor qilganliklarini vokzalda bizga e'l^{TK/122} qildilar. Shundan keyin bizlarni Odessa tomonga yuborib, qattiq ishl^{TK/122} uilar va ko'p zulmlarni qildilar. 1917 yilda o'z Vatanimizga qaytish imkoniga ega bo'ldik.

Hasanov Abdullahan

Tug'ilgan yili - 1892

Tug'ilgan joyi - Andijon uyezdi, Oltinko'l volosti, Dalvarzin qishlog'i

Millati - o'zbek

Otasining kasbi - kambag'al dehqon

O'zining kasbi - kambag'al dehqon

Turar joyi - Andijon viloyati, Oltinko'l tumani, Telman kolxozi, Dalvarzin q/s.

Bizning oilamiz ham chor hukumati zulmidan azob chekkan oilalardan biri edi. Mening otam o'ziga qarashli kichkina yerida ishlab, olgan hosilining ko'p qismini turli soliqlarni to'lash va boylarning ishtahasini qondirish uchun berishga majbur bo'lgan.

Boylar zulmiga vaadolatsizliklariga qarshi so‘z aytuvchilar yoki ularga bo‘ysunishdan bosh tortganlar qattiq jazoga tortilgan. Masalan, kunlardan birida qishloq amaldorlaridan biri Mansurqul Amin bizning uyimizga kelib o‘lponni tezda to‘lashimizni talab etdi. Ammo uning talabini qondirishga bizning imkonimiz yo‘q edi. Shuning uchun Mansurqul Amin mening otamni olib chiqib ketib qattiq xafa qilibdi. Buni otam qaytib kelgandan keyin g‘azablanib menga gapirib bergan edi. Boylar chor hukumatiga tayangan holda dehqonlarni ezib, yerlarini o‘z qo‘llariga to‘pladilar va ko‘p mayda dehqonlarni chorikorga aylantirib ishlatdilar. Masalan, Yakvolihoji boy kambag‘al dehqon Shokir Quvvatovning yerini majburiy suratda o‘z yeriga qo‘sib oldi. Chunki Shokir Quvvatov undan olgan qarzini berolmagan. Qiynalib, azob chekib turganimizda bizlarni mardikorlikka olmoqchi va boshqa shaharlarga yubormoqchi bo‘ldilar. Chor hukumatining bu maqsadi Dalvarzin qishlog‘idagi aholining zulmga qarshi chiqishlariga turtki bo‘ldi.

Qo‘zg‘olondan oldin qishloqning har joyida to‘planishlar bo‘lib, bunda kambag‘al dehqonlar va chorikorlar «chor hukumatiga qarshimiz», degan so‘zlar bilan kechasi qo‘zg‘olon ko‘tarishga ahd qildilar.

Shundan keyin zulm ostida juda qashshoqlashgan va nafratga to‘lib-toshgan kambag‘allar, jumladan, Mahammadazim Umurzoqov, Shodmonali Saydaliyev, Mahmudaka (otasining ismi yodimda yo‘q), Ismoil (otasining nomi esimda yo‘q) o‘z atroflariga qishloq kambag‘allarini va o‘ziga to‘q bo‘lgan (ammo uncha boy bo‘lmagan) kishilarni uyuشتirib, qishloqdagi amaldorlar turadi-gan joyga bordilar. Bular bilan bir qatorda otam va men ham borib, qo‘zg‘olonda qatnashdik. Hammamizning maqsadimiz zulmdan va mardikorlikka borishlikdan qutulish edi. Shuning uchun bizlarga qarab qishloq mingboshisi Hakimbek va uning mirshablari o‘q uzishga harakat qildilar. Shu ondayoq qo‘zg‘olonchilar ularga tosh, tayoq, bolta va pichoqlar bilan hujum qilib, Hakimbek mingboshi va ikkita mirshabni o‘ldirdilar. Mingboshiga pichoqni birinchi bo‘lib kambag‘al Mahammadazim Umurzoqov urdi.

Qishloq mingboshisi va mirshablarni o‘ldirishda kambag‘al dehqon Shodmonali Saydaliyev katta jasorat ko‘rsatgan. Tong

otgandan so‘ng askarlar kelib qo‘zg‘olon qatnashchilarining oilalari- ni, jumladan, xotin-qizlarni, hatto kampirlarni ham tepdilar va savaladilar. Uylaridagi mol-mulk va mevalar soldatlar tomonidan talandi.

Askarlar xotinlarni va onalarni emchaklaridan ushlab sudradilar va ulardan qochib ketgan erlarini yoki o‘g‘illarini topib berishni talab etdilar. Buni eshitgan qo‘zg‘olonchilar o‘z oilalarini saqlab qolish maqsadida ixtiyoriy ravishda qishloqqa qaytib kela boshladilar. Otam va men ham qishloqqa qaytishga majbur bo‘lganmiz. Qishloqda bir nechta kishilarni, jumladan, otam Hasan Quvvatov va men, Muhammadazim Umurzoqov, Mahmud aka, Ismoil, Shodmonali Saydaliyev, Qoraboy Ismoilov va boshqalar qamoqqa olindik. Qamoqxonada otamni olib qolib, meni yosh ekan, deb chiqarib yubordilar. Otam sud qilinib, 15 yilga hukm etildi. Muhammadazim Umurzoqov, Shodmonali Saydaliyev va Mahmud osib o‘ldirishga hukm etildi. Muhammadazim osilib, qolgan ikki kishi esa 15 yil qamoq jazosini oldi. Qishlog‘imizdan yana bir necha kishi turli muddatdagi qamoq jazosiga hukm qilindi. Mening otam 1917 yildan keyin qishlog‘imizga qaytdi.

To‘xtasinov Usmonali

Tug‘ilgan yilga - 1885

Tug‘ilgan joyi - Andijon uyezdi, Jalaquduq volosti, Jalaquduq qishlog‘i

Millati - o‘zbek

Otasining kasbi - yamoqchi kosib

O‘zining kasbi - chorikor

Turar joyi - Andijon viloyati, Jalaquduq mahallasi

So‘fi qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan xalq qo‘zg‘olonida bir nechta atrof qishloqlarining, jumladan, Jalaquduq qishlog‘ining aholisi qatnash- ganligining guvohiman. Bizning qishlog‘imizdagi aholining turmush hayoti boshqa qishloqlarga o‘xshash juda og‘ir bo‘lgan edi. Boylar- ning katta yerlarida chorikorlar paxta eksalar beshdan bir qismini, don eksalar uchdan bir qismini olish sharti bilan ishlaganlar. Ammo chorikorlar hosil yetishtirguncha qarzdor bo‘lib qolishlari natijasida olishi lozim bo‘lgan hosilning ma’lum qismini boydan

ololmas edilar. Xuddi shu ravishda men ham Madkarim boyning yerida chorikorlik qilganman.

Bizning qishlog‘imiz aholisi chor hukumatining amaldorlariga og‘ir va turli xildagi soliqlarni to‘laganlar. Yuqoridagi sabablar hamda mardikorlikka olish to‘g‘risidagi xabar kambag‘allarni qo‘zg‘olon ko‘tarishga olib keldi. Bu yerdagi qo‘zg‘olonda bizning qishlog‘imizdagi kambag‘allar qashshoqlashgan va xonavayron bo‘lgan Qalandarov Yaqub boshchiligidagi qatnashganliklaridan mening xabarim bor edi. So‘fi qishlog‘ida qo‘zg‘olonchilar boyldan bir nechtasini olomon qilib o‘ldirganliklari tez orada bizning qishlog‘imizga ham yetib keldi.

Qo‘zg‘olondan keyin bizning qishlog‘imizdan kambag‘al dehqon Xolmat Xudoyberdiyev, chorikor Xo‘jamberdi Egamberdiyev, chorikor Tojiqul (familiyasi yodimda yo‘q) va Qalandarov Yaqublarni askarlar qattiq kaltaklab, qamoqqa olganliklarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rgan edim. Bularning ichidan kambag‘allarning yo‘lboshchisi sifatida Qalandarov Yaqub chor hukumati tomonisdan osib o‘ldirildi. Qalandarov Yaqub juda ham kambag‘al bo‘lib, o‘zining unumsiz va juda kichik yeriga ega edi. U jabr-zulm ostida ko‘p nashaqqatlar tortgan. Shuning uchun ham Qalandarov Yaqub bizning qishlog‘imizdagi kambag‘allarga bosh bo‘lib, So‘fi qishlog‘idagi qo‘zg‘olonda zolimlarga qarshi kurashda jasorat ko‘rsalgan.

To‘xtasinov To‘xtamurod

Tug‘ilgan yili - 1886

Tug‘ilgan joyi - O‘sh uyezdi, Buloqboshi, Xo‘jaobod qishlog‘i Millati - o‘zbek

Otaqning kasbi - dehqon

O‘zning kasbi - dehqon

Tur‘r joyi - Andijon viloyati, Xo‘jaobod tumani, Xo‘jaobod qishloq kengashi.

O‘sli uyezdining Xo‘jaobod qishlog‘ida 1916 yilda qashshoqlashgan dehqonlarning qo‘zg‘oloni bo‘lib, bunda men ham qatnashdim. Qo‘zg‘olon quyidagi sabablar natijasida paydo bo‘lgan:

bizning qishlog‘imizda boylar o‘z qo‘llariga katta yerkarni to‘plab, mehnatkash aholini haddan tashqari ezganlar. Ular o‘z yerlarida chorikorlarni ishlatisib va kambag‘al dehqonlarni oyoq osti qilib, katta boyliklarga ega bo‘lganlar. Buning natijasida qishlog‘imizda xonavayron va qashshoq bo‘lgan kambag‘allarning soni juda ko‘payib ketdi va boylarga qarshi nafrat nihoyatda avj oldi.

Xo‘jaobod qishlog‘ida Muhammad Sodiqxo‘ja boy, Imin Oxunboy, Rahimboy va mingboshilar kambag‘allarning eng ashaddiy ezuvchisi hisoblanganlar. Bu boylar chor hukumatining oldida tiz cho‘kib va uning manfaatini ko‘zlab kambag‘allarni mardikorlik zulmiga mubtalo qilish to‘g‘risida bir qator choralarni ko‘ra boshladilar. Ular kambag‘allarni mardikorlik ro‘yxatiga yozib, majburiy suratda Rusyaning uzoq shaharlariga yubormoqchi bo‘ldilar. Bu xalqning ustiga tushgan musibat chor hukumatiga qarshi bo‘lib turgan va nafrat g‘azabi oshib-toshib ketgan qashshoqlarni ochiqdan-ochiq zolimlarga qarshi ko‘tarilishlariga olib keldi. Bu qo‘zg‘olonda o‘rta hol dehqonlar va boshqa uncha boy bo‘lмаган oilalar ham qatnashdilar. Chunki bu oilalar katta boylarning va chor hukumatining adolatsizliklarini va siquvlarining jafosini tortib turganlar. Mening oilam ham xuddi ana shunday oilalardan biri hisoblangan. Masalan, o‘z to‘g‘rimdag‘i bir voqeani aytib o‘tay: kunlardan birida Imin Oxunboy meni unga salom bermaganligim uchun hojatxonaga qamab qo‘ygan edi. Bunga o‘xhash boshqa xo‘rlashlarni ham ko‘rganmiz. Bizga o‘xhash oilalarning soni oz bo‘lмаган. Yuqoridagilardan tashqari, bizlar turli xildagi soliqlarni va majburiyatlarni chor hukumatining foydasiga to‘lar va ishlar edik. Shunday qilib, meni va boshqa menga o‘xhash kishilarning qo‘zg‘olonda qatnashishlariga sabab chor hukumatining zulmi hisoblangan.

Xo‘jaobod qishlog‘ining hamma joyida kunduz kuni to‘planishlar bo‘lib tayyorgarlik ko‘rildi. Kechasi tosh, ketmon, tayoq va pichoqlar bilan qurollanib, amaldorlarni tutish va ularga jazo berish maqsad qilib qo‘yildi. Bunga binoan kechasi qishlog‘imizning aholisi to‘planib, boylarni qidira boshladilar. Birinchi galda qo‘zg‘olon ko‘targan kishilar, jumladan, men ham qishlog‘imizning eng katta boyi va zolimi hisoblangan. Imin Oxunboyni va uning akasining

o‘g‘li mingboshi Mahammadjon Soliyevni tutib olish uchun uyiga bostirib bordilar. Ammo boylarning birortasi ham qo‘limizga tushmadi. Chunki bizning qo‘zg‘oltonni kechasi ko‘tarmoqchi ekanligimizni bilishib qochib ketganlar.

Qo‘zg‘olonchilar Imin Oxunboyning uyiga borishib, uning darvozasini va oynalarini tosh, tayoqlar va boltalar bilan buzdilar va sindirdilar. Ertasiga askarlar kelib, qishloqda bosh ko‘targan kishilarni savaladi va qamoqqa oldilar. Qamoqqa qo‘zg‘olon qatnashchilaridan quyidagilar olingan:

1. Usmon Mahamatov,
2. Ibrohimjon Usmonov,
3. To‘xtamurod To‘xtasinov,
4. Salohiddin Xoliqov,
5. Tilaboldi Sheraliyev,
6. Abdurahim Maxsim Madalimov,
7. Abdurahimjon Umurzoqov,
8. Umurzoq hoji To‘xtaxo‘jayev,
9. Satim Yangiboyev.

Kambag‘allarining ichida Usmon Mahamatov qo‘zg‘oltonni uyushtirishda jonbozlik bilan harakat qildi. Shuningdek, Satim Yangiboyev ham kambag‘allarning tepasida turgan kishilarning biri bo‘lgan. Men va boshqa qo‘zg‘olonda qatnashib qamalganlar 1917 yilda sud qilinmasdan qamoqxonadan ozod bo‘ldik.

TDV İSAM
Kütüphanesi Arşivi
No TK/122

